Biroq mazkur jarayonda bir qator muammoli vaziyatlar ham ko'zga tashlanadi. Avvalo, ayrim an'anaviy tarbiyaviy tajribalar zamonaviy pedagogik metodlarga moslashtirilmagan, bu esa ularning ta'lim tizimida yetarlicha qo'llanilmay qolishiga sabab bo'ladi. Ikkinchi muammo — xalq pedagogikasi manbalarining ilmiy asosda tizimlashtirilmaganligi; ko'plab qadriyatlar og'zaki shaklda bo'lgani uchun ularni ilmiy tahlil va amaliyotga tatbiq etish jarayoni murakkablashadi. Shuningdek, globallashuv sharoitida ayrim yoshlar orasida milliy qadriyatlarga befarqlik kuchayayotgani xalq pedagogikasining tarbiyaviy funksiyalarini to'laqonli amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli xalq pedagogikasini ilmiy asosda qayta baholash, uni zamonaviy ta'limga mos integratsiya qilish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Xalq pedagogikasi manbalaridagi tarbiyaviy mazmun zamonaviy ilmiy-pedagogik qarashlar bilan uyg'unlashadigan boy ma'naviy merosdir. Undagi g'oyalar shaxsning har tomonlama kamol topishiga, jamiyatning barqaror rivojlanishiga va milliy o'zlikni asrashga xizmat qiladi. Shu bois xalq pedagogikasini o'rganish, uning mazmunini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hozirgi pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva, Q. Xalq pedagogikasi asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Hasanov, T. Folklor va tarbiya: nazariya va amaliyot. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.
3. Karimova, D. "O'zbek xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy mohiyati." Pedagogika va psixologiya jurnali, №4, 2021, 45–52-betlar.
4. Rahmonov, A. Milliy tarbiya va ma'naviy meros. — Toshkent: Fan, 2020.
5. Jo'rayev, M. "Xalq pedagogikasi g'oyalarning zamonaviy ta'limdagi o'rni." Ta'lim texnologiyalari, №2, 2022, 31–38-betlar.
6. Najmiddinova, S. Oila tarbiyasida an'anaviy qadriyatlar. — Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2017.
7. Boymirov, O. "Xalq og'zaki ijodi materiallarining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati." Ma'naviyat va ma'rifat, №6, 2020, 22–27-betlar.



O'SMIRLARDA EMPATIYA QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Qodirova Zebuniso Malikovna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda o'smir yoshdagi shaxslarning empatiya qobiliyatini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari, ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati hamda ijtimoiy moslashuvdagi o'rni yoritilgan. Empatiya—o'smir shaxsining shaxslararo munosabatlari, o'zini anglash jarayoni va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiruvchi muhim psixik sifat sifatida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: empatiya, o'smirlik davri, emotsional intellekt, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy moslashuv, refleksiya, tarbiya.

Kirish. O'smirlik davri (12–18 yosh) shaxs rivojlanishining murakkab psixologik bosqichi bo'lib, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, o'zini anglash va kommunikativ kompetensiyalar shakllanishi jadallashadi. Ushbu davrda empatiya qobiliyati — ya'ni boshqalar his-tuyg'ularini tushunish, ularga ruhiy javob berish va emotsional rezonansni his qilish— o'smirning ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy psixologik omillardan biri hisoblanadi [1]. Empatiyaning rivojlanishi o'smirning ijtimoiy xulqi, agressivlik darajasi, do'stlik aloqalarining mustahkamligi hamda konfliktlarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi [2]. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, empatiya yuqori bo'lgan o'smirlar o'z-o'zini baholashda barqaror, stressga chidamli hamda psixologik moslashuv darajasi yuqoriroq bo'ladi [3].

Empatiya kognitiv va affektiv komponentlardan tashkil topadi.

Kognitiv empatiya — boshqalarning fikr va holatini aqliy tushunish;

Affektiv empatiya esa— boshqalarning hissiy kechinmalarini ichki his qilish jarayonidir. O'smirlik davrida kognitiv empatiya miyaning prefrontal korteksi rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, affektiv empatiya esa emotsional tajriba va ijtimoiy o'rganish orqali shakllanadi [4].

Empatiyani rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biri— ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL) dasturlari, rolli o'yinlar, "men-sen" texnikalari, emotsional refleksiya, muloqot mashqlari va guruhiy treninglardir. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, maxsus treninglar o'smirlarning empatik javob berish darajasini 28–35% ga oshiradi [5]. O'zbekistonda o'smirlar uchun maktab psixologlari tomonidan qo'llanilayotgan art-terapiya, biblioterapiya, dramatisatsiya mashqlari va kommunikativ treninglar o'quvchilarning emotsional sezgirligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda [6]. Shuningdek, empatiya kam rivojlangan o'smirlar orasida



tajovuzkor xatti-harakat, bullying, emotsional sovuqlik va ijtimoiy chekinish ko'proq kuzatilishi aniqlangan. Bu esa o'smirlar bilan tizimli psixoprofilaktika ishlarini tashkil qilish zarurligini ko'rsatadi [7]. Empatiya — o'smirning psixologik farovonligi, sog'lom muloqot, ijtimoiy moslashuv va kelajak professional muvaffaqiyatining poydevori bo'lib, uni rivojlantirish psixologik-pedagogik jarayonning eng muhim vazifalaridan biridir. O'smirlar empatiya qobiliyatini rivojlantirish masalasini ilmiy jihatdan organishga qaratilgan. Empatiya boshqalarning hissiyotlarini tushunish, his qilish va ularga mos ravishda javob berish qobiliyati bolib, o'smirlik davrida shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim komponentidir. Shu yoshda empatiya rivojlanishi shaxsiy identifikatsiya, hissiy intellekt va ijtimoiy konikmalar bilan chambarchas bogliq.

O'smirlik davri — shaxsning ijtimoiy va emotsional jihatdan eng faol shakllanadigan bosqichi bo'lib, empatiya qobiliyatining rivoji aynan shu davrda eng sezilarli tarzda namoyon bo'ladi. O'smirlarda empatiya faqat boshqaning his-tuyg'usini tushunish emas, balki ijtimoiy moslashuv, axloqiy qarorlar qabul qilish, ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal etish kabi jarayonlarning asosiy omillaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning empatik reaksiyalari yoshga qarab murakkablashadi, lekin bu jarayon tasodifiy kechmaydi. U oila tarbiyasi, maktab muhiti, sinfdoshlar bilan munosabatlar, raqamli muhitdagi kommunikatsiya, pedagogning psixologik savodxonligi va psixologik xizmatning sifatiga bevosita bog'liq. Empatiyaning sust rivojlanishi o'smir shaxsida quyidagi muammolarning kuchayishiga olib kelishi mumkin:

- agressiv xulq;
- ijtimoiy chekinish;
- boshqalarni tushunishga qiyinchilik;
- o'z-o'zini boshqarishdagi past ko'nikmalar;
- muloqot madaniyatining shakllanmasligi.

Shu sababdan empatiyani rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish zarur. Jumladan:

1. Pedagogik intervensiyalar: roliklar orqali o'qitish, rolli o'yinlar, "refleksiya daqiqalari", guruhiy muhokamalar.
2. Psixologik metodikalar: emotsiyalarni differensial tahlil qilish testlari, empatiyani baholash anketalari, art-terapiya, biblioterapiya.
3. Oila bilan ishlash: ota-onalarga emotsional tarbiya bo'yicha tavsiyalar berish, muloqotni yaxshilash bo'yicha treninglar.
4. Raqamli madaniyatni oshirish: o'smirlarning onlayn muloqotda ham empatik me'yorlarga amal qilishini o'rgatish.
5. Ijtimoiy loyihalar: volunteerlik, jamoaviy tadbirlar, boshqaga yordam ko'rsatish faoliyatlari o'smirda ijtimoiy mas'uliyat va hamdardlikni kuchaytiradi.



Xulosa. Empatiya qobiliyatini rivojlantirish o'smirlarning psixologik barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ madaniyati uchun muhim omildir. Shu bois ta'lim muassasalarida o'quvchilarning hissiy ongini rivojlantirish, empatik yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish zarur. Har bir pedagog va psixolog o'smir shaxsining hissiy dunyosiga hurmat bilan yondashgan taqdirda, empatiya insonparvarlik va ma'naviy yetuklikning asosi sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoffman M.L. "Empathy and Moral Development". Cambridge University Press, 2000.
2. Davis M. "Empathic Concern and Prosocial Behavior". "Psychological Review", 2018.
3. Eisenberg N. Spinrad T. "Emotion-related Regulation in Adolescence". Child Development, 2020.
4. Decety J. "The Neural Basis of Empathy". Annual Review of Psychology, 2011.
5. CASEL. "Social Emotional Learning Research Report", 2022.
6. Karimova V.M. "O'zbekistonda bolalar psixologiyasi". Toshkent, 2019.
7. Olweus D. "Bullying Prevention and Empathy Training". Journal of Youth Studies, 2017



**MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA EMOTSIYANI BOSHQARISH
KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

Shukurova Muqaddas Nuritdin qizi

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 9-maktab psixologi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-bosqich magistranti
muqaddasshukurova38@gmail.com

Annotatsiya. Maktab yoshidagi bolalarda emotsiyalarni boshqarish ko'nikmalarining shakllanishi, ularning psixologik mexanizmlari va rivojlantirish metodlarini ilmiy asosda tahlil qiladi. Emotsional intellektning shakllanishi, kognitiv nazorat, irodaviy boshqaruv va art-terapiya, nafas texnikalari hamda o'yin metodlarining ta'siri ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: emotsiya, emotsional intellekt, emotsiyani boshqarish, maktab yoshi, psixologik rivojlanish, bolalar psixologiyasi.

Maktab yoshidagi bolalarda emotsiyalarni boshqarish shaxsning ijtimoiy moslashuvi va ta'lim motivatsiyasining muhim omili hisoblanadi. D. Goulman ta'kidlashicha, emotsional intellekt inson muvaffaqiyatining 70 foizgacha bo'lgan qismiga ta'sir etadi [1].

1. Maktab yoshidagi bolalarning emotsional rivojlanish xususiyatlari
Maktabga kirish davridan boshlab bola emotsiyalarini farqlash, nomlash va nazorat qilish jarayoni shakllana boshlaydi. V. Karimova fikricha, 7–11 yosh oralig'ida bola emotsional barqarorlikka o'tish bosqichini boshdan kechiradi va aynan shu davrda emotsional boshqaruvni o'rgatish psixologik-pedagogik jihatdan eng samaralidir [2]. Shu yoshdagi bolalarda ko'proq quyidagi holatlar kuzatiladi:

- Impulsiv reaksiya;
- Keskin emotsional o'zgaruvchanlik;
- Stressga chidamlilikning sustligi;
- Affektiv tezkorlik [3].

2. Emotsiyani boshqarishning psixologik mexanizmlari
Emotsiyalarni boshqarish bir nechta psixologik jarayonlardan iborat [4]:

Emotsional ong – bola o'z his-tuyg'ularini anglay olishi.

Kognitiv nazorat – vaziyatni tahlil qilib, emotsional reaksiyani ongli boshqarish.

Irodaviy boshqaruv – impulslarni to'xtatish va muloqot jarayonida mos xulqni tanlash.

Ijtimoiy-emotsional kompetensiya – boshqalar emotsiyasini anglab, mos reaksiya berish.

P. Salovey va Mayer tomonidan ishlab chiqilgan modelga ko'ra, emotsional intellekt emotsiyalarni idrok qilish, tushunish va nazorat qilishdan iborat integrativ tizimdir [5].



3. Emotsiyalarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari

1) Emotsional savodxonlik mashqlari. Denham tadqiqotlariga ko'ra, bolalarda emotsiyalarni nomlash va aniqlash ko'nikmasi rivojlansa, emotsional nazorat ham yuqori bo'ladi [6]. Mashqlar: "Emotsiya kartochkalari", "Men hozir nimani his qilyapman?", "Emotsiya termometri".

2) Nafas olish va relaksatsiya texnikalari 4–6 nafas olish texnikasi yoki diafragmal nafas tinchlantirish, stressni kamaytirish va impulsiv reaksiyalarni sekinlashtirishga yordam beradi (LeDoux) [7].

3) Art-terapiya: Ranglar, chizish, loy bilan ishlash bolalarning ichki emotsional kuchlanishini pasaytiradi. Art-terapiya ayniqsa maktab yoshida samarali ekanini Kopytina tadqiqotlarida isbotlangan [8].

4) Rol o'yinlari: Ijtimoiy vaziyatlarni sahnalashtirish orqali bola o'z his-tuyg'usini madaniy tarzda ifoda etishni o'rganadi. Bu metod Goulman tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan [1].

5) Kognitiv-behavioural yondashuv: Bu yondashuv salbiy fikr – salbiy emotsiya – nomaqbul xulq zanjirini buzish orqali emotsiyani boshqarishga xizmat qiladi (Beck) [9].

4. Emotsiyalarni boshqarishning ijtimoiy ahamiyati: Tadqiqotlarga ko'ra, emotsiyalarini boshqara olgan bolalar: darslarda faolroq bo'ladi, stressli vaziyatlarda barqarorroq, konfliktlarda kamroq ishtirok etadi, sinfda yetakchilik ko'nikmalari yuqoriroq bo'ladi [10].

Xulosa. Maktab yoshidagi bolalarda emotsiyalarni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish—psixologik rivojlanishning asosiy tarkibiy qismidir. Emotsional savodxonlik, art-terapiya, nafas texnikalari, o'yin metodlari va kognitiv yondashuvlar orqali bola o'z emotsiyalarini ongli nazorat qilishni o'rganadi. Bu esa barkamol shaxs sifatida shakllanishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.[1] Goulman D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books, 1995.
- 2.[2] Karimova V. Bola psixologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2010.
- 3.[3] LeDoux J. The Emotional Brain. Simon & Schuster, 1996.
- 4.[4] Gross J. Handbook of Emotion Regulation. Guilford Press, 2014.
- 5.[5] Mayer J., Salovey P. What is Emotional Intelligence? 1997.
- 6.[6] Denham S. Emotional Competence in Children. Guilford Press, 2006.
- 7.[7] LeDoux J. Synaptic Self. Viking, 2002.
- 8.[8] Kopytina L. Art-terapiya asoslari. Moskva, 2016.
- 9.[9] Beck A. Cognitive Therapy and Emotional Disorders. New York, 1976.
- 10.[10] Goulman D. Social Intelligence. New York: Bantam Books, 2004.



EUPHEMISMS IN HEALTHCARE

Qobilova Madinabonu Ravshanbek qizi.

Fergana state university

E- mail: qobilovamadinabonu17@gmail.com

Ilmiy rahbar: **Dushatova Shohsanam**

Abstract. This article examines the use of euphemisms in healthcare as a linguistic, psychological, and ethical phenomenon that shapes communication between medical professionals, patients, and the public. Euphemisms in medical contexts serve multiple functions: they soften emotionally charged information, reduce anxiety, preserve patient dignity, and help providers navigate sensitive topics such as terminal illness, bodily functions, disabilities, and end-of-life decisions. Through descriptive and comparative analysis, the study explores how euphemistic expressions evolve in response to cultural norms, institutional expectations, and the growing need for patient-centered communication. The findings indicate that euphemisms in healthcare are not merely polite alternatives but strategic communicative tools that influence trust, decision-making, and emotional resilience. Yet, their excessive use may obscure meaning, impede informed consent, or create misunderstandings. The article emphasizes the importance of balanced, transparent, and culturally aware communication strategies in medical settings.

Keywords: healthcare communication, euphemisms, medical discourse, patient-centered care, language and psychology, doctor-patient interaction.

Аннотация. В статье рассматривается использование эвфемизмов в сфере здравоохранения как лингвистическое, психологическое и этическое явление, формирующее коммуникацию между медицинскими работниками, пациентами и обществом в целом. Эвфемизмы в медицинском контексте выполняют ряд функций: смягчают эмоционально нагруженную информацию, снижают уровень тревожности, сохраняют достоинство пациента и помогают специалистам обсуждать чувствительные темы, такие как терминальные заболевания, телесные функции, инвалидность и решения, связанные с окончанием жизни. На основе описательного и сравнительного анализа в исследовании показано, как эвфемистические выражения эволюционируют под влиянием культурных норм, институциональных ожиданий и возрастающей потребности в пациент-ориентированной коммуникации. Результаты свидетельствуют о том, что эвфемизмы в здравоохранении являются не просто вежливыми заменами, а стратегическими коммуникативными инструментами, влияющими на доверие, принятие решений и эмоциональную



устойчивость. Вместе с тем их чрезмерное использование может затруднять понимание, препятствовать получению информированного согласия или вызывать недоразумения. В статье подчеркивается важность сбалансированных, прозрачных и культурно чувствительных стратегий общения в медицинской практике.

Ключевые слова: коммуникация в здравоохранении, эвфемизмы, медицинский дискурс, пациент-ориентированная помощь, язык и психология, взаимодействие врача и пациента.

Euphemisms have long been part of human communication, serving as linguistic mechanisms that help people speak about uncomfortable or socially delicate matters in a gentle way. In healthcare, however, their significance deepens considerably. Medical communication involves emotionally intense realities—illness, pain, disability, risk, terminal conditions, and death—making the healthcare environment one of the richest domains for euphemistic language. Doctors frequently face the challenge of balancing truthfulness with compassion, clarity with emotional sensitivity, and medical precision with human vulnerability. Euphemisms thus emerge not merely as tools of politeness but as psychological instruments that can alleviate fear, minimize shock, and encourage patients to maintain hope.

At the same time, euphemisms can create ambiguity. They may obscure critical information, complicate consent procedures, or inadvertently mislead patients who interpret softened expressions in ways that differ from the intended meaning. In multicultural healthcare settings, these risks increase due to different cultural expectations regarding directness and emotional expression. Therefore, understanding euphemisms in healthcare is essential not only for linguists but for anyone engaged in medical practice, health education, or translation. The aim of this study is to examine the functions of euphemisms, their benefits and drawbacks, and their evolving role in modern patient-centered care.

The research employs descriptive linguistic analysis, discourse examination, and cross-cultural comparison. A wide range of authentic data was analyzed: doctor-patient dialogues, hospital brochures, palliative care guidelines, mental health consultations, and public health campaigns. Euphemistic expressions were identified and classified according to their function: emotional softening, taboo avoidance, dignity preservation, or professional distancing. In addition, examples from English, Russian, and Uzbek medical contexts were compared to identify universal patterns and culture-specific differences.

Psycholinguistic insights were incorporated to understand how euphemisms influence perception, emotional processing, and patient compliance. Ethical



frameworks, including guidelines on informed consent and communication transparency, were reviewed to assess the potential harm or benefit of euphemistic usage. The methodology also includes narrative analysis, exploring how euphemisms shape patient stories, medical interpretations, and collective representations of illness.

The analysis reveals that euphemisms in healthcare operate along several dimensions simultaneously. One prominent function is emotional protection. Terms such as “pass away” instead of “die,” “procedure” instead of “surgery,” or “abnormal cells” instead of “cancer” help reduce the emotional load on patients who fear worst-case scenarios. Medical staff often use phrases like “We found something concerning” as a preparatory step that softens the transition toward a serious diagnosis.

Another function is the preservation of dignity. Discussions about bodily functions often employ euphemisms to minimize embarrassment: “use the restroom” instead of referring directly to elimination, “incontinence issues” instead of “loss of bladder control,” or “sensitive area” instead of directly naming genital regions. These expressions help maintain respect and protect the patient’s psychological comfort during examinations and conversations.

Euphemisms also serve institutional needs. Healthcare providers may use them to comply with professional guidelines encouraging compassionate communication, especially in oncology, geriatrics, reproductive health, and palliative care. In mental health contexts, euphemisms reduce stigma, as in expressions like “behavioral challenges” instead of “mental disorder” or “special needs” instead of “disability.” Such language helps integrate patients into social environments where direct terms might cause discrimination.

However, excessive euphemization can lead to problematic outcomes. When expressions become too vague—such as “shadow on the scan,” “growth,” or “something we need to keep an eye on”—patients may underestimate the seriousness of their condition, delaying important decisions. Euphemisms may also interfere with informed consent when patients are unable to interpret softened terminology correctly. Furthermore, cross-cultural misinterpretation often arises: cultures that value direct communication may view euphemisms as evasive or dishonest, while cultures that value face-saving may rely on euphemisms heavily.

The study shows that the optimal approach is a balanced one. Euphemisms work best when their purpose is clear—protecting emotions without obscuring meaning. Effective healthcare communication requires a combination of clarity, compassion, and cultural sensitivity. Training programs for medical personnel increasingly emphasize the need to adjust euphemistic language to patients’ backgrounds, literacy levels, and emotional



states. As healthcare becomes more global and patient-centered, euphemisms continue to evolve, reflecting shifting attitudes toward illness, aging, disability, and death.

In conclusion, euphemisms in healthcare are far more than polite alternatives to harsher words. They represent a complex interaction between language, psychology, ethics, and human vulnerability. The study demonstrates that euphemisms can provide emotional comfort, preserve dignity, and facilitate compassionate communication. Yet their overuse may obscure essential information and undermine patient autonomy. Therefore, the role of euphemisms should not be to hide the truth, but to help patients face it in the most humane and respectful way possible. Achieving this balance requires cultural awareness, emotional intelligence, and professional integrity. As healthcare communication continues to evolve, the thoughtful and ethical use of euphemisms remains a cornerstone of patient-centered care.

REFERENCES

1. Allan, K., & Burrige, K. (2006). *Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon*. Oxford University Press.
2. Silverman, J., Kurtz, S., & Draper, J. (2013). *Skills for Communicating with Patients*. CRC Press.
3. North, N. (2020). Euphemisms in Health Communication: Softening the Hard Truths. *Journal of Medical Language Studies*, 12(3), 145–162.
4. Rutenberg, C., & Tribble, D. (2018). *Communicating in Nursing Practice*. Pearson Education.
5. Brown, P., & Levinson, S. (1987). *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge University Press.
6. Clayton, J. (2019). Language and Sensitivity in Palliative Care. *Health Humanities Review*, 7(2), 88–104.
7. WHO. (2021). *Guidelines on Patient-Centered Communication*. World Health Organization.

**Gaz turbina qurilmalari turlari va eng ideal termodinamik tsikllari****Nizamova Lola Odiljonovna**

Toshkent davlat texnika universiteti, Termodinamika va Energoaudit kafedrası katta o'qituvchisi

Fayzullayev Sayfulloh Xayrullo o'g'li

Toshkent davlat texnika universiteti, Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada gaz turbina qurilmalari turlari va ularning eng ideal termodinamik tsikllari batafsil ko'rib chiqilgan bo'lib, Brayton tsikli kabi modellarning nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi yoritilgan. Maqola gaz turbina turlarini tasniflab, ularning samaradorligini termodinamik tsikllar orqali tahlil qiladi, shu bilan birga kombinatsiyalangan tsikllarning afzalliklarini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari gaz turbina qurilmalarining energetika, aviatsiya va sanoatda qo'llanilishini ko'rsatadi, bu esa samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Maqola internetdan olingan aniq manbalarga asoslanib, gaz turbina tsikllarining fizikaviy va matematik modellarini boyitgan holda taqdim etadi.

Kalit so'zlar: gaz turbina, Brayton tsikli, regenerativ tsikllar, termodinamika, samaradorlik, kombinatsiyalangan tsikllar.

Аннотация. В данной статье подробно рассмотрены типы газотурбинных установок и их наиболее идеальные термодинамические циклы, с акцентом на модели, такие как цикл Брайтона. Статья классифицирует типы газовых турбин, анализирует их эффективность через термодинамические циклы и подчеркивает преимущества комбинированных циклов. Результаты исследования демонстрируют применение газотурбинных установок в энергетике, авиации и промышленности, способствуя повышению эффективности. Статья основана на точных источниках из интернета, обогащая физические и математические модели газотурбинных циклов.

Ключевые слова: газовая турбина, цикл Брайтона, регенеративные циклы, термодинамика, эффективность, комбинированные циклы.

Annotation. This article provides a detailed examination of gas turbine types and their most ideal thermodynamic cycles, focusing on models such as the Brayton cycle. The article classifies gas turbine types, analyzes their efficiency through thermodynamic cycles, and highlights the advantages of combined cycles. The research findings demonstrate the application of gas turbine installations in energy, aviation, and industry, contributing to improved efficiency. The article is based on accurate internet sources, enriching the physical and mathematical models of gas turbine cycles.



Keywords: gas turbine, Brayton cycle, regenerative cycles, thermodynamics, efficiency, combined cycles.

Gaz turbina qurilmalari zamonaviy energetika, aviatsiya va sanoat sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qurilmalar yuqori samaradorlik, ixcham konstruksiya va tez ishga tushish xususiyatlariga ega bo'lib, issiqlik energiyasini mexanik energiyaga aylantirish imkonini beradi. Gaz turbina qurilmalarining ishlash jarayoni termodinamika qonunlariga asoslangan bo'lib, ideal termodinamik tsikllar real texnik tizimlarning energetik samaradorligini baholashda nazariy asos vazifasini bajaradi. So'nggi yillarda olib borilgan global energetik tahlillarga ko'ra, 2023 yil holatiga gaz turbina qurilmalari umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining taxminan 25–30 foizini tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich gaz turbina texnologiyalarining dolzarbligini hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini asoslaydi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishining maqsadi gaz turbina qurilmalarining asosiy turlarini tizimli ravishda tasniflash hamda ularning eng ideal termodinamik tsikllarini, xususan Brayton tsiklini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot doirasida ideal tsikllar asosida ishlab chiqilgan gaz turbina qurilmalarining real sharoitdagi samaradorlik ko'rsatkichlari baholanadi. Tadqiqot gipotezasiga ko'ra, ideal termodinamik tsikllarga yaqinlashtirilgan texnologik yechimlar qo'llanilganda gaz turbina qurilmalarining foydali ish koeffitsienti 40–60% gacha oshirilishi mumkin. Gaz turbina qurilmalarining ishlash mexanizmi quyidagi asosiy bosqichlardan iborat: ishchi muhit sifatida xizmat qiluvchi havo kompressor yordamida siqiladi, yonish kamerasida yoqilg'i bilan aralashtiriladi va yuqori haroratli gaz hosil qilinadi, so'ngra ushbu gaz turbinada kengayib, mexanik energiya ishlab chiqaradi. Ushbu jarayon Brayton termodinamik tsikliga asoslanib, gaz turbina qurilmalarining asosiy nazariy modeli sifatida qaraladi. Tsikl samaradorligi asosan siqish darajasi va maksimal haroratga bog'liq bo'lib, real qurilmalarda mexanik va issiqlik yo'qotishlari tufayli ideal qiymatlardan chetlanadi. Gaz turbina qurilmalari aviatsiyada (turbojet va turbofan dvigatellari) yuqori tezlik va yoqilg'i samaradorligini ta'minlash, energetika sohasida esa kombinatsiyalangan tsikli elektr stansiyalarida yuqori quvvat ishlab chiqarish maqsadida keng qo'llaniladi. Ushbu ilmiy maqolada mazkur qurilmalar va termodinamik tsikllarning texnik hamda energetik afzalliklari kompleks tahlil qilinadi.

Gaz Turbina Qurilmalarining Turlari. Gaz turbina qurilmalari turlari quyidagicha tasniflanadi: oddiy tsikli, regenerativ tsikli va kombinatsiyalangan tsikli. Oddiy tsikli gaz turbina qurilmalarida havo kompressorda siqiladi, yonish kamerasida yoqilg'i bilan aralashib kengayadi


va turbinada mexanik energiya hosil qiladi. Bu turdagi qurilmalar elektr energiyasi ishlab chiqarishda qo'llaniladi va samaradorligi 35-40% ni tashkil etadi. Regenerativ tsikli gaz turbinalarda chiqindi gazlarning issiqligi havo oldindan isitish uchun ishlatiladi, bu samaradorlikni 5-10% ga oshiradi va sanoat turbinalarida keng qo'llaniladi. Kombinatsiyalangan tsikli gaz turbina qurilmalarida gaz turbina va bug' turbinasi birlashadi, bu samaradorlikni 50-60% ga yetkazadi va elektr stansiyalarida ishlatiladi. Aviatsiya gaz turbina qurilmalari quyidagicha: turbojet (yuqori tezlik uchun, samaradorligi 25-35%), turbofan (yoqilg'i tejash uchun, samaradorligi 40-50%), turboprop (turbina propeller bilan birlashgan) va turboshaft (vertolyotlar uchun). Masalan, GE9X turbofani samaradorligi 50% dan yuqori bo'lib, Boeing 777X samolyotida qo'llaniladi va yoqilg'i sarfini 10% ga kamaytiradi. Mikroturbinalar esa avtonom energiya ta'minotida qo'llaniladi va samaradorligi 25-30% ni tashkil etadi. Gaz turbina qurilmalari turlarining o'ziga xosligi ularning tsikliga bog'liq bo'lib, ideal modellari real qurilmalarning samaradorligini baholashga yordam beradi. Masalan, oddiy tsikli turbinalar yuqori quvvatli elektr stansiyalarida, regenerativlari esa sanoatda issiqlik va energiya birgalikda ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi.



Ideal Brayton Cycle T-s diagram

Glenn
Research
Center

T = Temperature
p = pressure
s = entropy



1-rasm. Ideal Brayton tsikli T-s diagrammasi.

Eng ideal termodinamik tsikllar. Gaz turbina qurilmalari uchun eng ideal termodinamik tsikl sifatida Brayton tsikli qabul qilinadi. Ushbu tsikl to'rtta asosiy jarayondan iborat bo'lib, ular izentropik siqish (1-2), izobarik issiqlik qo'shish (2-3), izentropik kengayish (3-4) hamda izobarik issiqlik chiqarish

(4-1) bosqichlarini o'z ichiga oladi. Brayton tsikli gaz turbina qurilmalarining nazariy modeli hisoblanib, real qurilmalarning energetik samaradorligini baholashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Brayton tsiklining ideal termodinamik samaradorligi siqish darajasi va ishchi gazning adiabata ko'rsatkichiga bog'liq bo'lib, ushbu bog'liqlik 2-rasmda keltirilgan matematik ifoda orqali aniqlanadi.

$$\eta = 1 - \left(\frac{1}{r_p} \right)^{\frac{\gamma-1}{\gamma}}$$

2-rasm. Brayton tsiklining ideal termodinamik samaradorligi formulasi.

Bu yerda

η — tsiklning samaradorligi.

r_p — kompressorning siqish darajasi.


γ — ishchi gazning adiabata ko'rsatkichi bo'lib, havo uchun $\gamma = 1.4$ ga teng.

Ideal sharoitlarda Brayton tsiklining foydali ish koeffitsienti 40–60% oralig'ida bo'lishi mumkin. Biroq real gaz turbina qurilmalarida mexanik yo'qotishlar, friksiya kuchlari va issiqlik almashinuvidagi nomukammalliklar mavjudligi sababli ushbu ko'rsatkich odatda 35–45% darajasida bo'ladi.



Ideal Brayton Cycle p-V diagram

Glenn
Research
Center



3-rasm. Ideal Brayton tsikli p-V diagrammasi , abiabarik jarayon.

Bug' turbinalari uchun ideal hisoblangan Rankine tsikli gaz turbina qurilmalari bilan birgalikda qo'llanilganda umumiy energetik samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Otto va Diesel tsikllari asosan ichki yonish dvigatellariga xos bo'lsa-da, gaz turbina texnologiyalarida yuqori quvvat va uzluksiz ishlash imkoniyati tufayli Brayton tsikli ustunlik qiladi. Regenerativ Brayton tsikllarida chiqindi gazlarning issiqligidan qayta foydalanish hisobiga samaradorlik qo'shimcha 5-10% ga oshiriladi. Brayton va Rankine tsikllarining birgalikda qo'llanilishi natijasida hosil bo'ladigan kombinatsiyalangan tsikli tizimlarda umumiy samaradorlik 60% gacha yetkaziladi. Bunday texnologiyalar Combined Cycle Power Plants (CCPP) elektr stansiyalarida keng joriy etilgan. Masalan, GE kompaniyasining H-series gaz turbinalari kombinatsiyalangan tsiklda 60% samaradorlikka erishib, taxminan 480 MW quvvat ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Gaz turbina tsikllarining asosiy afzalligi yuqori ishchi harorat va katta siqish darajalarida ishlash qobiliyati bo'lib, bu energiya ishlab chiqarish jarayonining intensivligini oshiradi.

1-jadvalda gaz turbina turlari va tsikllar taqqosi.

Tur	Tsikl	Samaradorlik (%)	Qo'llanilish	Afzalliklar	Kamchiliklari
Oddiy tsikli	Brayton	35-45	Elektr energiyasi	Oddiy dizayn, tez ishga tushish	Past samaradorlik, yuqori yoqilg'i sarfi
Regenerativ	Regenerativ Brayton	40-50	Sanoat turbinalari	Issiqlik qayta ishlatish, energiya tejash	Qurilma murakkabligi, yuqori xarajat
Kombinatsiyalangan	Brayton + Rankine	50-60	Elektr stansiyalari	Yuqori samaradorlik, ekologik toza	Katta o'lcham, montaj murakkab
Turbojet	Brayton	25-35	Aviatsiya (tezlik uchun)	Yuqori tezlik, oddiy tuzilish	Yuqori yoqilg'i sarfi, shovqin
Turbofan	Brayton	40-50	Samolyotlar (yoqilg'i tejash uchun)	Kam yoqilg'i sarfi, yuqori quvvat	Og'irlik oshishi, murakkab dizayn

Ushbu jadval gaz turbina qurilmalarining taqqosini ko'rsatadi va samaradorlikni baholashga yordam beradi.



Tahlil va muhokama. Gaz turbina qurilmalarining samaradorligi ularning ishlash prinsipi va termodinamik tsiklga bog'liq ekanligi aniqlandi. Oddiy tsikli qurilmalarda samaradorlik chegarasi 35–40% bo'lsa, regenerativ va kombinatsiyalangan tsikllar ushbu ko'rsatkichni sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, Brayton tsikliga asoslangan turbinalar yuqori tezlik va intensiv ish sharoitida samarali ishlash xususiyatiga ega. Aviatsiya sohasida turbinaning turiga qarab samaradorlik 25–50% oralig'ida bo'lishi mumkinligi, energetika tizimlarida esa kombinatsiyalangan tsikllar yordamida 60% gacha samaradorlikka erishilishi tahlil qilindi. Bu natijalar real qurilmalar va nazariy modellarning mosligini ko'rsatadi hamda regenerativ va kombinatsiyalangan tsikllarning afzalliklarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Shuningdek, tahlil davomida Brayton va Rankine tsikllarining birgalikda ishlashi energetik samaradorlikni oshirishi va elektr stansiyalari samaradorligini optimallashtirishi aniqlandi. Gaz turbinalarining yuqori harorat va siqish darajasida ishlash imkoniyati energiya ishlab chiqarish jarayonining intensivligini oshiradi va zamonaviy energetik talablarni qondirishga xizmat qiladi. Bu bo'limning asosiy xulosasi shuki, gaz turbina qurilmalarini tanlash va ularning tsiklini loyihalashda samaradorlikni oshirish uchun kombinatsiyalangan va regenerativ variantlar ustunlik qiladi. Shu asosda, quyidagi xulosa bo'limi ilmiy tadqiqot natijalarini umumlashtiradi va kelajakda qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Xulosa. Gaz turbina qurilmalari zamonaviy energetika va aviatsiya sohalarida asosiy texnologik yechimlardan biri hisoblanadi. Ularning ishlash samaradorligi nafaqat energetik quvvatni oshirish, balki tizimning ixchamligi va ishga tushirish tezligini ta'minlash orqali amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Brayton tsikli gaz turbinalari uchun eng ideal termodinamik model sifatida qaraladi, u asosida qurilgan regenerativ va kombinatsiyalangan tsikllar esa samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Kombinatsiyalangan tsikllar va regenerativ yechimlar energiya ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishga xizmat qilib, real sharoitlarda 50–60% samaradorlikka erishish imkonini beradi. Shu bilan birga, ekologik jihatdan toza yoqilg'ilar bilan integratsiya qilinsa, ushbu ko'rsatkichni 65% gacha oshirish mumkin. Bu esa kelajakda energiya tizimlarining barqarorligini ta'minlash va resurslardan samarali foydalanish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda, gaz turbina qurilmalarining turlari va ideal termodinamik tsikllari energetika va aviatsiya tizimlarida samaradorlikni oshirish, yoqilg'i sarfini kamaytirish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashda strategik rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari gaz turbinalarini loyihalash va tsiklni optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish imkonini yaratadi,



bu esa zamonaviy energetika tizimlarining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Turbine Engine Thermodynamic Cycle - Brayton Cycle. NASA Glenn Research Center, 2023.
2. Газ турбина курилмалари цикллари. Arxiv.uz, 2023.
3. Газовая турбина. Wikipedia (Russian), 2023.
4. Thermodynamic cycle. Wikipedia (English), 2023.
5. Brayton Cycle - an overview. ScienceDirect, 2023.
6. Ideal BRAYTON CYCLE Explained. YouTube, 2023.
7. Notes on Thermodynamics, Fluid Mechanics, and Gas Dynamics. Purdue University, 2021.
8. Brayton Cycle. Chemistry LibreTexts, 2023.
9. Gas turbine-steam combined cycle power plant: Brayton and Rankine bottoming cycle. LinkedIn, 2021.
10. Brayton Cycle - Gas Turbine Engine. Nuclear Power, 2023.
11. Types of Gas Turbine Cycles. SUSTech Repository, 2023.
12. Development and application of a thermodynamic-cycle ... ScienceDirect, 2016.
13. Thermodynamic Model of a Gas Turbine Considering Atmospheric ... MDPI, 2024.
14. A Comprehensive Thermodynamic Analysis of Gas Turbine ... ASME Digital Collection, 2024.
15. Practical Techniques for Modeling Gas Turbine Engine Performance. NASA, 2016.
16. Thermodynamic Cycle Analysis for Overall Efficiency Improvement ... ResearchGate, 2016.
17. The Adaptable Gas Turbine. American Scientist, 2024.
18. Thermodynamic analysis of a gas turbine engine with a rotating ... ScienceDirect, 2017.
19. Maisotsenko Cycle for Heat Recovery in Gas Turbines. NIH PMC, 2024.
20. Thermodynamics (Chapter 5) - Gas Turbines for Electric Power ... Cambridge University Press, 2019.
21. Parametric Study of Various Thermodynamic Cycles ... MDPI Energies, 2020.



**THE PHONETIC ANALYSIS OF RHOTICITY: A COMPARATIVE STUDY
BETWEEN AMERICAN AND BRITISH ENGLISH**

Mukarramxon Abdumo'minova

Andijan state institute of foreign language

Thranslation theory and practice 301

ABSTRACT. This article provides a comprehensive phonetic analysis of the rhotic consonant /r/ across the two primary standards of the English language: General American (GenAm) and British Received Pronunciation (RP). The study focuses on the concept of rhoticity and its influence on vowel length and quality. Furthermore, the paper explores dialectal variations in Scottish and New York accents, complex phonetic phenomena such as "Linking R" and "Intrusive R," and the socio-historical factors that shaped these linguistic divergences.

Keywords: rhoticity, phonetics, American English, British English, Received Pronunciation, Linking R, phonological analysis.

INTRODUCTION. The pronunciation of the letter 'R' is the primary phonological divider between American and British English. This distinction, known as rhoticity, determines whether the post-vocalic /r/ is articulated or omitted. Understanding this difference is crucial for phonetic accuracy and dialect studies.

ARTICULATORY PHONETICS

In American English, "r" is typically realized as a retroflex sound (the tongue tip curls back) or a bunched sound (the tongue body is raised). This gives American English its characteristic "r-coloring." In British RP, /r/ is a soft alveolar approximant, pronounced only when a vowel follows it.

3. COMPARATIVE ANALYSIS OF 'R' POSITIONS

Pre-vocalic (Red, Bring): Pronounced in both American and British English.

Pre-consonantal (Hard, Farm): Pronounced in American English (/hɑ:rd/), but silent in British RP (/hɑ:d/), where it instead lengthens the preceding vowel.

Word-final (Car, Teacher): Pronounced in American English (/kɑ:r/), but becomes a silent or a schwa sound in British RP (/kɑ:/, /'ti:tʃə/).

DIALECTAL VARIATIONS

While General American is rhotic, some coastal accents like Boston and New York have historically been non-rhotic. Conversely, while RP is non-rhotic, Scottish English is famously rhotic, often using a "tapped" or "rolled" R.

LINKING AND INTRUSIVE R Non-rhotic British speakers often use "R" as a bridge between vowels.

Linking R: "Four" is /fɔ:/, but "Four apples" becomes /fɔ:r 'æpəlz/.




Intrusive R: Inserting /r/ where it doesn't exist in spelling, such as "Law and order" sounding like "Law-r-and order."

CONCLUSION. The divergence of /r/ pronunciation is a result of 18th-century prestige shifts in London. While American English remains conservative by preserving the rhoticity of Early Modern English, British English has evolved into a non-rhotic system that prioritizes vowel quality.

REFERENCES

1. Gimson, A. C. (2014). *Gimson's Pronunciation of English*. Routledge.
2. Wells, J. C. (1982). *Accents of English*. Cambridge University Press.
3. Roach, P. (2009). *English Phonetics and Phonology*. Cambridge University Press.





ABDULLA QAHHORNING “MING BIR JON” HIKOYASIDA
SABR-BARDOSH MOTIVI YETAKCHILIGI

Ahmadjonova Sarvinoz Olimjon qizi

Farg’ona davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Oripova Gulnoza,**

Farg’ona davlat universiteti dotsenti, Filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek so‘z ustasi, adib Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasining yetakchi motivi, sabr-bardosh mavzusi, qaysi obrazlar orqali yoritilgani va yozuvchi buni ochib berishda nimalarga e‘tibor bergani haqida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati yuksak darajada ekanligi ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: “motiv” tushunchasi, yetakchi motiv, sabr-qanoat, sodiqlik, ishonch ko‘zlari, iroda, Mastura, Akramjon, peyzaj.

Abstract: This article discusses the leading motif of the story "Ming bir jon" by the Uzbek wordsmith, writer Abdulla Qahhor, the theme of patience and endurance, the images through which it is highlighted, and what the writer paid attention to in revealing it. In addition, it is highlighted that the writer's skill in using words is at a high level.

Keywords: the concept of "motive", leading motif, patience and contentment, loyalty, eyes of trust, will, Mastura, Akramjon, landscape.

Аннотация: В данной статье рассматривается главный мотив рассказа «Минг бир джон» узбекского писателя Абдуллы Каххора, тема терпения и выносливости, образы, посредством которых она подчеркивается, и то, на что автор обратил внимание при ее раскрытии. Кроме того, отмечается высокий уровень мастерства автора в использовании слов.

Ключевые слова: концепция «мотив», главный мотив, терпение и удовлетворенность, верность, глаза доверия, воля, Мастура, Акрамджон, пейзаж.

“Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarflamaslik kerak”.

O‘zbek hikoyachiligi asoschisi Abdulla Qahhorning boshqa yozuvchilardan farqi, bilamizki, o‘rnida so‘z qo‘llay olishi va fikrni o‘quvchiga oson va tushunarli yetkaza olishida. Shu haqida G‘afur G‘ulomning quyidagi jumalari ham fikrimizning isbotidir: “ Abdulla boshqalar bir sahifada aytadigan gapni bitta gapda aytadi-qo‘yadi”. U kichik hikoyalari-yu, katta romanlarida ham o‘zbek tilining imkoniyatlarini yorqin ochib bera olgan. Shu orqali o‘zbek adabiyotiga ulkan hissa qo‘shgan yozuvchidir. Hattoki adib rus adabiyotshunoslarining nazaridan ham chetda qolmagan. Rus adibi Simonov u haqida shunday degan: “ Abdulla Qahhor uyatchan edi, u hech qachon



suhbatdoshiga o'zining zakiyligini ko'rsatishga oshiqmas, buni asosan, adabiyot uchun, oq qog'oz ila yolg'iz qoladigan pallas uchun asrar edi. Qahhor o'z qadrini bilardi, ayni chog'da, uyatchan, vazmin va kamtarligicha qolardi".

Abdulla Qahhorning hikoyalari nazar tashlaydigan bo'lsak, uning har bir hikoyasi bir-biriga o'xshamasligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, "Ming bir jon" hikoyasining asosiy motivi sabr-bardoshli o'zbek ayoli hisoblanadi. Birinchi o'rinda "asar motivi" nima? Motiv- bu syujetning eng oddiy komponenti. B.V.Tomashevskiy quyidagi ta'rifni aytib o'tadi: " Asarning ajralmaydigan qismining mavzusi motiv deyiladi. Aslini olganda, har bir gapning o'ziga xos motivi bor". Veselovskiyning esa " Motiv deganda men ibtidoiy ongning yoki kundalik kuzatishning turli so'roviga majoziy ma'noda javob beradigan eng oddiy hikoya" degan qarashlari ham bor. Qisqa qilib aytganda, asardagi motiv- bu ko'p uchraydigan fikr, holat, voqea yoki asarning umumiy mavzusi bo'lib, u asar mazmunini yanada chuqurlashtiradi.

"Ming bir jon" hikoyasi bosh qahramoni- Mastura, sabrli, irodali ayol ramzi. Asarning bosh g'oyasi shu obraz orqali butun bir jamiyatdagi ayollarning xislatlarini, ularning hayot sinovlarini sabr bilan yengishini ochib berishda foydalaniladi. Uning o'n yildan beri kasal bo'lib yotganligi, lekin shunda ham o'limdan qo'rqmayotgani o'quvchida kuchli taassurot uyg'otadi. "Palataga kirdik. Shu payt oftob yana bulut ostiga kirdi-yu, palatani shom qorong'uligi bosdi". Asardagi bu peyzaj tasviri o'quvchiga hikoya boshidan biroz tushkun kayfiyat beradi. "Hojining etagidan tortay desam, qorin silkinyapti... Ajabo, bu odam nega kulayotibdi, deb aftiga qaragam... rangi bo'z bo'lib ketibdi!", "Voy sho'rim!.. -dedi Mastura, - Jindakkina joningizga-ya! Shu jussangizga uchta dard sig'dimi". Bundan ham ko'rinib turibdiki, erkaklardagi iroda ayollarning irodasi kabi kuchli emasligi ko'zga tashlanadi. Hikoyada Mastura sap-sariq teri-yu suyakdan iborat bo'lgan murdaga o'xshab qolgani tasvirlangan. Ming bir jon egasi Mastura bu har safar endi tugaydi, yo'q bo'ladi degan hayolga borilganda qayta-qayta o'zini qo'lga olib matonat ko'rsatuvchi ayoldir. Masturaning hayotga bo'lgan qiziqishini, sog'ayib ketishiga bo'lgan ishonchini hikoyadan olingan quyidagi so'zlar orqali bo'lib olishimiz mumkin: "...Men hech qachon o'lim kutgan emasman, kutmayman ham! U yog'ini surishtirsangiz, men odam bolasining o'lim kutishiga, ya'ni dunyodan umid uzishiga ishonmayman. Hatto tildan qolgan kasalning rozilik tilashib qaragani ham dunyodan umid uzgani emas, balki "rozilik tilashgani hali erta" dermikin degan umid bilan qaragani deb bilaman". Bu parcha orqali Masturaning kasal bo'lishiga qaramay kuchli ruhiy holati aks etganining guvohi bo'lamiz. Uning bu gaplarida umuman xastalik alomatlari nolish, dard alomatlari sezilmasdi. Aksincha, uning ohangidan quvonch, baxt, "hech qachon o'lim kutganemasman, kutmayman ham" so'zlari orqali esa ishonch



alomatlari borligini sezishimiz mumkin. Masturaning o'ziga bo'lgan ishonchi, hayotga, sog'ayib ketishiga bo'lgan umidi, har qanday sinovlarga bardosh bera oluvchi sabr-qanoati ana shunday kuchli edi. Masturaga berilgan sinov juda og'ir edi. Bu sinovni yengib o'tishga yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, sadoqatli va vafodor turmush o'rtog'i Akramjon yordam berdi. Inson qachonki o'zini yolg'iz his qilgandagina, har qancha sabr-bardoshi kuchli bo'lsa ham barcha sinovlarga yengiladi. Akramjon esa bunday og'ir vaziyatda Masturani yolg'izlatib qo'ymadi. Akramjon va Masturaning oila muqaddas tushuncha ekanligi, uni qadrlashi va ularning bir-biriga bo'lgan sof muhabbati o'quvchiga yuksak ruhiy ta'sir o'tkazadi.

Bu hikoyadan xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, inson o'ziga berilgan har qanday mashaqqat, qiyinchilik yoki dardni faqatgina sabr-u bardoshi orqali yengib o'tadi. Bu dard va qiyinchiliklar inson uchun bir sinovdir. Yozuvchi Abdulla Qahhor bu hikoyasida Mastura orqali inson boshiga tushgan dard oldida ojizlanib qolmasligi kerakligini uqtirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sariyev Sh. Adabiyot; Mukammal qo'llanma (eng yangi nashr). – Toshkent: Regbooks, 2020- 334-bet
2. Said Ahmad. “Yo'qotganlarim va topganlarim”, - Toshkent: Sano-standart.2019
3. Tomashevskiy. “ Adabiyot nazariyasi”
4. Veselovskiy. “ Syujetlar poetikasi”.
5. Abdulla Qahhor. “Dumli odamlar”. Toshkent: O'zbekiston. 132-bet.
6. D.U.Rasulova, X.R.Ergasheva. “Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” va O.Genrining “So'nggi yaproq” hikoyalarining qiyosiy tahlili. Cyberleninka.ru.
7. Abdulla Qahhor. Tanlangan hikoyalar. –Toshkent:O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013 –98-bet



Fanning integratsiyasida ilmiy tadqiqotlarning o'рни
Nurmatova Iroda Akramdjonovna

Farg'ona davlat universiteti

Tarix fakulteti Sotsiologiya kafedrası o'qituvchisi

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Islomova (Abdusamatova) Odinaxon Abdusalom qizi

Farg'ona davlat universiteti

Sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqola fan integratsiyasida ilmiy tadqiqotlarning muhim o'rnini ko'rib chiqadi, uni murakkab global muammolarni hal qilishda zaruriy yondashuv sifatida ta'kidlaydi. Maqolamizda integratsiyaning turli darajalari – intradissiplinar, krossdissiplinar, multidissiplinar, interditsiplinar va transdistsiplinar yondashuvlar o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotlar orqali ushbu integratsiyani amalga oshirish metodologiyalari, jumladan, tizimlar fikrlash, hamkorlikni rivojlantirish va institutsional tuzilmalarni moslashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqola empirik dalillarga asoslanib, ilmiy tadqiqotlarning innovatsiyalar va kompleks natijalarga erishishdagi ta'sirini baholaydi hamda integrativ tadqiqotlarda duch kelinadigan to'siqlarni bartaraf etish va qulay muhit yaratish yo'llarini muhokama qiladi. Qolaversa, fan integratsiyasini rivojlantirishda tadqiqotlarning kelajakdagi yo'nalishlari belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: Fan integratsiyasi, interdistsiplinar, transdistsiplinar, tadqiqot metodologiyasi, bilimlar sintezi, innovatsiya, barqarorlik.

Annotation. This scientific article examines the important role of research in the integration of sciences, emphasizing it as a necessary approach for solving complex global problems. The article analyzes the differences between various levels of integration — intradisciplinary, cross-disciplinary, multidisciplinary, interdisciplinary, and transdisciplinary approaches. It also reviews the methodologies for implementing such integration, including systems thinking, fostering collaboration, and adapting institutional structures. Based on empirical evidence, the article evaluates the impact of scientific research on achieving innovation and complex outcomes, and discusses ways to overcome barriers and create a favorable environment for integrative research. Furthermore, the future directions of research aimed at developing scientific integration are outlined.

Keywords: Science integration, interdisciplinary, transdisciplinary, research methodology, knowledge synthesis, innovation, sustainability.

Annotation. This thesis discusses the process of representing information in computers, its types, and methods of expression. It explains how textual, numerical, graphical, audio, and video information is stored in computer memory and the principles of encoding. The importance of the binary number system in data representation, character encoding systems (ASCII, Unicode), and the digitization of images and sounds are analyzed. As a result, the advantages of using unified digital formats for efficient data storage and processing in computers are substantiated.

Аннотация. В данной тезисной работе рассматривается процесс представления информации в компьютере, её виды и способы отображения. Описываются методы хранения текстовой, числовой, графической, звуковой и видеoinформации в памяти компьютера, а также принципы кодирования. Анализируется значение двоичной системы счисления при представлении данных, системы кодирования символов (ASCII, Unicode), а также процессы оцифровки изображений и звуков. В результате обоснованы преимущества использования единых цифровых форматов для эффективного хранения и обработки информации в компьютере.

Kalit so'zlar: Kompyuter, belgi, kodlash, axborot, harflar, raqamlar, sanoq sistemalari, jadval, rang, modul, miqdor, o'lchash, binary digit, bayt, bit, lokal, global, server, texnik vositalari, axborot texnologiyalari, ASCII, Unicode.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarijamiat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ta'lim tizimida ham axborotlarni kompyuter orqali qayta ishlash, saqlash va uzatish jarayonlari muhim o'rin egallaydi. Kompyuterda axborotlarni tasvirlash, ularning turli ko'rinishlarini(matn,



rasm, tovush, video) kodlash va qayta ishlash tamoyillarini o'rganish zamonaviy o'quv jarayonining ajralmas qismidir. Ushbu ishda axborotlarni kompyuterda tasvirlanish asoslari, ularning turlari va amaliy qo'llanilishi pedagogik nuqtai nazardan yoritiladi.

Axborot-bu inson, jamiyat yoki texnik tizim uchun ma'lum qiymatga ega bo'lgan ma'lumotlardir. Pedagogik jarayonda axborot o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bilim almashinuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Kompyuter yordamida axborotlarni tez va aniq qayta ishlash, tahlil qilish hamda saqlash mumkin. Shuning uchun kompyuter savodxonligi bugungi o'quvchi uchun muhim kompetensiyalar-dan biridir.

Axborotning asosiy turlari:

- Matnli axborotlar
- Grafik(tasviriy) axborotlar
- Raqamli axborotlar
- Tovushli axborotlar
- Video axborotlar

Axborotni kompyuterda tasvirlash tamoyillari. Kompyuter- bu faqat raqamlar bilan ishlovchi qurilma. Shu sababli barcha turdagi axborotlar(matn, rasm, tovush) raqamli ko'rinishga keltiriladi, ya'ni kodlanadi.

Axborotni ikkita belgi yordamida kodlash-belgilar signalning ikkita(magnitlangan yoki magnitlanmagan; tok bor yoki yo'q va h.k) qiymati. Shartli ravishda bu signalning birinchisini 1 raqami bilan, ikkinchisi esa 0 raqami bilan belgilash qabul qilingan bo'lib, bunday kodlash axborotni ikkita belgi yordamida kodlash(qisqacha, ikkilik kodlash) nomini olgan.

Odatda, kompyuterda tekis kodlash usuli qo'llanadi, ya'ni axborotning belgilari 0 va 1 raqamlarining bir xil miqdordagi ketma-ketligi ko'rinishida 8ta belgi mos ifodalaniladi. 0 va 1 dan iborat raqamlar yordamida ularni 8 tadan ajratsak, bu o'rin almashtirishlar soni $2^8=256$ ga teng bo'ladi, ya'ni ular axborotlarni kompyuterda tasvirlanishi yordamida 256 ta harflar, raqamlar, turli boshqa belgilarni kodlash mumkin bo'ladi.

Axborotdagi belgilar ikkilik raqamlari asosida kodlangani sababli kodning bitta razryadi uchun bit atamasi qo'llaniladi.

Ikkilik kodlari asosida jahon andozalaridagi quyidagi kodlash jadvali-ASCII (American Standard Code for Information Interchange) jadvali qabul qilingan, Unicode kodlari orqali ham raqam sifatida tasvirlanadi. Masalan:

- a) A-65(ASCII da)
- b) B-66

Bu kodlar kompyuter xotirasida bitlar ko'rinishida tasvirlanadi.



Agar o'n oltilik sanoq sistemasidagi raqamlarni ustun va satr tartib raqami deb olsak yangi jadval hosil qilamiz. Bunda har bir raqam va alifbodagi belgi jahon andozalaridagi kodlash jadvali- ASCII (American Standard Code for Information Interchange) jadvali hosil bo'ladi.

Axborotda qatnashgan har qanday belgi 1 bayt hajmli deb hisoblanadi. 1 bayt=8 bit

Masalan, 11011011da 1 bayt axborot bor, chunki unda 8 ta raqam(bit) qatnash-moqda, 1011010100100011 da esa 2 bayt axborot bor, chunki 16 ta bit(raqam) qatnashgan.

"Gu" birikmasi 2 bayt hajmli, "Gul" esa 3 bayt hajmli hisoblanadi. Baytdan katta o'lchov birliklari ham mavjud: kilobayt(KB), megabayt(MB), gigabayt(GB), terabayt(TB), petabayt(PB) kabi belgilanadi.

Axborotning vaqt birligi ichida uzatilgan miqdori axborotni uzatish tezligi deb ataladi. Axborot uzatish tezligining birligi sifatida bod qabul qilingan: 1bod=1bit/1sekund.

Kompyuter ekranidagi tasvirlar rastr deb ataluvchi chiziqlar yordamida bo'lingan piksel(ing. Pixel-rasm elementi) deb ataluvchi juda mayda kvadratlardan iborat satrlardan tashkil topadi.

Kompyuterda ixtiyoriy rangni tasvirlash uchun qizil, yashil, ko'k ranglardan foydalanib, rang hosil qilish qurilmasi RGB(red, green, blue) modeli deb nomlanadi.

Masalan, qizil rang-(255, 0, 0)

Tovush-bu tebranishdir. Kompyuter tovushni namunalar olish(sampling) va diskretizatsiya orqali raqamlashtiradi. Har bir tovush amplitudasi ma'lum vaqt oralig'ida o'lchanib, raqam sifatida saqlanadi).

"Texnologiya" so'zi yunoncha "techne" san'at, mohirlik, ustalik va "logos" fan so'zidan olingan bo'lib, u aniq maqsadga erishish uchun zaruriy vositalar, usul va sharoitlardan foydalangan holda muayyan amallarni ketma-ket bajarilishini ko'zda tutadi.

Insoniyat tomonidan axborotlarni izlash, to'plash, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullari va vositalari axborot texnologiyasi deb yuritiladi

Axborot texnologiyasi ichki va tashqi omillardan iborat. Ichki omillarga-usullar, tashqi omillarga-vositalar kiradi.

Signalni analog ko'rinishidan raqamli ko'rinishga, raqamli ko'rinishdan analog ko'rinishga o'tkazuvchi qurilma demodulyator deb ataladi. Bu ikki amalni birgalikda bajaruvchi qurilma model deb ataladi. Uning nomi quyidagicha hosil qilingan:

Tuzilish jihatdan modemlar ichki va tashqi ko'rinishda bo'ladi. Ichki modemlar plata ko'rinishida bo'lib, kompyuterning ichiga joylashtiriladi.



Tashqi modem kompyuterdan tashqarida joylashadigan bo'lib, o'zining qobig'iga ega alohida qurilmadir.

Axborot tizimlari- bu katta hajmdagi axborotlarni qabul qilish, uzatish, saqlash va talab qilingan axborotni tez izlab topish kabi vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan sistemalar. Zamonaviy kompyuterlarni xotiraning qattiq disk(ing. HDD, Hard-qattiq, Disk-disk, Drive-dvigatel) deb ataluvchi turisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu xotirani asosiy xotira qurilmasi yoki "vinchester" deb ham atash mumkin.

Birinchi vinchester 1973-yilda IBM firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Hozirgi kunda qattiq disklarning gigabayt va terabayt o'lchov birlikli sig'imdagi turlari ishlab chiqarilmoqda.

Kompyuterda turli shakldagi axborotlarni kiritish yoki chiqarish uchun xizmat qiluvchi qurilmalar ma'lumotlarni kiritish-chiqarish qurilmalari deb yuritiladi. Eng asosiy ma'lumotlarni kiritish-chiqarish qurilmalari safiga monitor va klaviatura kiradi. Monitor kompyuterning ish jarayonida vujudga keladigan axborotlarning zarur qismlarini ekranda yoritib berishni ta'minlaydi.

Hozirgi kunda grafik adapter VGA, SVGA, XGA turda bo'lgan monitorlar keng tarqalgan. Monitorlar yana elektron nurli trubkali, suyuq kristalli va plazmali turlarga bo'linadi.

Pedagogika jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash o'quvchilar tafakkurini rivojlantiradi, ijodkorlik va mantiqiy fikrlashni shakllantiradi. O'qituvchilar dars jarayonida axborotlarni vizual tarzda tasvirlash orqali:

5. Murakkab mavzularni soda qilib tushintira oladi;
6. O'qovchilarni diqqatini jalb etadi;
7. Axborotning saqlanishi va eslab qolishini osonlashtiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, axborotlarni kompyuterda tasvirlash zamonaviy texnologik tafakkur asosidir. Kompyuter barcha turdagi axborotlarni raqamli ko'rinishga o'tkazib, ularni tezkor qayta ishlash, uzatish va saqlash imkonini beradi.

Pedagogik faoliyatda bu jarayon o'quvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish, ularni mustaqil o'rganishga undash hamda zamonaviy axborot muhitida samarali ishlashga tayyorlashda muhimrol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent:Ma'naviyat, 2008
2. Qodirov A., Abduqodirov A., Informatika va axborot texnologiyalari.- Toshkent:O'zbekiston, 2021.



Issiqlik kofitsenti o'zgaruvchan bo'lgan materiallarda issiqlik tarqalishini modellashtirish

Maxmudova Muqaddasxon Abdurashid qizi

Farg'ona Davlat Texnika Universiteti

Arx va Q fakulteti M7-25MKQ guruh magistranti

Pochta: mahmudovamuqaddas575@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdan uran dioksidi (UO_2) materialida issiqlik tarqalish jarayoni o'zgaruvchan va issiqlik o'tkazuvchanligi haroratga bog'liq bo'lgan holatlar uchun taqqoslab o'rganilgan. COMSOL Multiphysics dasturida olib borilgan modellashtirish natijalariga ko'ra, issiqlik o'tkazuvchanligi o'zgaruvchan materiallarda harorat gradientlari yumshoqroq bo'lib, issiqlik taqsimoti barqaror amalga oshadi. Bu esa energiya samaradorligi yuqori bo'lgan issiqlik almashinuv tizimlarini loyihalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so'zlar: Issiqlik tarqalishi, Uran dioksidi, Issiqlik o'tkazuvchanlik, COMSOL Multiphysics, Harorat taqsimoti.

Kirish. Zamonaviy texnik tizimlarda energiya samaradorligini oshirishda issiqlik o'tkazuvchanlik jarayonlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Harorat o'zgaruvchan bo'lgan materiallar (masalan, metall kompozitlar, qotishmalar va nano-modifikatsiyalangan strukturalar)da issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti haroratga bog'liq bo'lib, bu issiqlik uzatilish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ishda COMSOL Multiphysics dasturida modellashtirish orqali harorat taqsimoti va issiqlik uzatilish xususiyatlari tahlil qilindi.[1]

Tadqiqot maqsadi Issiqlik o'zgaruvchan xossalarga ega materiallarda issiqlik oqimi va harorat taqsimotini aniqlash, hamda issiqlik uzatilish samaradorligini baholash. Tadqiqot usuli. Tahlil COMSOL dasturida yordamida bajarildi. Modellashtirish jarayonida issiqlik o'tkazuvchanlik quyidagi asosiy differensial tenglama bilan ifodalandi:

$$\rho c_p \frac{\partial T}{\partial t} = \nabla \cdot (k(T) \nabla T) + Q \quad (1)$$

bu yerda: ρ — zichlik (kg/m^3), c_p — issiqlik sig'imi ($J/kg \cdot K$), $k(T)$ — haroratga bog'liq issiqlik o'tkazuvchanlik ($W/m \cdot K$), Q — ichki issiqlik manbai (W/m^3), T — harorat (K)

Chegaraviy shartlar sifatida: chegaralarning bir qismi doimiy harorat ostida, boshqasi esa konvektiv issiqlik almashinuv sharti bilan berildi:[3]

$$T_0=323 C^0 : T_h=413 C^0 : T_c=403 C^0 :$$


$$-q = h (T - T_{\infty}) \quad (2)$$

Natijalar COMSOL modellashtirish natijasida haroratning yoy uzunligi bo'yicha taqsimoti aniqlandi. Quyidagi grafikda ko'rish mumkinki, issiqlik o'tkazuvchanlik qiymati o'zgaruvchi materiallar yuqori issiqlik samaradorligini ko'rsatgan. Bu esa issiqlik oqimining yanada barqaror tarqalishini bildiradi.[3]


Grafik tahlili shuni ko'rsatadiki:

- harorat diapazoni 100 min dan 600 min gacha o'zgaradi;
- issiqlik o'tkazuvchanligi o'zgaruvchan materiallarda issiq nuqtalarning ta'siri kamayadi;
- natijada, issiqlik uzatilish samaradorligi taxminan 8–12% ga oshgan.[2]


1-rasmda turli vaqtlarda uran dioksidining issiq o'tkazuvchanligi o'zgaruvchan va o'zgarmas bo'lgan xolat uchun issiqlik tarqalishining turli xil vaqtlardagi ko'rinish ketma ketligi tasvirlangan.




a) 100 min




b) 200 min




c) 300 min



c) 400 min



e) 500 min



f) 600 min

1-rasm. Turli vaqtlarda uran dioksidining issiq o'tkazuvchanligi o'zgaruvchan va o'zgarmas bo'lgan xolat uchun issiqlik tarqalishi [2]



Xulosa. Issiqlik o'tkazuvchanligi haroratga bog'liq bo'lgan materiallar bo'yicha qo'shimcha tajribaviy ma'lumotlar yig'ilishi modellashtirish natijalarining aniqligini oshiradi. Shuningdek, issiqlik tarqalishini faqat 2D emas, balki 3D geometriyada ham tahlil qilish natijalarni real qurilmalar sharoitiga yaqinlashtiradi. Modelga issiqlik nurlanishi, material mikrostrukturasi kabi qo'shimcha omillarni kiritish hisoblashning ilmiy asoslanganligini kuchaytiradi. Olingan natijalar o'zgaruvchan issiqlik o'tkazuvchanlikka ega materiallarning barqaror issiqlik oqimini ta'minlashi sababli energiya tejamkor issiqlik almashinuvi tizimlarini loyihalashda qo'llanishi mumkin. Kelgusida katta harorat o'zgarishlari mavjud bo'lgan real sanoat sharoitlarini modellashtirish esa tizimlarning xavfsizligi va samaradorligini yanada aniq baholash imkonini beradi.[1]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андерсон Д., Таннэхилл Дж., Плетчер Р. Вычислительная гидромеханика и теплообмен. В 2 т. Т. 1 / Пер. с англ. С. В. Сенина, Е. Ю. Шальмана; под ред. Г. Л. Подвидза. – Москва: Мир, 1990. – 384 с.
2. COMSOL Multiphysics® [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.comsol.com> (дата обращения: 19.09.2025).



G'ovakli g'ishtlarning issiqlik o'tkazuvchanlik xossalarini sonli modellashtirish va qurilish me'yorlari nuqtai nazaridan baholash

Maxmudova Muqaddasxon Abdurashid qizi

Farg'ona Davlat Texnika Universiteti

Arx va Q fakulteti M7-25MKQ guruh magistranti

Pochta: mahmudovamuqaddas575@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda uchburchak shaklli g'isht modellarida govakdorlik darajasining issiqlik o'tkazuvchanlik jarayoniga ta'siri COMSOL Multiphysics dasturi yordamida sonli modellashtirish orqali o'rganildi. Tadqiqotda govaksiz g'isht hamda mos ravishda 6, 8 va 10 ta govakli g'isht variantlari ko'rib chiqildi. Har bir holatda issiqlikning g'isht hajmi bo'ylab tarqalishi, qizish tezligi va harorat maydonining taqsimlanishi tahlil qilindi. Olingan natijalar g'ovakdorlikning issiqlik almashinuvi samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Issiqlik o'tkazuvchanlik, g'ovakli g'isht, COMSOL Multiphysics, sonli modellashtirish, harorat maydoni, chegaraviy shartlar.

Kirish. Qurilish materiallarida issiqlik o'tkazuvchanlik jarayoni binolarning energiya samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, g'isht kabi g'ovakli materiallarda issiqlik uzatilishi nafaqat materialning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, balki uning ichki tuzilishi, govaklar soni va joylashuviga ham bog'liq bo'ladi. G'ovaklar issiqlik oqimini yo'naltiradi, lokal harorat gradientlarini shakllantiradi va natijada umumiy issiqlik tarqalish jarayonini murakkablashtiradi.

Zamonaviy hisoblash usullari, xususan, COMSOL Multiphysics dasturidagi issiqlik almashinuvi modullari yordamida bunday murakkab jarayonlarni fizik tenglamalar asosida aniq modellashtirish imkoniyati mavjud. Ushbu ishda issiqlik o'tkazuvchanlik jarayoni energiya balansi tenglamasi orqali tavsiflanib, material ichida issiqlik oqimining fazoviy taqsimlanishi tahlil qilinadi.

Masalaning qo'yilishi. Tadqiqotda uchburchak shaklli g'isht modeli uchun issiqlik o'tkazuvchanlik jarayoni quyidagi umumiy energiya tenglamasi asosida ifodalanadi:

$$d_z \rho C_p \frac{\partial T}{\partial t} + d_z \rho C_p \mathbf{u} \cdot \nabla T + \nabla \cdot \mathbf{q} = d_z Q + q_0$$


bu yerda issiqlik oqimi Furye qonuni bilan aniqlanadi:

$$\mathbf{q} = -d_z k \nabla T$$

Modellashtirish jarayonida quyidagi chegaraviy shartlar qabul qilindi:

- g'ishtning chap sirtida doimiy harorat berildi: $T_1 = 70 \text{ }^\circ\text{C}$;
- tashqi muhit (xona) harorati: $T_0 = 20 \text{ }^\circ\text{C}$.


Masalaning maqsadi — g'ovaksiz g'isht va 6, 8 hamda 10 ta govakli g'isht variantlarida issiqlikning tarqalish tezligi va harorat maydonini solishtirish hamda qaysi govakdorlik holatida g'isht tezroq qizishini aniqlashdan iborat.



1-rasm

Bu yerda 1- rasmda g'isht namunalarini isish temperaturalari 1 daqiqadagi xolati tasvirlangan, 2- rasmda esa g'isht namunalarini 800 daqiqadagi xolati tasvirlangan.

2-rasm



3-rasm.

Bu 3-rasmda temperaturalarni grafik jarayoni aks etgan. Masalada g'ovakdorligi 6 ta bo'lgan g'ishtning issiqlik o'tkazuvchanligi qolgan g'ishtlarga nisbatan yuqori chiqdi. Eng past issiqlik o'tgazuvchanligi g'ovakdorligi 8 ta bo'lgan g'ishtda chiqdi

XULOSA

COMSOL Multiphysics dasturida bajarilgan modellashtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, g'ishtning ichki govakdorlik darajasi issiqlik o'tkazuvchanlik jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. G'ovaklar sonining ortishi issiqlik oqimining notekis taqsimlanishiga olib kelib, ayrim holatlarda g'ishtning umumiy qizish tezligini oshiradi. Olingan natijalar energiya tejankor qurilish materiallarini loyihalashda govakli tuzilmaning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андерсон Д., Таннэхилл Дж., Плетчер Р. Вычислительная гидромеханика и теплообмен. В 2 т. Т. 1 / Пер. с англ. С. В. Сенина, Е. Ю. Шальмана; под ред. Г. Л. Подвидза. – Москва: Мир, 1990. – 384 с.
2. COMSOL Multiphysics® [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.comsol.com> (дата обращения: 19.09.2025).



2D kanalda turli shakl qizigan to'siqlar atrofida oqim va issiqlik almashinuvi

Maxmudova Muqaddasxon Abdurashid qizi

Farg'ona Davlat Texnika Universiteti

Arx va Q fakulteti M7-25MKQ guruh magistranti

Pochta: mahmudovamuqaddas575@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda ikki o'lchamli kanalda joylashgan turli geometrik shaklga ega qizdirilgan to'siqlar atrofida oqim va issiqlik almashinuvi jarayoni sonli modellashtirish asosida o'rganildi. Tadqiqotda bir xil yuzaga ega, biroq balandligi va uzunligi turlicha bo'lgan uchburchak shaklli to'siqlar tanlandi. COMSOL Multiphysics dasturi yordamida oqim tezligi, harorat maydoni hamda issiqlik almashinuvi intensivligi tahlil qilindi. Olingan natijalar geometrik shakl va o'lchamlarning issiqlik almashinuvi samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi

Kalit so'zlar: Issiqlik almashinuvi, 2D kanal, oqim, qizdirilgan to'siq, uchburchak shakl, COMSOL Multiphysics.

KIRISH. Majburiy konveksiya sharoitida oqim va issiqlik almashinuvi jarayonlari muhandislik va qurilish fizikasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular issiqlik almashinish qurilmalari, ventilyatsiya tizimlari hamda energiya samarador konstruksiyalarni loyihalashda keng qo'llaniladi. Oqim ichida joylashgan to'siqlarning geometrik shakli va o'lchamlari oqim strukturasi, chegaraviy qatlam rivojlanishiga hamda issiqlik uzatilish intensivligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy sonli modellashtirish usullari ushbu murakkab jarayonlarni Navye–Stoks va energiya tenglamalari asosida birgalikda tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu ishda ikki o'lchamli kanalda joylashgan uchburchak shaklli qizdirilgan to'siqlar atrofida oqim va issiqlik almashinuvi jarayoni o'rganilib, shakl o'lchamlarining harorat va tezlik maydonlariga ta'siri baholandi.

MASALANING QO'YILISHI.

Tadqiqot obyekti sifatida uzunligi $L = 1 \text{ m}$ bo'lgan ikki o'lchamli kanal tanlandi. Kanal ichida bir xil yuzaga ega, ammo balandligi va asos uzunligi turlicha bo'lgan uchburchak shaklli to'siqlar joylashtirildi. Oqim laminar rejimda bo'lib, Reynolds soni $Re = 100$ ga teng deb qabul qilindi. Oqim va issiqlik almashinuvi jarayoni quyidagi energiya tenglamasi orqali tavsiflandi:

$$d_z \rho C_p \mathbf{u} \cdot \nabla T + \nabla \cdot \mathbf{q} = d_z Q + q_0$$

Issiqlik oqimi esa Furrye qonuni bilan aniqlanadi:


$$\mathbf{q} = -d_z k \nabla T$$

Chegaraviy shartlar quyidagicha belgilandi:


- uchburchak to'siq sirtlari doimiy haroratda qizdirildi:
 $T_1 = 125 \text{ }^\circ\text{C}$;
- kanalga kirish qismida oqim va fon harorati berildi:
 $T_0 = 15 \text{ }^\circ\text{C}$.

Hisoblash jarayonida oqim tezligi, harorat taqsimoti va issiqlik almashinuvi intensivligi grafik va rangli maydonlar yordamida tahlil qilindi.


- 1- Rasmda harorat izolinyasi ko'rsatilgan.
- 2- Rasmda oqim izolinyasi ko'rsatilgan.
- 3- Rasmda issiqlik sig'imi grafigi ko'rsatilgan. 1-shakl uchun.
- 4- Rasmda 2 shakl uchun.
- 5- Rasmda bosim yo'qolishi. 6-rasm chiqishdagi haroratlari.




1-rasm.




2-rasm.




3-rasm.



4-rasm.



5-rasm.



6-rasm.

XULOSA. COMSOL Multiphysics muhitida bajarilgan sonli modellashtirish natijalari shuni ko'rsatdiki, qizdirilgan uchburchak to'siqlarning geometrik o'lchamlari oqim strukturasi va issiqlik almashinuvi jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bir xil yuzaga ega bo'lishiga qaramay, balandligi va asos uzunligi turlicha bo'lgan to'siqlar atrofida harorat va tezlik maydonlari sezilarli darajada farqlanishi aniqlandi. Bu esa oqim va issiqlik almashinuvi jarayonlarini optimallashtirishda geometrik shaklni tanlash muhim ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андерсон Д., Таннэхилл Дж., Плетчер Р. Вычислительная гидромеханика и теплообмен. В 2 т. Т. 1 / Пер. с англ. С. В. Сенина, Е. Ю. Шальмана; под ред. Г. Л. Подвидза. – Москва: Мир, 1990. – 384 с.
2. Microsoft Excel [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.microsoft.com/excel> (дата обращения: 19.09.2025).
3. COMSOL Multiphysics® [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.comsol.com> (дата обращения: 19.09.2025).



**Ikki o'lchovli keskin kengayuvchan kanallarda oqimlarni ajralishi
jarayonini sonli tadqiq etish**

Maxmudova Muqaddasxon Abdurashid qizi

Farg'ona Davlat Texnika Universiteti

Arx va Q fakulteti M7-25MKQ guruh magistranti

Pochta: mahmudovamuqaddas575@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda ikki o'lchamli kanalda keskin kengayish sharoitida yuzaga keladigan oqim ajralishi va qayta birikish jarayoni sonli modellashtirish asosida o'rganildi. Tadqiqot Reynolds sonining 3000–4000 oralig'ida olib borilib, oqimning o'tish va boshlang'ich turbulent rejimidagi xatti-harakati tahlil qilindi. COMSOL Multiphysics dasturi yordamida tezlik maydoni, reirkulyatsiya zonasi hamda qayta birikish uzunligi aniqlandi. Olingan natijalar kanal geometriyasidagi keskin kengayish oqim strukturasi sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Keskin kengayish, diffuzor tipidagi kanal, backward-facing step, oqim ajralishi, qayta birikish zonasi, Reynolds soni, sonli modellashtirish.

Kirish. Kanal ichidagi oqim geometriyasining keskin o'zgarishi gidrodinamika masalalarida murakkab fizik hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Kanal kesimining to'satdan kengayishi diffuzor tipidagi sharoitni hosil qilib, oqimning devordan ajralishiga, reirkulyatsiya zonasining paydo bo'lishiga va ma'lum masofadan so'ng oqimning qayta birikishiga olib keladi. Bunday jarayonlar issiqlik almashinish qurilmalari, ventilyatsiya tizimlari va sanoat kanallarida keng uchraydi.

Keskin kengayuvchan kanallarda oqimlarni ajralishi jarayonini ajralish va qayta birikish hodisalarini o'rganishda klassik masala hisoblanadi. Ushbu model oqim strukturasi Reynolds soniga va geometriyaga bog'liqligini aniqlash imkonini beradi. Zamonaviy hisoblash usullari, xususan, sonli modellashtirish, uzluksizlik va Navye–Stoks tenglamalari asosida ushbu jarayonlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi.


Masalaning qo'yilishi. Tadqiqot obyekti sifatida ikki o'lchamli diffuzor tipidagi kanal tanlandi. Kanalda keskin kengayish hosil qiluvchi backward-facing step joylashtirildi. Oqim stepdan oldin to'liq rivojlangan deb qabul qilinib, stepdan keyin oqim ajralishi va reirkulyatsiya zonasining shakllanishi kuzatildi. Hisoblashlar Reynolds sonining $Re = 3000-4000$ oralig'ida bajarildi. Oqim jarayoni uzluksizlik va Navye–Stoks tenglamalari bilan tavsiflandi:

$$\nabla \cdot \mathbf{u} = 0$$

$$\rho(\mathbf{u} \cdot \nabla)\mathbf{u} = -\nabla p + \mu \nabla^2 \mathbf{u}$$


bu yerda u — tezlik vektori, p — bosim, ρ — zichlik, μ — dinamik qovushqoqlik.

Sonli modellashtirish COMSOL Multiphysics dasturida amalga oshirilib, tezlik maydoni, oqim chiziqlari va qayta birikish nuqtasining joylashuvi aniqlanib, oqim ajralish zonasining Reynolds soniga bog'liqligi tahlil qilindi. Hisoblash modeli oqimi bo'yicha Armaly va boshqalar tomonidan o'rganilgan klassik eksperimental tadqiqotlarga asoslanib qurildi.




1-rasm.

1-rasmda renold soni 3000 qiymatida oqim izolinyasi uzunligi




2-rasm.

2-rasmda renol soni 4000 qiymatda oqim uzunligini Comsol dasturida ishlab chiqilgan



3-rasm.

3-rasmda tezlik izolinyasi grafigi tasvirlangan.



4-rasm.

4-rasmda sonli hisoblash bilan tajriba xisoblashdagi orasidagi nisbiy hatolik ko'rsatilgan.

XULOSA. Sonli modellashtirish natijalari shuni ko'rsatdiki, kanal geometriyasidagi keskin kengayish oqimning devordan ajralishiga va barqaror resirkulyatsiya zonasining hosil bo'lishiga olib keladi. Reynolds sonining 3000–4000 oralig'ida oshishi bilan qayta birikish uzunligi ortib, oqim strukturasi murakkabligi kuchayadi. Olingan natijalar keskin kengayishli kanallarda oqim xatti-harakatini tushunish va muhandislik tizimlarini loyihalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андерсон Д., Таннэхилл Дж., Плетчер Р. Вычислительная гидромеханика и теплообмен. В 2 т. Т. 1 / Пер. с англ. С. В. Сенина, Е. Ю. Шальмана; под ред. Г. Л. Подвидза. – Москва: Мир, 1990. – 384 с.
2. COMSOL Multiphysics® [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.comsol.com> (дата обращения: 19.09.2025).



Keskin kengayishli quvurda turbulent oqimning $k-\omega$ modeli asosida sonli modellashtirilishi

Maxmudova Muqaddasxon Abdurashid qizi

Farg'ona Davlat Texnika Universiteti

Arx va Q fakulteti M7-25MKQ guruh magistranti

Pochta: mahmudovamuqaddas575@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ishda keskin kengayishli quvurda yuzaga keladigan turbulent oqim jarayonlari sonli modellashtirish usuli yordamida tadqiq etilgan. Hisoblashlar COMSOL Multiphysics dasturida $k-\omega$ turbulentlik modeli asosida bajarildi. Tadqiqot ERCOFTAC benchmark masalasiga mos parametrlar asosida olib borilib, keskin kengayish natijasida hosil bo'ladigan oqim ajralishi, qayta birikish zonasi va tezlik maydonining o'zgarishlari tahlil qilindi. Olingan natijalar turbulent oqim strukturasi baholash va muhandislik hisoblarida qo'llash imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: keskin kengayish, turbulent oqim, $k-\omega$ modeli, COMSOL Multiphysics, ERCOFTAC, oqim ajralishi, qayta birikish zonasi.

Kirish. Quvurlar va kanallarda keskin geometrik o'zgarishlar, xususan keskin kengayish holatlari sanoat va qurilish muhandisligida keng uchraydi. Bunday sharoitlarda oqim asosiy devordan ajraladi va kengayishdan keyin murakkab vortekslar tizimi hamda qayta birikish zonasi hosil bo'ladi. Ushbu jarayonlar bosim yo'qotishlari, energiya samaradorligi va qurilmalarning ishonchligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Keskin kengayishli oqimlar bo'yicha klassik eksperimental tadqiqotlar ERCOFTAC benchmark to'plamiga kiritilgan bo'lib, ular turbulent oqim modellarini tekshirish va solishtirish uchun etalon vazifasini bajaradi. Ushbu tajribalarda quvur diametrining keskin o'zgarishi natijasida oqim ajralishi, turbulent pulsatsiyalar va qayta birikish masofasi aniqlangan. Tajriba natijalari keyinchalik ko'plab nazariy va sonli modellarni tekshirishda asos bo'lib xizmat qilgan.

Zamonaviy hisoblash gidrodinamikasi (CFD) usullari yordamida bunday murakkab oqimlarni sonli modellashtirish mumkin. Ayniqsa $k-\omega$ turbulentlik modeli devor yaqinidagi oqimlarni aniqroq ifodalashi bilan ajralib turadi va keskin kengayishli oqimlar uchun samarali hisoblanadi. Shu sababli mazkur ishda ERCOFTAC tajribasiga mos holda keskin kengayishli quvurda turbulent oqim jarayoni $k-\omega$ modeli asosida sonli tadqiq etildi.

Masalaning qo'yilishi. Tadqiqotda keskin kengayishli quvur modeli ko'rib chiqildi. Hisoblashlar uchun quyidagi asosiy parametrlar qabul qilindi:

Kirish quvur diametri: $d=78.3$ mm : Kengayishdan keyingi quvur diametri: $D=152.4$ mm

Kirish qism uzunligi: $L_1=47d$: Chiqish qism uzunligi: $L_2=6d$
 Kinematik qovushqoqlik: $\nu=1 \times 10^{-6} \text{ m}^2/\text{s}$: Reynolds soni: $Re=2 \times 10^5$
 Kirish tezligi Reynolds soni orqali aniqlanadi:

$$U_0 = \frac{\nu \cdot Re}{d}$$

Oqim turbulent rejimda deb qabul qilinib, hisoblashlar $k-\omega$ turbulentlik modeli asosida amalga oshirildi. Hisoblash natijasida tezlik maydoni, oqim ajralishi zonasi va qayta birikish masofasi aniqlanib, ularning keskin kengayish geometriyasiga bog'liqligi tahlil qilindi.

$$\rho(\mathbf{u} \cdot \nabla)\mathbf{u} = \nabla \cdot [-p\mathbf{I} + \mathbf{K}] + \mathbf{F} + \rho\mathbf{g}$$

$$\rho \nabla \cdot \mathbf{u} = 0$$


$$\mathbf{K} = (\mu + \mu_T)(\nabla\mathbf{u} + (\nabla\mathbf{u})^T)$$

$$\rho(\mathbf{u} \cdot \nabla)k = \nabla \cdot [(\mu + \mu_T\sigma_k^*)\nabla k] + P_k - \beta_0^*\rho\omega k$$

$$\rho(\mathbf{u} \cdot \nabla)\omega = \nabla \cdot [(\mu + \mu_T\sigma_\omega)\nabla\omega] + \alpha\frac{\omega}{k}P_k - \rho\beta_0\omega^2$$


$$\mu_T = \rho\frac{k}{\omega}$$

$$P_k = \mu_T[\nabla\mathbf{u} : (\nabla\mathbf{u} + (\nabla\mathbf{u})^T)]$$




1-rasm.

1-rasmda oqim izolinyasini ko'rinishi,




2-rasm.

2-rasmda tezlik izolinyasini 3D ko'rinishi.



3-rasm.

3-rasmda $k-\Omega$ modeli bilan tajriba modelini oksial tezligini solishtirma grafigi



4-rasm.

4-rasmda $k-\Omega$ modeli bilan tajriba modelini radial tezligini solishtirma grafigi

Xulosa. Keskin kengayishli quvurda turbulent oqimni $k-\omega$ modeli yordamida sonli modellashtirish oqim ajralishi va qayta birikish jarayonlarini aniq tasvirlash imkonini berdi. Olingan natijalar ERCOFTAC tajribalariga mos keluvchi sifat ko'rsatkichlarini namoyon etdi. Ushbu yondashuv quvur tizimlari va gidravlik inshootlarni loyihalashda bosim yo'qotishlarini



kamaytirish hamda oqim samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андерсон Д., Таннэхилл Дж., Плетчер Р. Вычислительная гидромеханика и теплообмен. В 2 т. Т. 1 / Пер. с англ. С. В. Сенина, Е. Ю. Шальмана; под ред. Г. Л. Подвидза. – Москва: Мир, 1990. – 384 с.
2. COMSOL Multiphysics® [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.comsol.com> (дата обращения: 19.09.2025).





**Raqamli transformatsiya jarayonlarining korxonalar samaradorligiga
ta'siri**

Xudoyberdiyeva Olima Otabek qizi

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Qarshi Davlat Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalar faoliyatini raqamlashtirish jarayonining samaradorligi ekonometrik usullar yordamida tahlil qilindi. Raqamlashtirish jarayoni korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotda korxonalarining raqamlashtirish darajasi va moliyaviy natijalari o'rtasidagi bog'liqlik regressiya modellari yordamida o'rganildi. Natijalar raqamlashtirishning korxonalar daromadlari, mahsulot sifati va ishlab chiqarish hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonida duch kelinadigan to'siqlar, jumladan, moliyaviy cheklovlar, texnologik infratuzilmaning rivojlanmaganligi va malakali kadrlar yetishmovchiligi tahlil qilindi. Tahlil natijalari asosida korxonalar uchun raqamlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Maqola iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. Raqamli transformatsiya, tadbirkorlik, kichik biznes, raqamli iqtisodiyot, innovatsiyalar, globallashtirish, raqobatbardoshlik, raqamli platformalar

Kirish. So'nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli transformatsiya iqtisodiyotning barcha jabhalariga jadal kirib kelmoqda. Bu jarayon tadbirkorlik faoliyatini olib borishning an'anaviy shakllarini o'zgartirib, yangi raqamli vositalar va texnologiyalarga asoslangan yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari bu o'zgarishlarga tez va moslashuvchan tarzda javob bera olishlari lozim. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikni modernizatsiya qilish yo'llari tahlil qilinadi, mavjud muammolar va istiqbolli yechimlar taklif etiladi.

Raqamli transformatsiya jarayonining korxonalar faoliyatiga ta'siri:

Ish jarayonlarining optimallashtirish va avtomatlashtirilishi: Raqamli texnologiyalar ish jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon beradi, bu esa inson resurslariga bo'lgan talabni kamaytiradi, vaqtni tejaydi va xatolar sonini kamaytiradi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonlarida robototexnika va sun'iy intellekt texnologiyalari qo'llanilishi orqali ish unumdorligi oshadi. [1, B, 15]

Operatsion xarajatlarni kamaytirish: Raqamli transformatsiya ko'plab operatsion xarajatlarni qisqartiradi. Masalan, ma'lumotlar bulut texnologiyalari yordamida saqlanishi va qayta ishlanishi server xarajatlarini



kamaytiradi, virtual ish maydonlari esa ijaraga olingan joy va infratuzilma xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

Yangi bozor va imkoniyatlarning paydo bo'lishi: Raqamli transformatsiya yangi biznes modellar va imkoniyatlarni keltirib chiqaradi.[1,B,40-48] Masalan, raqamli mahsulotlar va xizmatlar yaratish, onlayn savdo platformalari orqali yangi mijozlar bazasiga chiqish yoki xizmatlarni raqamli xizmatlar shaklida taqdim etish orqali yangi bozorlarga kirish mumkin.

Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish: Raqamlashtirish orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish osonlashadi. Sun'iy intellekt va tahliliy vositalar orqali ma'lumotlarni real vaqtda tahlil qilib, samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu jarayon strategik rejalar tuzish va mijoz talablarini oldindan prognoz qilishni osonlashtiradi.

Mijoz tajribasini yaxshilash: Raqamli texnologiyalar mijozlar bilan aloqani osonlashtiradi. CRM tizimlari orqali mijozlar bilan samarali aloqa o'rnatish, ularning ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va personalizatsiyalangan xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bu esa mijoz sadoqatini oshiradi va brendning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.[2,B,140]

Innovatsiyalarni tezlashtirish: Raqamli transformatsiya texnologiyalarning tez rivojlanishini ta'minlaydi va korxonalarni innovatsiyalarni tezroq joriy qilishga majbur qiladi. IoT (Internet of Things), blokcheyn, sun'iy intellekt, bulutli hisoblash kabi yangi texnologiyalarni qo'llash natijasida mahsulotlar va xizmatlarni yangilash jarayonlari tezlashadi.

Raqobatbardoshlikni oshirish: Raqamli transformatsiyaga qadam qo'ygan korxonalar raqobatchilarga nisbatan ustunlikka ega bo'ladilar. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish nafaqat mahsulot sifatini oshiradi, balki jarayonlar samaradorligini kuchaytirib, yangi xizmatlar yoki mahsulotlar yaratish imkonini beradi.

Xodimlar malakasini oshirish: Raqamli transformatsiya xodimlarning yangi texnologiyalar bilan ishlash malakasini oshirishni talab qiladi. Bu jarayon xodimlarni yangi ko'nikmalarni egallashga va ular uchun yangi ish imkoniyatlari yaratishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu ko'nikmalar xodimlarning bozor qiymatini oshiradi.

Xavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish: Raqamli transformatsiya jarayonida kiberxavfsizlik masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Katta hajmdagi ma'lumotlar bulutli saqlash tizimlarida yoki korxonada ichki tizimlarida saqlanganda, ularni himoya qilish zarurati tug'iladi. Shu sababli, korxonalar kiberxavfsizlik strategiyalarini rivojlantirishi va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashi lozim.

Raqamli transformatsiya bugungi ishbilarmonlik muhitida raqobatbardosh bo'lishni xohlaydigan tashkilotlar uchun muhim shartdir. Raqamli



transformatsiyani qo'llaydigan kompaniyalar o'zlarining operatsion samaradorligini oshirishlari, daromadlarni oshirishlari va mijozlar tajribasini yaxshilashlari mumkin. Bundan tashqari, ular ilgari mumkin bo'lmagan yangi biznes modellari va daromad oqimlarini yaratishi mumkin. Raqamli transformatsiyada muvaffaqiyatga erishish uchun kompaniyalar aniq strategiya ishlab chiqishi, innovatsiyalar va tajriba madaniyatini o'rnatishi, yangi texnologiyalar va resurslarga sarmoya kiritishga tayyor bo'lishi kerak.

Texnologiyalar va postindustrial jamiyat ta'siri. Postindustrial jamiyatda ishlab chiqarishdan ko'ra xizmat ko'rsatish, bilimlar, axborot va texnologiyalar asosiy iqtisodiy resursga aylanmoqda. Bu esa kichik biznesni ham sun'iy intellekt, axborot texnologiyalari va bilimlar iqtisodiyoti asosida faoliyat yuritishga majbur qilmoqda. Masalan, texnologiyalar yordamida kichik kompaniyalar avtomatlashtirilgan xizmatlar, mobil ilovalar, e-commerce platformalar, onlayn o'quv kurslar va boshqa innovatsion xizmatlarni yaratish orqali o'z daromadlarini oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.[2,B,105]

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy resurslar asosida tashkil etilib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida shaxsiy tashabbus va tashkiliy qobiliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik kapitalining shakllanishi, uni harakatga keltiruvchi omillar va zamonaviy transformatsiyalarga moslashuvchanligi kichik biznesning raqamli sharoitda rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini alohida ta'kidlab: "Joylardagi ijtimoiy muammolarni hal etishda eng samarali yo'l - bu tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashdir, ayniqsa, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berish zarur", deya ta'kidlagan. Tadbirkorlik faoliyati - shakli, turi va sohasidan qat'iy nazar foyda olish va uni ko'paytirish maqsadida eng zamonaviy fan-texnika yutuqlari, innovatsiya, yangi texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshiriladigan faol iqtisodiy faoliyatdir.[3,B, 100]

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda tadbirkorlik faoliyatini aniqlashda muhim jihatlardan biri bu raqamli texnologiyalarni tadbirkorlik faoliyatiga integratsiya qilish bilan bog'liq. Ta'riflarga ko'ra, bu faoliyat "eng zamonaviy fan-texnika yutuqlari, innovatsiya, yangi texnologiyalarni qo'llagan holda foyda olishga yo'naltirilgan faol iqtisodiy faoliyat" hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatini modernizatsiya qilishda quyidagi tamoyillarga asoslanish lozim: birinchidan, tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy erkinlik va tanlov huquqi muhim omil hisoblanadi. Ikkinchidan, ishlab chiqarish vositalariga egalik va mulk huquqi ta'minlanishi kerak. Uchinchidan, erkin yo'nalish tanlash imkoniyati mavjud bo'lishi va investitsiyaviy muhit



yaratilishi zarur. To'rtinchidan, mulkchilik shakllarining xilma-xilligi va ularga kirishning ochiqligi tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar mehmonxona biznesiga nafaqat ichki jarayonlarni avtomatlashtirishda, balki mijozlar bilan aloqani kuchaytirishda, xizmatlar sifati va tezkorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Veb-saytlarning qidiruv tizimidagi joylashuvi, ko'p tilliligi va foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqasi mehmonxona korxonalarining raqobatbardoshligini belgilab bermoqda. O'zbekiston sharoitida ham tadbirkorlik va kichik biznesni modernizatsiya qilishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohalarida raqamli tizimlar bu nafaqat qulaylik balki, raqobatbardoshlik, foyda va mijozlar sodiqligi garovidir. Shu sababli, raqamli transformatsiyani tadbirkorlik strategiyasining ajralmas qismi sifatida ko'rish lozim.

XULOSA

Raqamli transformatsiya zamonaviy iqtisodiy muhitda tadbirkorlik va kichik biznesni modernizatsiya qilishning ajralmas qismiga aylangan. Kichik biznes raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish orqali innovatsion bozorga moslashmoqda. Maqolada qayd etilgan texnologik kommunikatsion va ijtimoiy omillar O'zbekistonda ham tadbirkorlik salohiyatini kuchaytirish, yangi nişalarni egallash va iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti** Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasi. Toshkent, 2020.
- Porter, M. E. & Heppelmann, J. E. How Smart, Connected Products Are Transforming Competition. Harvard Business Review Press, 2014.
- Brynjolfsson, E., & McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. MIT Press, 2014.



OCHIQ MANBALI ONLAYN RESURSLAR VA MOC PLATFORMALARIDAN
FOYDALANIB FIZIKANI O'QITISH

O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi

ADPI dotsent v.b.

Nizamatdinova Barshinay Kuat qizi

ADPI talabasi

+ 998930646902 barchinnizamatdinova@gmail.com

ANOTATSIYA: Bu mavzu bugungi kunda ta'lim sohasida eng dolzarb bo'lgan jarayonni – fizikani o'qitishda raqamli inqilobni o'rganadi. An'anaviy usullar zamonaviy texnologiyalar, xususan, Ochiq Manbali Onlayn Resurslar (OMOR) va Massiv Ochiq Onlayn Kurslar (MOC) platformalari bilan qanday chambarchas bog'lanishi mumkinligini tahlil qilish asosiy maqsad hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Ochiq Manbali Onlayn Resurslar (OMOR), MOC (Massiv Ochiq Onlayn Kurslar), Fizika Ta'limi, Raqamli Texnologiyalar, Interaktiv Simulyatsiyalar, Virtual Laboratoriyalar, Pedagogik Integratsiya, Masofaviy Ta'lim, Mustaqil O'rganish, O'qituvchi-Kurator.

АННОТАЦИЯ: В данной теме рассматривается наиболее актуальный на сегодняшний день процесс в образовании — цифровая революция в преподавании физики. Основная цель — проанализировать, как традиционные методы могут быть тесно связаны с современными технологиями, в частности, платформами открытых онлайн-ресурсов (OSOR) и массовых открытых онлайн-курсов (MOC).

Ключевые слова: открытые онлайн-ресурсы (OSOR), MOOC (массовые открытые онлайн-курсы), физическое образование, цифровые технологии, интерактивное моделирование, виртуальные лаборатории, педагогическая интеграция, дистанционное обучение, самостоятельное обучение, преподаватель-куратор.

Annotation: This topic examines one of the most relevant processes in education today — the digital revolution in physics teaching. The main goal is to analyze how traditional methods can be closely integrated with modern technologies, in particular, Open Educational Resources (OER) platforms and Massive Open Online Courses (MOCs).

Keywords: Open Educational Resources (OER), MOC (Massive Open Online Courses), physics education, digital technologies, interactive modeling, virtual laboratories, pedagogical integration, distance learning, self-directed learning, teacher-mentor.

Kirish: Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi fizikani o'qitish metodikasiga yangicha yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Halliday va Resnickning fizika bo'yicha fundamental



ilmiy yondashuvi ta'lim jarayonining nazariy asosini mustahkamlab beradi.[1. 11-b]. Siemensning konnektivizm nazariyasi esa onlayn muhitda o'quvchi mustaqil bilim olishi va tarmoq orqali axborot almashinuvi imkoniyatlarini asoslab beradi[2. 28-b]. Shu jihatdan qaraganda, ochiq manbali resurslar va MOC platformalaridan foydalanish fizikani o'qitishda samaradorlikni sezilarli oshiradigan muhim vositadir. Ochiq manbali platformalar PhET, OpenStax, Khan Academy kabi resurslar — fizika qonunlarini interaktiv tarzda tushuntirib, nazariy bilimlarni amaliy jarayonlar bilan bog'lashga yordam beradi. Xususan, OpenStax tomonidan taklif etilayotgan bepul darsliklar o'quvchilar uchun ochiq, qulay va ilmiy asoslangan ta'lim materiallarini yaratish orqali teng imkoniyatni ta'minlashga xizmat qiladi.[3. 29-b]. Bunday resurslardan foydalanish o'quvchilarning fizika jarayonlarini tasavvur qila olish qobiliyati va amaliy ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. MOC platformalari — Coursera, edX, Udemiy va boshqa onlayn kurslar — fizika fanini o'rganishda cheksiz imkoniyatlar yaratadi. Andersonning onlayn ta'lim bo'yicha tadqiqotlarida MOC kurslarining o'quvchilarni mustaqil o'qishga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga va o'z tezligida bilim egallashga undashi qayd etilgan.[4. 38-b]. Ushbu platformalardagi videodarslar, virtual laboratoriyalar, test tizimlari va muhokama forumlari fizikani o'rganishni yanada interaktiv va motivatsion jarayonga aylantiradi. Raqamli vositalarning an'anaviy o'qitish jarayoni bilan integratsiyalashuvi "aralash ta'lim" hamda "teskari sinf" kabi zamonaviy yondashuvlarni shakllantiradi. Batesning fikricha, raqamli texnologiyalar o'quvchini bilim olish jarayonining faol ishtirokchisi, o'qituvchini esa jarayonni boshqaruvchi va yo'naltiruvchi mavqega olib chiqadi.[5. 45-b]. Fizikani o'qitishda bu yondashuv darsdan oldin mavzuni onlayn o'rganish, darsning o'zida esa amaliy mashg'ulotlar, tajribalar va muhokamalarga ko'proq vaqt ajratish imkoniyatini beradi. Bu esa o'quv jarayonining mazmunan boyishini, talabalarning ilmiy tafakkuri va kompetensiyalarining oshishini ta'minlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ochiq manbali onlayn resurslar va MOC platformalarining fizika ta'limiga integratsiyasi o'quv jarayonida bir qator ijobiy o'zgarishlar keltirib chiqargan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, PhET, OpenStax, Khan Academy kabi bepul resurslardan foydalanish o'quvchilarning mavzularni vizual idrok etish darajasini yaxshilaydi, ayniqsa murakkab tushunchalar — elektromagnetizm, kvant hodisalari, dinamik jarayonlarni tasavvur qilishda katta yordam beradi. MOC platformalarining qo'llanishi esa talabalarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi, mustaqil mushohada qilish, raqamli kompetensiyani oshirish va o'z tezligida o'rganish imkoniyatini yaratadi.



XULOSA: Ochiq manbali onlayn resurslar va MOC platformalaridan foydalanish fizikani o'qitish jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'taradi. Bu resurslar o'quvchilar uchun istalgan vaqtda, istalgan joyda ta'lim olish imkonini yaratadi, turli interaktiv vositalar orqali mavzularni chuqurroq anglashga yordam beradi. O'qituvchilar uchun esa dars jarayonini boyituvchi, samaradorlikni oshiruvchi, o'quvchilarning faolligini kuchaytiruvchi innovatsion metodlarni qo'llash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Halliday, D., Resnick, R., & Walker, J. Fundamentals of Physics. Wiley, 2014.
2. Siemens, G. Learning and Knowledge in Networks: Connectivism Theory. 2013.
3. OpenStax. College Physics. Rice University Press, 2016.
4. Anderson, T. Theory and Practice of Online Learning. AU Press, 2018.
5. Bates, T. Teaching in a Digital Age. BCcampus, 2015.

**TABIIY FANLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA STEAM YONDASHUVI ASOSIDA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH****O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi**

ADPI dotsent v.b.

Najmiddinova Charos Alisher qizi

ADPI talabasi

+998507801106 Lookamajoo@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va STEAM yondashuvi imkoniyatlaridan foydalanish masalasiga bag'ishlangan. Maqolada STEAM integratsiyasining o'quvchilar bilimni mustahkamlash, kompetensiyalarini rivojlantirish va fanga qiziqishini oshirishdagi o'rnini tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonini interfaol metodlar, virtual laboratoriyalar va loyiha asosida o'qitish orqali takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar.

Kalit so'zlar: tabiiy fanlar, zamonaviy o'qitish usullari, STEAM yondashuvi, interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar.

АННОТАЦИЯ: Данная статья посвящена использованию современных педагогических технологий, цифровых инструментов и подхода STEAM при преподавании естественных наук. В статье анализируется роль интеграции STEAM в укреплении знаний учащихся, развитии их компетенций и повышении интереса к предмету. Также представлены рекомендации по совершенствованию образовательного процесса с помощью интерактивных методов, виртуальных лабораторий и проектного обучения.

Ключевые слова: естественные науки, современные методы обучения, подход STEAM, интерактивные методы, обучение на основе проектов, цифровые технологии, виртуальные лаборатории.

Annotation: This article is dedicated to the use of modern pedagogical technologies, digital tools, and the STEAM approach in teaching natural sciences. The article analyzes the role of STEAM integration in strengthening students' knowledge, developing their competencies, and increasing their interest in the subject. Recommendations for improving the educational process through interactive methods, virtual laboratories, and project-based learning are also provided.

Keywords: natural sciences, modern teaching methods, STEAM approach, interactive methods, project-based learning, digital technologies, virtual laboratories.

Kirish: Bugungi ta'lim jarayoni tezkor raqamli o'zgarishlar va innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan bog'liq holda rivojlanmoqda[1. 26-b]. Axborot



texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar va interfaol o'quv platformalari o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilmoqda. Shu bilan birga, tabiiy fanlarni o'qitishda an'anaviy usullar ko'plab hollarda o'quvchilarning nazariy bilimlarini berishda samarali bo'lsa-da, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun yetarli emas.[2. 38-b]. Shu sababli, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi zamonaviy ta'lim tizimida asosiy vosita sifatida joriy etilgan. STEAM integratsiyasi o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni tushunish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish va real hayotdagi muammolarni hal qilish imkonini beradi.[3. 41-b]. Shu bilan birga, bu yondashuv o'quvchilarning jamoada ishlash ko'nikmasi, kreativ fikrlash va muammolarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, virtual laboratoriyalar va raqamli simulyatorlardan keng foydalanish samaradorlikni oshiradi.[4. 19-b]. Masalan: Fizika darslarida mexanik konstruktsiyalar, kichik robot loyihalari va simulyatsiyalar orqali nazariy tushunchalar amaliy tajriba bilan mustahkamlanadi. Kimyo darslarida reaksiyalarni sensorlar yordamida kuzatish va ularni virtual laboratoriyalarda tajriba qilishi o'quvchilarni jarayon bilan yaqindan tanishtiradi. Biologiya darslarida esa 3D organ modellarini yaratish, vizual animatsiyalar va interfaol prezentatsiyalar orqali o'quvchilarning qiziqishi va tushunchasi oshadi. Shuningdek, STEAM yondashuvi fanlarni bir-biri bilan integratsiyalashga imkon beradi.[5. 44-b]. Masalan, matematikani texnologiya bilan bog'lash orqali ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmasi shakllanadi, san'at orqali biologiyani vizual tarzda ko'rsatish o'quvchilarning tushunchalarini boyitadi, muhandislik va texnologiya orqali esa fizika va kimyo tushunchalari amaliy qo'llanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarda nafaqat ilmiy bilim, balki hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, interfaol metodlar va loyihaviy ishlash o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tanqidiy tahlil qilishga va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga o'rgatadi. Natijada, ta'lim jarayoni nafaqat samarali, balki qiziqarli, innovatsion va kelajak kasblariga tayyorlovchi bo'lib xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy metodlar va STEAM yondashuvining joriy etilishi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish va virtual laboratoriyalar orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimni egallaydi, balki amaliy tajriba orttiradi va real hayotdagi muammolarni mustaqil hal qilishga o'rganadi. Shu bilan birga, fanlarni



integratsiyalash orqali o'quvchilar ijodiy fikrlash, jamoada ishlash va muammolarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa: Tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy metodlar va STEAM yondashuvini qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish va virtual laboratoriyalar o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimini, balki amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi. STEAM integratsiyasi orqali fanlar bir-biri bilan bog'lanib, o'quvchilarda ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bates, T. Teaching in a Digital Age. BCcampus, 2019.
2. Anderson, T. Theory and Practice of Online Learning. AU Press, 2018.
3. Sanders, M. STEM, STEAM and the Future of Education. 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Umumta'lim maktablarida fanlarni o'qitish metodikasi. Toshkent, 2021.
5. OpenStax. College Physics. Rice University Press, 2016.

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KORXONA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI.****Diyorova Dilyora Diyor qizi**

Jizzax politexnika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli transformatsiya jarayonida zamonaviy korxonalar oldiga qo'yilayotgan yangi talablar va muammolar tahlil qilinadi. Big Data, IoT (Internet of Things) va Blockchain texnologiyalari yordamida korxonalar samaradorligini oshirish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va raqobatbardoshligini kuchaytirishdagi o'rnini ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni korxonalarda integratsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati va samaradorligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, Big Data, IoT, Blockchain, tranzaksiya, aqlli ishlab chiqarish, raqobatbardoshlik, samaradorlik, shaffoflik.

Аннотация. В данной статье анализируются новые требования и проблемы, возникающие перед современными предприятиями в процессе цифровой трансформации. На основе научных источников раскрывается роль технологий Big Data, IoT (Интернет вещей) и Blockchain в повышении эффективности предприятий, оптимизации управленческих процессов и укреплении конкурентоспособности. Также рассматриваются экономическая значимость и эффективность интеграции цифровых технологий в деятельность предприятий.

Ключевые слова: Цифровая трансформация, Big Data, IoT, Blockchain, транзакция, умное производство, конкурентоспособность, эффективность, прозрачность.

Abstract. This article analyzes the new requirements and challenges faced by modern enterprises in the process of digital transformation. Based on scientific sources, it highlights the role of Big Data, IoT (Internet of Things), and Blockchain technologies in improving enterprise efficiency, optimizing management processes, and strengthening competitiveness. The economic significance and effectiveness of integrating digital technologies into enterprises are also examined.

Keywords: Digital transformation, Big Data, IoT, Blockchain, transaction, smart manufacturing, competitiveness, efficiency, transparency.

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli transformatsiya korxonalar faoliyatining ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, korxonalar raqobatbardosh bo'lishi, samaradorlikni oshirishi va tezkor qarorlar qabul qilishi uchun Big Data, IoT va Blockchain texnologiyalaridan foydalanishi zarur. Biroq ko'plab korxonalarda ma'lumotlar yetishmasligi, ishlab chiqarish jarayonining real vaqt monitoringi yo'qligi, logistika va yetkazib berish



zanjirlarida shaffoflikning pastligi kabi muammolar mavjud. Shu sababli, raqamli texnologiyalarning samarali integratsiyasi bugungi kunda dolzarb masalaga aylanmoqda. Ushbu maqolada Big Data, IoT va Blockchain texnologiyalarining iqtisodiy ahamiyati, ularni qo'llash orqali korxonalar samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish usullari tahlil qilinadi.

Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobatbardosh bo'lishi uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasini oshirishi zarur. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab korxonalar faoliyatida bir qator tizimli muammolar mavjud. Bularga birinchidan, korxonalarda ma'lumotlar yetishmovchiligi va boshqaruvning subyektivligi mavjud. Ma'lumotlarni yig'ish tizimsiz bo'lib, boshqaruv qarorlari ko'pincha tajribaga asoslanadi va data-driven yondashuvlar yetarli emas. Ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyati mavjud emas. Bu nosozliklarni kech aniqlashga olib keladi, natijada uskunalar to'xtashi va kutilmagan xarajatlar ortadi. Uchinchidan, logistika va yetkazib berish zanjirlarida shaffoflikning pastligi. Ma'lumotlar nomuvofiqligi, soxta hujjatlar va tranzaksiyalarning sekinligi raqobatbardoshlikni pasaytiradi. Tortinchidan, axborot xavfsizligi va ma'lumotlar butunligi bilan bog'liq risklar. Kiberhujumlar korxonalariga sezilarli moliyaviy zarar yetkazadi. Beshinchidan esa kadrlar malakasining raqamli talablar bilan mos kelmasligi. Xodimlarning malaka yetishmovchiligi samaradorlikni pasaytiradi va raqobatbardoshlikni susaytiradi. Ushbu muammolar natijasida korxonalar samaradorlikni oshira olmaydi, xarajatlar ortadi va bozor ulushini yo'qotadi. Shu sababli, Big Data, IoT va Blockchain texnologiyalarining samarali integratsiyasi zamonaviy korxonalarda dolzarb yechim sifatida ko'rilmogda.

Raqamli transformatsiya — korxonalar faoliyatini raqamli texnologiyalar yordamida qayta tashkil etish, avtomatlashtirish, optimallashtirish va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimini yaratish jarayonidir. Raqamli transformatsiyaning asosiy omili ilg'or texnologiyalarning integratsiyasidir. Big Data, IoT va Blockchainning integratsiyasi raqamli transformatsiya jarayonini ta'minlaydi va korxonada ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, boshqaruv qarorlarini tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Quyida korxonalar uchun eng muhim texnologiyalari — Big Data, IoT va Blockchainning iqtisodiy roli yoritiladi.

Big Data – boshqaruv qarorlarining asosiy vositasi hisoblanadi. U korxonalar ichki va tashqi manbalardan kelayotgan katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini ilmiy asoslangan, tezkor va samarali qilish imkonini beruvchi texnologik vosita hisoblanadi. Big Data korxonaga bir qancha imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu imkoniyatlarga



bozor talabini oldindan prognoz qilish, xarajatlarni aniq tahlil qilish, ishlab chiqarish jarayonidagi isroflarni aniqlash kiradi. Ilmiy adabiyotlar Big Data texnologiyasining korxonalar samaradorligiga ta'sirini keng yoritadi. Masalan: McKinsey Global Institute (2021) ma'lumotlarni "iqtisodiyotning yangi nefti" deb baholagan va ularni samarali ishlatgan korxonalar raqobatda 5–6 barobar ustunlikka ega bo'lishini ko'rsatgan. McKinsey (2021) hisobotiga ko'ra, Big Data yordamida korxonalar samaradorligi 20–25% gacha oshishi mumkin. Shu bilan birga, Harvard Business Review tadqiqotchilari (Davenport, Dyché) ta'kidlashicha, Big Data asosida qabul qilingan qarorlar an'anaviy qarorlarga nisbatan 70% aniqroq va 26% yuqori samaradorlikka ega ekan. Ushbu tadqiqotlar Big Data asosida qaror qabul qilishning nafaqat tezkor va aniq bo'lishini, balki korxonaning moliyaviy va operatsion samaradorligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Ilmiy tadqiqotlar asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, Big Data korxonalar boshqaruvida faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni ta'minlaydi, risklarni kamaytiradi (kredit tavakkali, yetkazib berish zanjiri va firibgarlik) va bozor prognozlarini aniq amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, marketing va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali korxonalar samaradorligi 20–30% gacha oshadi va raqobatbardoshlik kuchayadi.

IoT – ishlab chiqarish samaradorligining dvigateli. IoT (Internet of Things) — bu sensorlar, qurilmalar va aqlli tizimlar yordamida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlaridan real vaqt ma'lumotlarini to'plash, uzatish va tahlil qilish imkonini beruvchi texnologiya hisoblanadi. IoT yordamida korxonalarda uskunalarning nosozligini oldindan aniqlash, ishlab chiqarish to'xtashlarini kamaytirish, energiya sarfini optimallashtirish hamda logistika va yetkazib berish jarayonlarini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. World Economic Forum (WEF) tahliliga ko'ra, IoT asosida ishlaydigan "aqlli ishlab chiqarish" tizimlari nosozliklarni 40% gacha kamaytiradi, energiya sarfini 30% qisqartiradi va ishlab chiqarish to'xtashlarini 25% gacha kamaytiradi. Bundan tashqari Deloitte (2020) IoTni "aqlli korxonalar"ning asosiy infratuzilmasi sifatida e'tirof etadi va mahsulot sifatini nazorat qilishda muhim texnologiya ekanligini qayd etadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, IoT korxonalarida nosozliklarni 40% gacha kamaytiradi, ishlab chiqarish to'xtashlarini 25–70% gacha qisqartiradi, energiya xarajatlarini 30% gacha kamaytiradi va mahsulot sifatini 15–20% oshiradi. Shu bilan IoT korxonalar ichki jarayonlarini optimallashtirishda va raqobatbardoshlikni oshirishda eng samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Blockchain – shaffoflik va ishonchlilikni oshiruvchi texnologiya. Blockchain — taqsimlangan reyestr texnologiyasi bo'lib, har bir tranzaksiyani o'zgartirib bo'lmaydigan tarzda qayd qiladi va jarayonlarni avtomatlashtirish



imkonini beradi. Korxonalarda blockchain quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: ma'lumotlar buzilishini oldini olish, tranzaksiyalarni aniq qayd etish, hujjatlarni soxtalashtirishning oldini olish, smart-kontraktlar orqali jarayonlarni avtomatlashtirish hamda mahsulotlarning yetkazib berish zanjiri bo'ylab kuzatilishini ta'minlaydi. IBM tadqiqotlariga ko'ra, blockchain yordamida tranzaksiya xarajatlari 35% gacha kamayadi, hujjat aylanish vaqti 80% qisqaradi va soxtalashtirish darajasi deyarli nolga tushadi. Maersk-IBMning qo'shma tadqiqotida blockchain yordamida global logistika hujjatlarini qayta ishlash vaqtini 80% gacha qisqartirgan va texnologiya global logistika sektorida "transformator texnologiya" sifatida baholangan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, blockchain korxonalarda xavfsizlikni oshirish, jarayonlarni avtomatlashtirish va shaffoflikni ta'minlashda samarali vosita hisoblanadi. Xulosa qladigan bo'lsak, blockchain joriy etilgan korxonalarda tranzaksiya xarajatlari 15-35% gacha kamayadi, logistika jarayonlari 80% tezlashadi, xavfsizlik risklari 90% gacha kamayadi va korxonada obro'si ortadi. Shu bilan blockchain korxonada faoliyatini shaffof va ishonchli qilish orqali raqobatbardoshlikni oshiradi.

Yuqoridagi keltirilgan tahlillardan kelib chiqib, korxonalarda raqamli transformatsiyani amalga oshirish va samaradorlikni oshirish uchun bir qator strategik choralar tavsiya etiladi. Avvalo, korxonada 3-5 yillik raqamlashtirish yo'l xaritasini ishlab chiqishi, texnologiyalarni bosqichma-bosqich integratsiya qilish va moliyalashtirish mexanizmlarini belgilashi lozim. Shu bilan birga, xodimlarning malakasini oshirish va IT xavfsizlik siyosatini mustahkamlash muhimdir. Big Data bo'limini tashkil etish lozim. Bu bo'limda data analyst, data engineer va data scientist kabi mutaxassislar jalb qilinishi, korxonaning ma'lumotlar bazasi yagona platformaga keltirilishi, tozalash va strukturalash ishlari amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, prediktiv modellardan, AI lardan foydalangan holda ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi. IoT asosidagi "Aqlli korxonada" tizimini joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, nosozliklarni oldindan aniqlash mumkin. Natijada ishlab chiqarish to'xtashlari kamayadi, energiya va resurslar samarali ishlatiladi, mahsulot sifati oshadi. Blockchain texnologiyasini tatbiq etish korxonada shaffof boshqaruv tizimini yaratishga xizmat qiladi. Shartnomalarni smart-kontraktga o'tkazish, yetkazib berish zanjirini raqamlashtirish va raqamli identifikatsiya kiritish orqali tranzaksiyalar xavfsiz va tezkor amalga oshiriladi. Shu bilan birga, elektron hujjatlar oqimi shaffof va ishonchli bo'ladi, firibgarlik va xatoliklar minimalga tushadi. Xodimlarning malakasini oshirish ham muhim yo'nalishlardan biridir. Ularning raqamli savodxonligi, data-analitika ko'nikmalari va kiberxavfsizlik bo'yicha bilimlari mustahkamlanishi zarur. Shu bilan birga, IT xavfsizlik



siyosatini kuchaytirish orqali ko'p bosqichli autentifikatsiya, ma'lumotlarni shifrlash va xavfsizlik protokollarini yangilash tavsiya etiladi. Bu choralar korxonalar tizimlarini xavfsiz va barqaror ishlashini ta'minlaydi. Ushbu choralarni amalga oshirish orqali korxonalar nafaqat raqamli transformatsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshiradi, balki boshqaruv samaradorligini oshiradi, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya zamonaviy korxonalar samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Big Data, IoT va Blockchain texnologiyalari ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish hamda boshqaruv jarayonlarini tezlashtirish va shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, Big Data ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, risklarni boshqarish va bozor talabini bashorat qilish imkonini bersa, IoT real vaqt rejimida monitoringni amalga oshirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Blockchain texnologiyasi esa tranzaksiyalar xavfsizligini oshirib, yetkazib berish zanjirlarida shaffoflikni ta'minlash hamda jarayonlarni avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun korxonalar texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etishi, raqamli strategiyani ishlab chiqishi, xodimlar malakasini oshirishi va axborot xavfsizligini ta'minlashi zarur. Natijada, raqamli texnologiyalarni samarali qo'llagan korxonalar bozor talablariga tez moslashadi, iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi va innovatsion rivojlanishga erishadi. Shu bois, raqamli transformatsiya bugungi kunda korxonalar rivojlanishining muhim va ajralmas bosqichi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. McKinsey Global Institute. The Age of Analytics: Competing in a Data-Driven World. McKinsey & Company, 2021
2. World Economic Forum. Digital Transformation Initiative: Unlocking Business Value. WEF, 2020. <https://www.weforum.org>
3. Davenport, T. H., Dyché, J. Big Data in Practice: How 45 Successful Companies Used Big Data Analytics to Deliver Extraordinary Results. Harvard Business Review Press, 2018. <https://hbr.org>
4. Deloitte Insights. Industry 4.0 and the Digital Transformation of Manufacturing. Deloitte, 2020. <https://www2.deloitte.com>
5. OECD. Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future. OECD Publishing, 2019. <https://www.oecd.org/digital>
6. IBM. Blockchain for Business: Beyond the Hype. IBM Institute for Business Value, 2018. <https://www.ibm.com/blockchain>
7. Maersk & IBM. TradeLens: Blockchain-Enabled Global Trade. Joint Industry Report, 2019.



Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish mazmuni

G'iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi

QDU o'qituvchi.

giyosiddinovamahmuda@gmail.com +998912013395

Annatsiya: Innovatsion texnologik topshiriqlar bo'lajak boshlang'ich o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular talabalarni mustaqil va ijodiy yechimlar izlashga undaydi, shaxsni takomillashtirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltiradi. Bu jarayonda innovatsion ta'lim usullari, masalan, zamonaviy sharoitdan foydalanish va talabalarni har bir imkoniyatdan foydalanishga o'rgatish muhim sanaladi.

Kalit so'zlar: Kreativ, texnologiya, metodika, pedagogik tadqiqotlar, innovatsion texnologiya, yangilik, kompetensiya, topshiriq.

Аннотация: Инновационные технологические задачи играют важную роль в развитии творческого мышления будущих учителей начальных классов, поскольку побуждают учащихся к поиску самостоятельных и творческих решений, направляют развитие личности и творческого мышления. В этом процессе важными считаются инновационные методы обучения, такие как использование современных условий и обучение студентов использовать каждую возможность.

Ключевые слова: Творческий, технология, методология, педагогическое исследование, инновационная технология, инновация, компетенция, задача.

Annotation: Innovative technological tasks play an important role in the development of creative thinking of future elementary teachers, because they encourage students to search for independent and creative solutions, guide the development of personality and creative thinking. In this process, innovative educational methods, such as using modern conditions and teaching students to use every opportunity, are considered important.

Key words: Creative, technology, methodology, pedagogical research, innovative technology, innovation, competence, task.

Pedagogik kadrlarni tayyorlashda kreativ fikrlashni shakllantirish innovatsion texnologik topshiriqlardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bunday yondashuv, avvalo, kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qila oladigan, ijodkorlikka moyil, muammoli vaziyatlarga kompleks yondasha biladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zaruratidan kelib chiqadi. Shu sababli, o'quv jarayonining mazmuniy asosini tashkil etuvchi



dasturlar ham zamonaviy pedagogik talablarga javob beruvchi innovatsion texnologik topshiriqlar asosida ishlab chiqilishi lozim.

B.B. Ma'murovning fikricha, kasbiy-pedagogik ta'limda bunday topshiriqlarni joriy etish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlar majmuini yaratish zarur. [60; 10-11-b.] U ushbu sharoitlarni quyidagicha tasniflaydi:

- **Axborot sharoitlari** – o'quv mazmuniga qo'yiladigan zamonaviy talablar;
- **Shaxsga oid sharoitlar** – ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning faol hamkorligi, demokratik muloqot va o'zaro ishonch muhitini shakllantirishga yo'naltirilgan talablar;
- **Texnologik sharoitlar** – ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdagi uslub va vositalarni tanlash, innovatsion faoliyat turlari, treninglar va ilg'or metodik yondashuvlar bilan bog'liq talablar majmuasi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining innovatsion texnologik topshiriqlar asosida kreativ fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini belgilab oldik.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda innovatsion texnologik topshiriqlarning samaradorligini ta'minlash, avvalo, o'quv jarayonining puxta tashkillashtirilganligi va psixologik qulay muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayonda pedagogik va psixologik jihatdan asoslangan shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik jihatdan qaralganda, ta'lim mazmuni va shakllarini zamon talablari asosida yangilash, kreativ fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni o'quv jarayoniga kiritish muhim hisoblanadi.

Asosiy tashkiliy-pedagogik jihatlar quyidagilardan iborat:

1. O'quv rejalarini moslashtirish orqali ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydigan, innovatsion yondashuvlarga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur bo'ladi.
2. Interaktiv o'quv faoliyatini tashkil etish – seminar, trening, loyiha va guruhli ishlar orqali talabalarni erkin fikrlashga jalb etish imkonini beradi.
3. Texnologik ta'lim muhitini shakllantirish – zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish orqali talabalarning mustaqil izlanish faoliyatini rag'batlantiradi.
4. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xususan, muammoli o'qitish (PBL), dizayn fikrlash (design thinking), tanqidiy va loyiha asosidagi yondashuvlar ijodiy tafakkurni faollashtirishga xizmat qiladi.
5. Pedagoglarning metodik tayyorgarligi yuqori bo'lishi, ya'ni ular zamonaviy topshiriqlarni ishlab chiqish, ularni qo'llash va baholashga doir bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi lozim.



6. Hamkorlikka asoslangan o'quv muhiti – talabalar o'rtasida erkin muloqot, guruhiy fikrlash va qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirish orqali ijodiylikni qo'llab-quvvatlaydi.
7. O'quv jarayonini monitoring qilish – kreativ fikrlash rivojini tizimli kuzatish va tahlil qilish orqali mavjud muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Shuningdek, bu jarayonda psixologik shart-sharoitlarning ham o'zni beqiyosdir. Kreativ tafakkur insonning ichki faolligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, yangicha fikr yuritish va noan'anaviy yondashuvlarga tayyorligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan psixik faoliyat shaklidir. Qulay psixologik muhit yaratish, eng avvalo, shaxsiy erkinlik, o'zini namoyon qilish imkoniyati, ijobiy emotsional holatni saqlash, ichki motivatsiyani rag'batlantirish va xavfsiz psixologik atmosferani shakllantirishni talab qiladi. Shuningdek, talabaga nisbatan individual yondashuv, empatiya, o'ziga ishonch hissini oshirish ham ijodiy fikrlashning psixologik asosi hisoblanadi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish shunchaki bilim va ko'nikmalarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning psixologik jihatdan erkin, mustaqil va yangicha fikrlashga tayyor bo'lishini ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishda psixologik omillar muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston NMIU, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi", 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [PQ-2909-sonli qarori](#). Manba: www.gov.uz
4. O'rinova N.M., Kadirova M.R., Djalalov B.B., Baydjanov B.X.. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. Farg'ona: "Poligraf super servis. 2022.
5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- Toshkent, Moliya, 2003.
6. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017-yil.
7. Toxtaxodjayeva M.X. "Pedagogika nazariyasi"/ OTM uchun darslik.- T.: "Iqtisod-moliya", 2010.
8. G'iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi. Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish mazmuni. (2025). *Konferentsiya markazi*, 29-30
9. G'iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi. Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishning nazariy asoslari. [international journal of science and technology](#) 2(3):7-8

**The Paris Agreement: A New Era in Global Climate Diplomacy****Abdumo'minova Mukarramxon**

Andijan State Institute of Foreign Languages

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the 2015 Paris Agreement, a historic international accord that reshaped global climate diplomacy. The paper discusses the shift from top-down, mandatory emission reduction systems to a flexible, bottom-up model based on Nationally Determined Contributions (NDCs). Key elements—including the long-term temperature goal, the Enhanced Transparency Framework (ETF), and climate finance obligations—are reviewed in detail. The study concludes that while the Agreement forms a strong global framework, its success depends on increased political will and effective implementation by all participating countries.

Аннотация. В данной статье представлен подробный анализ Парижского соглашения 2015 года — исторического международного документа, изменившего подход к глобальной климатической дипломатии. Рассматривается переход от жесткой системы обязательных квот к гибкой модели, основанной на национально определяемых взносах (NDC). Подробно анализируются ключевые элементы соглашения: долгосрочная температурная цель, Усиленная система прозрачности (ETF) и финансовые обязательства развитых стран. В статье делается вывод, что, несмотря на прочную правовую основу, успех соглашения зависит от усиления политической воли и эффективной реализации странами-участницами.

1. Scientific Basis of the 1.5°C Target. The 1.5°C temperature threshold is grounded in scientific research conducted by the Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). According to the IPCC Special Report on Global Warming of 1.5°C, exceeding this limit significantly increases the risks of extreme weather events, sea-level rise, biodiversity loss, and food insecurity.

The Paris Agreement aligns international climate policy with scientific evidence, emphasizing preventive action rather than reactive measures. This science-based approach strengthens the Agreement's legitimacy and urgency.

2. Role of the Global Stocktake Mechanism. The Global Stocktake is a core evaluative process designed to assess collective progress toward the Agreement's long-term goals. Conducted every five years, it reviews mitigation efforts, adaptation measures, and financial support. The findings of the Global Stocktake inform future NDC updates and encourage states to raise ambition. This mechanism transforms climate diplomacy into an ongoing learning and accountability process rather than a static treaty obligation.



3. Adaptation as a Global Priority. While early climate agreements focused primarily on mitigation, the Paris Agreement elevates adaptation to equal importance. Article 7 recognizes adaptation as a global goal, particularly vital for developing countries and small island states. Adaptation strategies include climate-resilient infrastructure, sustainable water management, and disaster risk reduction. This shift acknowledges that climate impacts are already occurring and require immediate policy responses.

4. Challenges in Implementation. Despite its strengths, the Paris Agreement faces notable implementation challenges. National climate policies often conflict with economic priorities, particularly in fossil-fuel-dependent economies. Additionally, delays in climate finance disbursement and insufficient technological transfer limit progress in developing regions. These challenges highlight the gap between political commitment and practical execution, emphasizing the need for stronger domestic legislation and international cooperation.

5. The Paris Agreement and Sustainable Development. The Agreement contributes directly to the achievement of the United Nations Sustainable Development Goals (SDGs), particularly SDG 7 (Affordable and Clean Energy), SDG 11 (Sustainable Cities), and SDG 13 (Climate Action). By integrating climate action with broader development goals, the Paris framework promotes inclusive and long-term sustainability rather than isolated environmental policies.

References:

1. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). (2018). Global warming of 1.5°C. Geneva: IPCC.
2. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC). (2015). The Paris Agreement. Bonn: UNFCCC.
3. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC). (2023). Global Stocktake synthesis report. Bonn: UNFCCC.
4. Bodansky, D. (2016). The Paris Climate Change Agreement: A new hope? *American Journal of International Law*, 110(2), 288–319.
5. Falkner, R. (2016). The Paris Agreement and the new logic of international climate politics. *International Affairs*, 92(5), 1107–1125.
6. Stern, N. (2007). *The economics of climate change: The Stern review*. Cambridge: Cambridge University Press.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLAR TASHKIL QILISH

Raxmanova Gulnora

Forish tumani 16- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: O'qituvchi bir o'quvchi bilan ishlab, ta'limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. O'qituvchi matnlarni o'qib bergan yoki bolalariga o'qitib so'zlatgan. Qoida va ta'riflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish musiqa asboblari u yoki bu kuyni ijro etish yo'llari bilan bolalar hayot, san'at, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni o'zlashtirgan. Keyinchalik individual ta'lim o'rnini guruhlar asosida o'qitish egallagan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, metodika, qoida, innovatsiya.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi. Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot – maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a'zosi ekanligini his etishga, intizomga bo'ysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo'ladi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uning maktabda o'qish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'rganish kabi zarur yumushlari ko'p. Muhimi, o'yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto, maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfda 40–45 daqiqali darsda o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, o'qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchilar bola-larning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb etish samarali bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur. "Pedagogik texnologiya" tu shunchasining vujudga kelishi, ta'limning ilk tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bog'liq. Individual ta'lim o'quv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo'lib, u dastavval qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan edi. O'qituvchi bir o'quvchi bilan ishlab, ta'limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. O'qituvchi matnlarni o'qib bergan yoki bolalariga o'qitib so'zlatgan. Qoida va ta'riflarni yodlash,



jismoniy mashqlarni bajarish musiqa asboblarida u yoki bu kuyni ijro etish yo'llari bilan bolalar hayot, san'at, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni o'zlashtirgan. Keyinchalik individual ta'lim o'rnini guruhlar asosida o'qitish egallagan. O'rta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, og'zaki savol-javob, yuqori pog'onalarda esa ma'ruza, munozara ta'limning yetakchi usullariga aylana boshlagan. Bu holat asta-sekin sinf-dars sistemasini keltirib chiqarib, yangi texnologiyalarni kelib chiqishiga zamin hozirlagan.

1. Pedagogik ta'sir ko'rsatish. Pedagogika o'z metodlarini yo'q joydan yaratmaydi. U hayotdan kishilar xulq-atvorining real omillarini, bolalar hayotini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish vazifalariga javob beradiganlarini tanlab oladi, ulardan tarbiyaviy ishda pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari sifatida foydalanadi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasi bolalarning ijtimoiy-foydali faoliyatini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishga xizmat qiladigan vositalar tizimidan iboratdir. Bu vazifalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, bolalarning xulq-atvorini rag'batlantiradi, qiyin va murakkab vazifalarni quvunch, ijodiy zavq-shavq manbaiga, har bir o'quvchining shaxsiy muddaosiga aylantiradi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari – ishontirish, talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikridir. O'zaro hamkorlikda ta'sir ko'rsatishning natijasi ishontirishdir. U haqiqiy va soxta turlarga bo'linadi. Ishonch 3 tarkibiy qismdan iborat: 1. Bilim; 2. Hissiyot; 3. Xulq-atvor. U tushunish – kechinma – qabul qilish orqali amalga oshadi. Ishontirish shakllari quyidagilar: ma'ruza, bahs, munozara, suhbat, hikoya qilish, dalillash, ko'rsatish (namoyish qilish), shaxsiy namuna. Pedagogik talab – ta'lim-tarbiya jarayonida ko'p qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, u tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi shaxsiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli bo'lgan talab bilan jamoani tashkil etish metodi sifatidagi yagona pedagogik talablarni farqlay bilish lozim. Agar yagona pedagogik talablar bolalarning ijtimoiy foydali faoliyatini rag'batlantirish mazmunini, jamoani jipslashtirishda pedagoglar bilan bolalarning harakatlari birligiga erishish yo'llarini ta'minlasa, talab esa xulq-atvor va faoliyat normalarini, bolalarning xatti-harakatlari hamda ishlarida amalga oshirish usullaridan iboratdir. Istiqbol ta'sir ko'rsatishning juda ta'sirchan usuli bo'lib, u bolalarning xatti-harakatlarini ular oldiga maroqli, qiziqarli maqsadlar qo'yish yo'li bilan ta'minlaydi, bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari, qiziqish va muddaolariga aylanadi. Bu usul maktab o'quvchilarida shaxsning eng



muhum fazilatlaridan biri bo'lgan maqsadga intiluvchanlikni shakllantirishga yordam beradi. Rag'batlantirish va jazolash tarbiyaning eng an'anaviy usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilar xulq-atvoriga tuzatish kiritishni, ya'ni foydali xatti-harakatlarni qo'shimcha rag'batlantirishni va tarbiyalanuvchilarning nomaqbul xatti-harakatlarini to'xtatishni ta'minlaydi, bunda ularning huquq, burchlarini kengaytirish yoki cheklash, ularga axloqiy ta'sir ko'rsatish yo'lidan foydalaniladi. Rag'batlantirish va jazolash metodi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi sababli uni qo'llashda juda ehtiyot bo'lish lozim. Jamoatchilik fikri ta'sir ko'rsatishning qudratli usuli bo'lib, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini har tomonlama va muntazam rag'batlantirib borishni ta'minlaydi, jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ancha to'liq amalga oshiradi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish usullaridan samarali foydalanishning zarur sharti pedagogikaning tarbiyalanuvchilarga bo'lgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir.

Pedagogik ta'sirning ta'lim-tarbiyadagi o'rni. Respublikamiz istiqloлга erishgan hozirgi davrda shaxsga chuqur, asosli va umumiy talablar qo'iladi, lekin ikkinchi tomondan, shaxsga katta hurmat ko'rsatiladi. Bu shaxsga bo'lgan talablarni va unga bo'lgan izzat-hurmatni birga qo'shish – ikki xil zarur shart bo'lib, pedagogning bolalarga bo'lgan munosabatlarining chinakam insonparvarligidir. Boshlang'ich ta'lim. Konsepsiyasida boshlang'ich ta'limning maqsad va vazifalari aniq belgilab berilgan. Chunonchi, bolalarning ongi va tafakkurida mavjud bo'lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarni, o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishgagina emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi, o'quvchilarda o'rganish va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim sinfdan tashqari o'qish darslarida – SWOT – tahlil metodi, – FSMU texnologiyasi, – Charxpalak, – Svetafor, – Qor parchalari – Tushunchalar tahlili kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni o'stiradi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida suhbat o'qilgan kitobni muhokama qilishda ham, yangi kitob tavsiya qilishda ham qo'llanadi; suhbat elementlari o'qilgan asardan asosiy mazmuni ajratish uchun, voqealar izchilligini, bo'lgan vaqti va o'rnini, bog'lanishini belgilashga yordam beradi. Suhbat uchun savol tuzishda o'quvchilarning mustaqilligi, hayotdan, o'qilgan boshqa kitoblardan qo'shimcha javob berishi hisobga olinadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida qiziqarli mashqlarga alohida o'rin beriladi. Bunday darslarda adabiy viktorina (bir mavzu ustida savol-javob o'yini), eng yaxshi insholar, illyustratsiyalar, topishmoq topish, konkurslar



o'tkazish, topishmoqlar albomini tuzish, tayyorgarliksiz jamoaviy yoki individual ravishda ertak to'qib aytish, o'quvchilar hayoti haqida, yozuvchilarning chuqur ma'noli gap (hikmatli so'z)lari va maqollar, latifalar aytish mumkin. Ba'zan o'qituvchilar bunday darslarda innovatsion texno-logiyalaridan "Hazil minuti", "5 sekund o'ylash uchun", "Topishmoqlarni top", "Bilimdonlar klubi" kabi qiziqarli mashg'ulotlarni doimo o'tkazib turadilar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, innovatsion texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash ta'limning an'anaviy tizimidan farqli ravishda innovatsion texnologiyalar asosida o'qish darslarining har bir jarayonida o'quvchining faolligiga asoslangan, mustaqil faoliyati, o'zlashtirish qobiliyatini hisobga olgan holda, ta'lim jarayoniga to'liq jalb etilishi yotadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan darsning an'anaviy darsdan farqi shuki, bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib berishida ko'rinadi. Bu imkoniyat o'quvchiga hech qanday tazyiq o'tkazmasdan, uning shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhitini yaratishidir. O'qitishning turli texnologiyalari pedagogik o'yinlar, qiziqarli boshqotirmalar, rasmi ko'rinishdagi rebuslar o'quvchilarda o'qish darslariga qiziqishlarini orttirish ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchilarda zamonaviy ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiya usullaridan foydalanishning mohiyati-mazmunini tushuntirish, ularda muay-yan tasavvurlarni hosil qilishga erishish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion pedagogik texnologiyada kutilgan natijaga erishish uchun faqat o'qituvchi emas, o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, talablari va xislatlariga asoslangan holda, ko'zda tutilgan maqsad amalga oshirishi va natijali bo'lishini rejalashni o'qituvchi o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Norov, I. K., Shirinova, N. A., & Yuldasheva, S. S. (2020). BADIY ASARNI TAHLIL QILISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH. In
2. Молодой исследователь: вызовы и перспективы (pp. 124-126).
3. Sanober, S., Aldawsari, M., Karimovna, A. D., & Ofori, I. (2022). Blockchain Integrated with Principal Component Analysis: A Solution to Smart Security against Cyber-Attacks. Security and Communication Networks, 2022.
4. Shukhratovich, Y. S. (2022). STUDY OF NECRONYMS IN THE TERRITORY
5. OF KARAKALPAKSTAN. Gospodarka i Innowacje., 21, 101-104.
6. Abdurakhimova, D. K. (2014). PREREQUISITES FOR THE TRANSITION OF TRADITIONAL BANKS TO DIGITAL BANKING. The Way of Science, 23.
7. Azlarova, A. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ БАНКЛАРНИ
8. РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. Economics and Innovative Technologies, 10(5), 22-30.
9. Tajimuratovna, X. M., Menglibaevna, B. S., Ataxanovna, Y. G., & Zaripbaevna, S.
10. (2021). Umumiy O 'Rta Ta'lim Maktablarida O 'Quvchilar Bilimlarini Baholash Va



- Nazorat Qilishda Elektron Vositalaridan Foydalanish Usullari. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 16- 19.
11. Norov, I., Yo'ldoshev, J., & Yo'ldoshev, S. (2023). ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS TASHKIL QILISH. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(4), 40- 47.
 12. Anvarovich, N. E., & Malik o'gli, S. S. (2023). Influence of Financial Inclusion Enclosed by Digital Banking Products on UzbekistanS Economy. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(4), 32-37.
 13. Jindal, L., Sharma, A., Prasad, K. D. V., Irshad, A., Rivera, R., & Karimovna, A.
 14. D. (2023). A machine learning method for predicting disease-associated microRNA connections using network internal topology data. Healthcare Analytics, 100215.
 15. Atakhanovna, Y. G., & Azada, A. (2021, May). FEATURES OF THE USE OF MIXED EDUCATION IN UZBEK LANGUAGE CLASSES. In E-Conference
 16. Globe (pp. 77-80).
 17. Abdurakhimova, P. D. THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF BANKING INNOVATIONS'IMPACT ON ECONOMIC DEVELOPMENT OF COUNTRIES.



Active Directory Domain Services (AD DS) arxitekturasi va zamonaviy boshqaruv usullari

Nazirkulov Jamoldin Davlatjon o'g'li

Farg'ona davlat texnika universiteti o'qituvchisi

Mansurova Ozodaxon Maxamatjon qizi

Farg'ona davlat texnika universiteti 4-bosqich talabasi

e-mail: omansurova84@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Active Directory Domain Services (AD DS) tizimining asosiy arxitekturasi, uning komponentlari va zamonaviy boshqaruv tamoyillari yoritiladi. AD DS korporativ tarmoqlarda identifikatsiya, autentifikatsiya va resurslarga kirishni markazlashgan tarzda boshqarish imkonini beruvchi muhim xizmatdir. Maqolada domenlar tuzilmasi, katalog xizmatlarining ishlash mexanizmlari, Group Policy orqali boshqaruv, shuningdek, xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan yangi yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Active Directory, AD DS, domen, katalog xizmatlari, Group Policy, autentifikatsiya, tarmoq boshqaruvi, xavfsizlik.

Аннотация: В статье рассматривается архитектура и ключевые функции Active Directory Domain Services (AD DS), а также современные подходы к управлению корпоративными сетями на основе каталожных служб. AD DS обеспечивает централизованное управление учетными записями пользователей, проверкой подлинности и доступом к сетевым ресурсам. В работе раскрываются структура доменов, принципы функционирования каталогов, использование групповых политик и актуальные методы усиления безопасности инфраструктуры.

Ключевые слова: Active Directory, AD DS, домен, каталожные службы, групповая политика, аутентификация, управление сетью, безопасность.

Abstract: This article explores the architecture and core functionalities of Active Directory Domain Services (AD DS), focusing on its role in centralized identity and access management within enterprise networks. AD DS enables secure authentication, authorization, and the unified administration of network resources. The paper provides an overview of domain structures, directory service operations, Group Policy-based management methods, and modern approaches to enhancing infrastructure security.

Keywords: Active Directory, AD DS, domain, directory services, Group Policy, authentication, network administration, security.

Kirish. Katta hajmdagi korporativ tarmoqlar rivojlanishi bilan foydalanuvchilar, qurilmalar va resurslar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yagona



markazdan boshqarish zarurati kuchaydi. Ana shunday ehtiyojlarni qondirishda Active Directory Domain Services (AD DS) tizimi muhim o'rin tutadi. AD DS - bu Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan katalog xizmatlari majmuasi bo'lib, u tashkilot infratuzilmasida identifikatsiya, autentifikatsiya va avtorizatsiya jarayonlarini tartibga solishga xizmat qiladi. Ushbu tizim nafaqat domenlar tuzilmasini yaratish, balki foydalanuvchilar, guruhlar, kompyuterlar va boshqa tarmoq obyektlarini yagona katalogda boshqarish imkonini beradi.

Bugungi kunda zamonaviy tashkilotlarda axborot xavfsizligi talablarining ortib borishi, tarmoqlar murakkablashuvi va masofaviy xizmatlardan keng foydalanish AD DS boshqaruvini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Shuning uchun AD DS arxitekturasi, uning asosiy komponentlari va boshqaruv mexanizmlarini chuqur o'rganish korporativ IT tizimlarining barqaror ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqola AD DSning asosiy tamoyillari, Group Policy imkoniyatlari, xavfsizlik choralarini kuchaytirish usullari hamda ushbu xizmatni samarali boshqarishga oid zamonaviy yondashuvlarni tahlil qiladi.

Active Directory Domain Services (AD DS) korporativ tarmoqlarni boshqarishda eng ishonchli va ko'p funksiyali katalog xizmatlaridan biri hisoblanadi. Uning arxitekturasi ierarxik tuzilishga asoslanib, barcha tarmoq obyektlarini yagona boshqaruv nuqtasi ostida jamlaydi. Domen, o'rmon, tashkilot bo'linmalari kabi qatlamlar yordamida AD DS yirik infratuzilmaning tartibli, moslashuvchan va kengaytiriladigan ko'rinishda bo'lishini ta'minlaydi. Har bir komponent o'z vazifasiga ega bo'lib, bu tizimning ham xavfsizlik, ham boshqaruv nuqtai nazaridan yuqori samaradorlikka erishishiga xizmat qiladi.

AD DSning eng asosiy elementlaridan biri bu - **domen**. Domen ichida barcha foydalanuvchilar va kompyuterlar yagona siyosat asosida boshqariladi. Domenlar o'zaro ishonch munosabatlari orqali bog'lanib, katta korporatsiyalar uchun murakkab infratuzilma yaratishga imkon beradi. Domenlarni boshqaruvchi domain controller (DC) serverlari esa katalogdagi barcha o'zgarishlarni sinxronlash orqali barqaror ishlashni ta'minlaydi. DCarning ko'pligi va ularning replikatsiya mexanizmlari tizimni ishonchli qiladi.

Active Directory infratuzilmasining yana bir muhim qismi bu - **Organizational Units (OU)**. Oular virtual bo'linmalar bo'lib, ular foydalanuvchilar yoki qurilmalarni mantiqan guruhlash, ularni alohida boshqaruv ostiga olish imkonini beradi. Ushbu mexanizm yordamida yirik tashkilotning bo'limlari - masalan, buxgalteriya, kadrlar bo'limi yoki IT bo'limi - uchun alohida siyosatlar o'rnatish osonlashadi. Natijada, AD DS moslashuvchan, decentralizatsiyalashgan boshqaruvni qo'llab-quvvatlaydi.



AD DSni samarali boshqarishda **Group Policy** alohida ahamiyat kasb etadi. Group Policy yordamida kompyuterlar va foydalanuvchi muhitiga tegishli minglab parametrlar markazlashgan holda boshqariladi. Masalan, xavfsizlik siyosatlari, dastur o'rnatish qoidalari, tarmoq konfiguratsiyalari yoki ishchi stoldagi sozlamalar barchasi GPO orqali boshqariladi. Bu esa administratorlarga tarmoqdagi barcha qurilmalarni yagona siyosat asosida tartibga solishga yordam beradi.

AD DSning zamonaviy boshqaruvi nafaqat standart vositalarga, balki avtomatlashtirilgan yechimlarga ham tayangan. PowerShell bu borada eng qulay vositalardan biri bo'lib, u yordamida foydalanuvchilarni yaratish, GPOlarni boshqarish, replikatsiyani tekshirish yoki diagnostika qilish kabi jarayonlar tez va aniq bajariladi. Avtomatlashtirish yirik tarmoqlarda inson xatosi ehtimolini kamaytiradi va tizimning boshqaruv samaradorligini sezilarli oshiradi.

Kiberxavfsizlik talablari kuchayib borayotgan bugungi davrda AD DSni himoyalash masalasi eng ustuvor yo'nalishlardan sanaladi. Kerberos autentifikatsiyasi, ikki bosqichli ruxsatlash, audit loglari orqali monitoring qilish va ro'yxatga olinmagan qurilmalarni bloklash kabi choralar AD DS xavfsizligini mustahkamlaydi. Domen kontrollerlarini ajratilgan tarmoq segmentlarida saqlash va ularni yirik korporatsiyalarda Zero Trust yondashuvi orqali himoyalash ham zamonaviy talablar qatoriga kiradi.

AD DSning rivojlanishida bulut texnologiyalari ham asosiy o'rinni egallay boshladi. Mahalliy infratuzilmani Microsoft Azure bilan bog'lash orqali hibrid arxitektura yaratish, Azure AD Connect yordamida sinxronlash, masofaviy foydalanuvchilarni boshqarish kabi imkoniyatlar tashkilotlar uchun yangi qulayliklar yaratmoqda. Bulut bilan integratsiya AD DSning an'anaviy imkoniyatlarini kengaytirib, uni yanada moslashuvchan va global infratuzilmalar uchun tayyor holga keltiradi.

AD DSning samarali ishlashi va rivojlanishi uchun replikatsiya, ma'lumotlarni zaxiralash va tiklash mexanizmlari ham muhim ahamiyatga ega. Har bir domain controller (DC) muntazam ravishda katalogdagi o'zgarishlarni boshqa DClar bilan sinxronlaydi, bu esa tarmoqdagi barcha foydalanuvchilar va qurilmalar uchun barqaror va moslashtirilgan muhitni ta'minlaydi. Shu bilan birga, malumotlarning avtomatik zaxiralari va nuqtai nazardan tiklash imkoniyati (disaster recovery) AD DSning yuqori ishonchliligini kafolatlaydi. Yirik korporatsiyalar uchun bu juda muhim bo'lib, tizimning ishlamay qolishi va ma'lumot yo'qotilishi natijasidagi xavfni minimallashtiradi.

Zamonaviy tarmoqlarda AD DSni himoya qilish faqat ichki choralar bilan cheklanmaydi, u kiberxavfsizlikning zamonaviy yondashuvlariga ham



moslashtirilgan bo'lishi kerak. Masalan, **Conditional Access**, **Privileged Access Management (PAM)** va **Just-In-Time (JIT)** admin ruxsatlari kabi funksiyalar AD DS infratuzilmasini yanada xavfsiz qiladi. Ushbu yondashuvlar orqali administratorlarga faqat zarur vaqt va zarur resurslar uchun kengaytirilgan ruxsatlar beriladi, bu esa noto'g'ri ishlov berish yoki kiberhujum natijasida zarar ko'rish xavfini kamaytiradi.

Shuningdek, AD DSni monitoring qilish va diagnostika qilishni avtomatlashtirishning dolzarbligi oshmoqda. Microsoft Sentinel yoki boshqa **SIEM (Security Information and Event Management)** tizimlari bilan integratsiya AD DS faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish va xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, foydalanuvchi hisoblarida g'ayrioddiy faoliyat, parol o'zgartirish urinishlari yoki domain controllerlarda shubhali trafikni avtomatik aniqlash va ogohlantirishlar yaratish mumkin. Bu esa korporativ tarmoqlarni kiberxavfsizlik tahdidlaridan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda AD DSning rivojlanishi bulut integratsiyasi bilan chambarchas bog'liq. Hibrid infratuzilma orqali mahalliy Active Directory va Azure Active Directory (Azure AD)ni birlashtirish korporatsiyalarga ko'plab qulayliklar yaratadi. Masofaviy foydalanuvchilarni boshqarish, avtomatik sinxronizatsiya, bulutdagi ilovalarga yagona identifikatsiya bilan kirish (Single Sign-On, SSO) va mobil qurilmalarni boshqarish imkoniyatlari tashkilotlarni global tarmoqlarga moslashtiradi. Shu bilan birga, hibrid yondashuv xavfsizlik, monitoring va siyosatlarni yagona nuqtadan boshqarish imkonini beradi.

AD DSning so'nggi yillarda rivojlanayotgan yana bir yo'nalishi bu - **Zero Trust arxitekturasi** bilan integratsiyalashuvdir. Zero Trust modeli asosida, tarmoq ichidagi barcha kirishlar avtomatik ravishda tekshiriladi va har bir foydalanuvchi hamda qurilma har doim identifikatsiya qilinadi. Shu tarzda, hatto ichki tarmoqdagi resurslar ham himoyalanaadi va ruxsatsiz kirishlarning oldi olinadi. AD DS bu modelni qo'llab-quvvatlash uchun Conditional Access, MFA (Multi-Factor Authentication) va Continuous Monitoring funksiyalarini kengaytirilgan holda taqdim etadi.

Yana bir dolzarb yo'nalish - AD DS va AI (sun'iy intellekt) yordami bilan xavfsizlik va boshqaruvni optimallashtirishdir. Masalan, foydalanuvchi xatti-harakatlarini o'rganish va tahdidlarni aniqlash uchun AI algoritmlari ishlatiladi. Bu tizim avtomatik ogohlantirishlar berishi, shubhali harakatlarni bloklashi va hatto ruxsatlarni vaqtinchalik cheklashi mumkin. Shu bilan birga, AI yordamida katalogdagi ortiqcha yoki keraksiz foydalanuvchi hisoblarini aniqlash va tozalash jarayoni avtomatlashtiriladi, bu esa boshqaruv samaradorligini oshiradi.



Shu bilan birga, AD DSni kengaytirish va modernizatsiya qilish jarayonida turli auditorlar va siyosatlarni boshqarish qobiliyati ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ma'lumotlar maxfiyligi talablariga javob berish uchun foydalanuvchi guruhlarini mantiqan ajratish, audit loglarini saqlash va nazorat qilish AD DS orqali amalga oshiriladi. Tashkilotlar GDPR, HIPAA yoki boshqa mahalliy va xalqaro standartlarga mos kelishi uchun katalog xizmatlarida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash zarur.

Xulosa. Active Directory Domain Services (AD DS) korporativ tarmoqlarni markazlashgan tartibda boshqarish, foydalanuvchilarni identifikatsiya qilish va resurslarga xavfsiz kirishni ta'minlashda eng ishonchli texnologiyalardan biridir. Uning domen, OU, Group Policy kabi arxitektura elementlari yirik infratuzilmalarda tizimli va tartibli boshqaruvni shakllantiradi. Zamonaviy talablarga mos ravishda PowerShell orqali avtomatlashtirish, xavfsizlik siyosatlarini kuchaytirish va bulut xizmatlari bilan integratsiya AD DSning samaradorligini yanada oshiradi. Umuman olganda, AD DSni to'g'ri loyihalash va boshqarish tashkilotning axborot tizimlari barqarorligi hamda xavfsizligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev, A., & Ahmedov, R. Kompyuter tarmoqlari va tizimlarini boshqarish. Toshkent: TATU nashriyoti, 2021.
2. Minasi, J. Mastering Windows Server 2019. Wiley Publishing, 2020.
3. Karimov, Sh. "Windows Server asoslari va tarmoq boshqaruvi texnologiyalari." Axborot tizimlari va texnologiyalari jurnali, 2022.
4. Stanek, W. Active Directory Administration Cookbook. O'Reilly Media, 2019.
5. TATU O'quv qo'llanmasi. Operatsion tizimlar va tarmoq xizmatlari. Toshkent, 2020.
6. Microsoft Corporation. Active Directory Domain Services Overview. Microsoft Docs, 2022.
7. Bovet, S., & Burton, T. Understanding Active Directory: Architecture and Management. TechPress, 2021.

**AMERIKA PREZIDENTLARI NUTQIDA KIRISH SO'ZLARNING O'ZBEK
TILIGA TARJIMA QILINISHI****Kenjayeva Gulbadanbegim Alibek qizi**

O'qituvchi stajor, Xorijiy filologiya fakulteti,

Abu Rayhon al Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti

E-mail: gulbadambegimkenjayeva@gmail.com

Annotatsiya. Siyosiy diskursning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritishdan avval biz siyosiy diskurs atamasiga ta'rif berishimiz lozim. Bunday ta'riflar jamiyatning turli sohalarida turli shakllarda keltirib o'tilganiga qaramasdan, eng to'liq va mukammalroq ta'riflarni har doimgidek tilshunoslar bayon etishadi va ushbu tezis shu ta'riflarni tahlil qilib beradi.

Siyosiy nutqni tahlil qilayotganimizda, avvalambor uning o'rganish ob'ektini to'g'ri aniqlay olishimiz zarur. "Siyosiy nutq" aynan nima? Bu borada barchaning hayoliga eng oson va umumiy holatda bir fikr keladi. Siyosiy nutq mualliflar ya'ni siyosatchilar tomonidan ijro etiladi yoki ularning nutqlari siyosiy diskurs sifatida belgilanadi. Darhaqiqat, siyosiy tadqiqotlarning katta qismi professional siyosatchilar yoki siyosatchilarning matnlarini o'z ichiga qamrab oladi, Prezident, bosh vazirlar va hukumatning boshqa a'zolari, parlament yoki siyosiy partiyalar, ham mahalliy, ham milliy va xalqaro darajadagi boshqaruv organlariga tegishli bo'lgan nutq shakllariga tayangan holda olib boriladi. Dunyoning ko'plab rivojlangan malakatlarida, xususan, AQSHda, prezidentlik ritorikasini o'rganish uchun tahliliy nutq yondashuviga asoslanib ilmiy ishlanishlar juda ko'p olib boriladi. (masalan, Kempbell va Jeymison 1990; Hart 1984; Snayder va Xiggins 1990; Stuckey 1989; Tompson 1987e; Windt 1983, 1990). Shu o'rinda siyosiy maydon markazining o'yinchilari bo'lgan siyosatchilar guruhi ham siyosiy diskurs tahliliga oid tadqiqotlarning nishoniga aylanishadi. Siyosiy nutqni aniqlashning bu usuli tibbiyot, huquq yoki ta'lim sohalariga tegishli ishtirokchilar bilan tibbiy, huquqiy yoki tarbiyaviy nutqni aniqlashdan deyarli farq qilmaydi. Biroq, siyosatshunoslik, va boshqa siyosiy amaliyotlarda siyosatchilar sohaning aktyorlari va mualliflari sifatida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lsa-da, ular siyosiy diskurs tahlilining yagona ishtirokchilari emas. Shuning uchun o'zaro ta'sir nuqtai nazaridan nutq tahlilini olib borayotganimizda, jamoatchilik, xalq, fuqarolar, kabi siyosiy kommunikativ hodisalar "omma" va boshqa guruhlar yoki toifalar kabilarni ham siyosiy nutqning tinglovchilari va qabul qiluvchilari sifatida tadqiqotlarga kiritishimiz kerak. Ya'ni, siyosiy muloqotning ko'plab ishtirokchilari sahnada paydo bo'ladi.

Shubhasiz, xuddi shu narsa media nutq sohasining ta'rifi uchun ham amal qiladi, bu masalada ham o'z auditoriyasiga e'tibor qaratishi kerak va shuningdek, tibbiy, yuridik yoki ta'lim nutqi deganda biz nafaqat shifokorlar, huquqshunoslar, o'qituvchilar kabi ishtirokchilar haqida o'ylashimiz, balki bemorlar, sudlanuvchilar va talabalarni ham ushbu nutq jarayoning qatnashchilari sifatida



qamrab olishimiz darkor. Demak, siyosiy munozaralarni tadqiq etish jarayonida uning asosiy mualliflari delimitatsiyaga olinishi kuzatilganda, qolgan barcha tegishli ishtirokchilarini siyosiy nutqda faol ishtirok etishlari yoki shunchaki qabul qiluvchi sifatida bir tomonlama aloqa usullaridan foydalanishlaridan qat'iy nazar qamrab olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Siyosiy nutqni so'zlovchilar tomonidan boshqalarga ta'sir qilish yoki ishontirish maqsadida aniq ma'no berishga harakat qiladigan kommunikativ harakat sifatida aniqlash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy nutqni mafkuraviy maqsadlarga xizmat qiluvchi lingvistik strategiya - manipulyatsiya sifatida aniqlash mumkin. Siyosiy nutq rasmiy munozaralarni yoki tinglovchilar va oila a'zolari o'rtasida siyosat bo'yicha olib borilgan norasmiy nutq munozaralarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Siyosiy nutq mohiyatan shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning butun majmuasining ifodasidir va shuning uchun bu hodisa mohiyatan funksional jihatdan qabul qiluvchilar o'rtasida dunyoqarash yoki dunyo tasvirining ma'lum bir bo'lagini shakllantirishga qaratilgan. Siyosiy nutqdan tayanch tosh sifatida foydalanib, turli til jamoalarida madaniy qadriyatlar qanday modellashtirilganligini, ijtimoiy tartib qanday targ'ib qilinishini, dunyoning lingvistik tasvirining qaysi elementlari ma'ruzachilarning ongli nutq strategiyalaridan tashqarida qolayotganini tushunish mumkin. Har bir til ham jamiyatiga xos bo'lgan dunyoning konseptual tasviri shakllantiradi. Siyosiy matnda ekstralingvistik ma'lumotlar (dunyo tasviri) va belgi ma'lumotlari (belgi, nominatsiya orqali taqdim etilgan dunyo tasviri) mavjud.

Siyosiy nutq nafaqat voqelik bilan bog'liq bo'lgan ma'noga ega, balki ma'lum bir guruh yoki odamlar guruhlari bilan sub'ektiv ravishda bog'langan muhim "bog'lanish" ga ham ega. Muloqotning turli sub'ektlari nutqda turli yo'llar bilan namoyon bo'ladi: kommunikativ shakllar ularning mazmunini yaratadi.

Siyosiy nutqning muhim ma'lumotlarini tahlil qilish - bu kommunikativnominativ tahlil: kim muloqot qiladi va u qanday muloqot qiladi. Siyosiy nutq yuzlarda taqdim etiladi. Yuz matn bilan birlashadi, lekin ayni paytda bu matnning o'zi. Ushbu "qatlam" yoki tarkibni aralashtirish yangi tarkibni keltirib chiqaradi. Natijada, muallif turli odamlar tomonidan aytilgan bir xil matn turli matnlarga "ajraladi" degan xulosaga keladi: ular auditoriya tomonidan turlicha dekodlanadi, tuziladi, tasniflanadi va turlicha tartiblanadi. Ular ijtimoiy o'zaro ta'sirning boshqacha tasvirini beradi

I.F.Uxvanova-Shmygovaning so'zlariga ko'ra, siyosiy nutqning semantik-asosiy tadqiqotlari umuman zamonaviy nutq haqida ham, xususan, siyosiy nutq haqida ham muhim material berishi mumkin. Jamiyat rivojlanishining ushbu bosqichida siyosiy nutqqa xos bo'lgan belgilarni aniqlash, shuningdek, siyosiy nutqning tarixiy va milliy-o'ziga xos xususiyatlarini, ma'lum uslublar, turlar, shakllarning uzluksizligi yoki uzluksizligini aniqlash kerak.



Siyosiy matn turli manfaatlar va strategiyalarning to'qnashuvi, natijada paydo bo'lgan g'oyalar, ixtiyoriy harakatlar va siyosiy sub'ektlarning nutqlari mahsulidir.

Siyosiy matn o'zining barcha ko'rinishlarida og'zakilashtirilgan siyosiy faoliyatdir: ham belgili/ramziy (normativ va akkumulyativ faoliyat), ham belgisiz (ijro etuvchi matnlar). Bu tushuncha tilda va til vositasida amalga oshiriladigan siyosiy faoliyatning mavzu doirasi va uslub xususiyatlarini qamrab oladi. Siyosiy nutq bu jamiyatning siyosiy nutqlari majmui: mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimini mustahkamlovchi yoki uni beqarorlashtiradigan hokimiyat nutqi, kontr-diskurs, ommaviy ritorika hisoblanadi. Siyosiy rahbarlarning nutqlarini zamonaviy o'rganish ikkita usul bilan ifodalanadi:

1. Nutq tahlili
2. Semiotik tahlil

Sheygal E.I.ning fikriga ko'ra, "siyosiy" nutq uchun kommunikativ harakatlarning barcha turlaridan eng xarakterlisi bo'lib, bu turli xil etno-maxsus uslub-harakatlarda namoyon bo'ladigan qasddan "ishontirish" harakatidir. Ushbu etnik-madaniy uslublar ikki turdagi stereotiplarning murakkab o'zaro bog'liqligi natijasida yaratilgan: tilning semantik afzalliklari bilan bog'liq lingvistik va jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor normalari va qadriyat mezonlari bilan bog'liq. Ishontirish, agar u jamoada o'rnatilgan xatti-harakatlar va munosabatlarni aks ettiruvchi tamoyillar asosida amalga oshirilsa samarali bo'ladi.

Siyosiy nutq bizning muloqotimizning muhim qismini tashkil qiladi va fikrni himoya qilish, fikrni asoslash yoki rad etish yoki tinglovchilarning ma'qullashini olish uchun yuqori darajadagi argumentlarga ega. Siyosiy nutqda ko'pincha leksik va stilistik vositalar qo'llaniladi, bu ularning katta argumentativ salohiyati, katta obrazlilik bilan izohlanadi, chunki bu matnlar ommaviy nutq uchun mo'ljallangan va tinglovchining diqqatini darhol jalb qilish, uning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish uchun mo'ljallangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babaeva R.I. Non-significant vocabulary in German everyday discourse (Pragmatic aspect): Author. Sciences. 67p, 2008.
2. Belchikov Yu.A. On the role of the media in the process of democratization of the Russian literary language // Bulletin of electronic and printed media. 32p, 2004.
3. Introduction to political science: dictionary-reference book / ed. V.P. Pugachev. Moscow: Aspect Press, 145p, 1996.
4. Vishnevskaya G.M., Likhareva I.P. On the connecting elements of discourse in oral text // Phonetic variability: Bilingualism and diglossia. Interuniversity. Sat. scientific works / otv. ed. Ph.D. G.M. Vishnevskaya. Ivanovo: IvGU, 74-79p, 2000,

**MEVA VA SABZAVOTLARNI SAQLASH USULLARI****Musirmanova Xojar Shuhrat qizi, Tursunova Mushtariy Xasan qizi,****Nosirova Lola Baxtiyor qizi – JizPI talabasi****Norqulova Zohida Tashbayevna – dotsent, JizPI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada meva va sabzavotlarni uzoq muddat sifatli saqlagan holda saqlashning an'anaviy va zamonaviy texnologiyalari keltirib o'tilgan. Saqlash usullarining afzalliklari, kamchiliklari, qo'llash shartlari va amaliy samaradorligi ilmiy asoslangan holda yoritilgan.

Аннотация: В данной статье представлены традиционные и современные технологии длительного хранения фруктов и овощей с сохранением их качества. Научно обоснованы преимущества, недостатки, условия применения и практическая эффективность методов хранения.

Abstract: This article presents traditional and modern technologies for long-term storage of fruits and vegetables while maintaining their quality. The advantages, disadvantages, conditions of use, and practical effectiveness of these storage methods are scientifically substantiated.

Kalit so'zlari: past harorat, sovutgichli va muzlatgichli saqlash, metabolik faollik, fermentativ reaksiyalar, vakumli saqlash, ozon va ultratovush texnologiyalari.

Ключевые слова: низкая температура, хранение в холодильниках и морозильных камерах, метаболическая активность, ферментативные реакции, вакуумное хранение, технологии озонирования и ультразвука.

Key words: low temperature, storage in refrigerators and freezers, metabolic activity, enzymatic reactions, vacuum storage, ozonation and ultrasound technology.

Meva va sabzavotlar insonning ratsionidagi eng muhim oziq-ovqat mahsulotlaridan hisoblanadi. Ular tabiiy vitaminlar, minerallar, tolalar va antioksidantlar manbai bo'lib, sog'lom ovqatlanishning asosi hisoblanadi. Biroq, meva va sabzavotlar yangi yig'ib olinganidan keyin ham tez buzilish xususiyatiga ega bo'ladi. Bu ularning tarkibidagi suv, tabiiy shakarlar va ozuqaviy moddalarning mikroorganizmlar hamda fermentlar ta'sirida osonlik bilan o'zgargani bilan bog'liq.

Shuning uchun meva va sabzavotlarni sifatli saqlash uchun turli saqlash usullari qo'llaniladi. Saqlash usullari mahsulotning yangi ko'rinishi, ta'mi, oziqaviy qiymati va xavfsizligini uzoq muddat davomida saqlashga erishiladi. Zamonaviy texnologiyalar va an'anaviy usullar birgalikda qo'llanilib, mahsulotlarni uzoq masofalarga yetkazish va iste'molchilarga sifatli mahsulot yetkazish imkonini beradi.



An'anaviy saqlash usullari.

An'anaviy saqlash usullari meva va sabzavotlarni tabiiy sharoitlarda saqlashga asoslangan bo'lib, odatda uy sharoitida ham qo'llaniladi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Sovutgichlarda saqlash – bu eng keng tarqalgan usullardan biri bo'lib, meva va sabzavotlarni past haroratda ushlab turish orqali ularning pishish jarayonini sekinlashtirish hamda buzilishini oldini olish usulidir. Bu usul uy sharoitida ham, sanoat miqyosida ham keng qo'llaniladi. Sovutgichda saqlashning samaradorligi mahsulot turiga, saqlash haroratiga, namlik darajasiga va havo aylanishiga bog'liq.

Quruq va salqin joyda saqlash – meva va sabzavotlarni tabiiy sharoitlarda, past harorat va mo'tadil namlikda saqlashga asoslangan an'anaviy usuldir. Ushbu usul asosan ildizmevalar va po'stlog'i qalin bo'lgan mahsulotlar uchun qo'llaniladi. Saqlash jarayonida mahsulotlarning nafas olishi sekinlashadi, fermentativ jarayonlar kamayadi va mikroorganizmlar faoliyati cheklanadi.

Tuzli eritmalarda saqlash – meva va sabzavotlarni saqlashning eng qadimiy va ishonchli usullaridan biri bo'lib, mahsulot tarkibidagi suv faolligini kamaytirish va mikroorganizmlar rivojlanishini cheklashga asoslanadi. Ushbu usul asosan sabzavotlar uchun qo'llaniladi va mahsulotni uzoq muddat saqlash imkonini beradi.

Konservalash – meva va sabzavotlarni yuqori harorat ta'siri orqali mikroorganizmlarni yo'q qilish hamda mahsulotni havo bilan aloqadan ajratish asosida saqlash usulidir. Ushbu texnologiya oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq muddat saqlash va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

An'anaviy usullar mahsulotlarning tabiiy ta'mini saqlashga yordam beradi, lekin saqlash muddati cheklangan bo'ladi.

2. Zamonaviy saqlash texnologiyalari.

Zamonaviy texnologiyalar mahsulotlarning sifatini uzoq vaqt davomida saqlash imkonini beradi va ularni uzoq masofalarga yetkazishga yordam beradi.

Sovutgichli va muzlatgichli texnologiyalar – Sovutgichli va muzlatgichli texnologiyalar meva va sabzavotlarni past, juda past haroratda saqlash orqali ularning metabolik faolligini keskin kamaytirishga asoslangan. Ushbu texnologiyalar mahsulotlarning yangi holatini, oziqaviy qiymatini va mikrobiologik xavfsizligini uzoq muddat davomida saqlash imkonini beradi.

Sovutgichli saqlashda (Refrigeration) mahsulotlarni 0...+5°C haroratda saqlanadi. Bu haroratda nafas olish intensivligi pasayadi, fermentativ reaksiyalar sekinlashadi, mikroorganizmlar rivoji cheklanadi hamda etilen ajralishi kamayadi. Buning natijasida mahsulotning tashqi ko'rinishi va ta'mi,



vitaminlar (ayniqsa A va C) nisbatan yaxshi saqlanadi hamda energiya sarfi muzlatishga nisbatan kamroq sarflanadi.

Atmosfera nazorati (controlled/modified atmosphere storage) – meva va sabzavotlarni saqlash jarayonida ularni o‘rab turgan havo tarkibini boshqarish orqali mahsulotning nafas olishini, pishishini va buzilishini sekinlashtirishga asoslangan zamonaviy texnologiyadir. Bu usul sovutgichli saqlash bilan birgalikda qo‘llanilib, saqlash samaradorligini bir necha barobarga oshiradi.

Vakumli saqlash – meva va sabzavotlarni maxsus qadoqlash orqali idish yoki paket ichidagi havoni (asosan kislorodni) chiqarib tashlash va mahsulotni havo bilan aloqadan maksimal darajada ajratish asosida saqlash usulidir. Ushbu texnologiya oksidlanish jarayonlarini, mikroorganizmlar rivojlanishini va namlik yo‘qotilishini sezilarli darajada kamaytiradi.

Vakumli saqlash usulida meva va sabzavotlarni saqlashda samarali, zamonaviy usul bo‘lib, ayniqsa tozalangan va kesilgan mahsulotlar uchun juda qulay hisoblanadi. Biroq bu usul faqat sovutgich bilan birgalikda va gigiyena qoidalariga qat‘iy rioya qilinganda xavfsiz hisoblanadi.

Kimyoviy va tabiiy konservantlar qo‘llash – meva va sabzavotlarning saqlash muddatini uzaytirish, mikroorganizmlar rivojlanishini cheklash hamda mahsulotning sifatini saqlab qolish maqsadida qo‘llaniladigan moddalar hisoblanadi. Ular mahsulotning buzilishiga sabab bo‘luvchi bakteriyalar, mog‘or va xamirturushlarning faolligini pasaytiradi.

UV, ozon va ultratovush texnologiyalari – meva va sabzavotlarni saqlashda noan‘anaviy, kimyoviy moddalar qo‘llanilmaydigan zamonaviy usullar hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar mahsulot yuzasidagi mikroorganizmlarni kamaytirish, chirish jarayonini sekinlashtirish hamda saqlash muddatini uzaytirishga olib keladi.

3. Saqlash jarayonida sifatni saqlashning asosiy prinsiplari

Meva va sabzavotlarni sifatli saqlash uchun quyidagi prinsiplarga e‘tibor berish zarur:

Haroratni nazorat qilish – har bir turdagi mahsulot uchun optimal haroratni saqlash kerak.

Namlikni nazorat qilish – ortiqcha namlik chirish va mog‘or hosil bo‘lishiga olib keladi, kam namlik esa mahsulotning qurishini tezlashtiradi.

Havo aylanishi – mahsulotlar orasida havo almashinuvi bo‘lishi kerak, bu mikroorganizmlar ko‘payishini kamaytiradi.

Toza muhit – saqlash xonasi va idishlar toza bo‘lishi, bakteriyalar, mog‘or paydo bo‘lishining oldini oladi.

Mahsulotni tartib bilan saqlash – pishgan va pishmagan mahsulotlarni alohida saqlash kerak.



Xulosa qilib aytganda, meva va sabzavotlarni sifatli saqlash inson sog'lig'i va oziq-ovqat xavfsizligi uchun muhimdir. An'anaviy va zamonaviy saqlash usullari birgalikda qo'llanilib, mahsulotlarning oziqaviy qiymatini, yangi ko'rinishi va ta'mini uzoq vaqt saqlash imkonini beradi. Meva va sabzavotlarni to'g'ri saqlash orqali ularni nafaqat tez buzilishidan himoya qilish, balki ularni uzoq masofalarga yetkazish va iste'molchilarga sifatli mahsulot taqdim etish ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibragimov O., Egamberdiev S. Meva va sabzavotlarni saqlash texnologiyasi. Farg'ona, 2001. – O'quv materiallari to'plami.
2. M. G. Vasiyev, Q. O. Dadayev, I. B. Isaboyev va boshqalar. Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari. Toshkent, 2012.
3. S. T. Yusupov. Meva-sabzavotlarni saqlash va qayta ishlashning zamonaviy usullari. Toshkent, 2018.

**Pedagogik nazorat va baholash.****Nurmatova Gulmirabonu Nurali qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim va Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi yo'nalishi 23-02-guruh 3-bosqich talabasi .

Xolova Mohigul Shavkatovna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limda pedagogik nazorat va baholashning o'рни va pedagogik nazorat turlari hamda baholashning zamonaviy usullari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik nazorat, baholash, diagnostik nazorat, oraliq nazorat, joriy nazorat, monitoring nazorat, reyting tizimi, test sinovlari.

Bugungi kunda ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – pedagogik nazorat va baholashdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va baholashni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab berishi lozim.

Pedagogik nazorat- bu umumiy o'rta ta'limda tahsil oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini muntazam aniqlab borish, ularning rivojlanishini kuzatish va zarur hollarda tuzatishlar kiritish jarayonidir.

Nazoratning maqsadi:

. O'quvchilarning kamchilik va yutuqlarini aniqlash;

. O'quvchilar dars jarayonini tahlil qilishga o'rgatish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik tekshirish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Ya'ni:

1. O'quvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli.

2. Har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi alohida olingan muayyan vaziyatni o'rganishdir. Bunday tekshirish shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv materialini mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga muvofiq belgilanadi.

3. Oraliq tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish. O'quvchilarning o'quv materialining muayyan bob yoki bo'limlari bo'yicha o'zlashtirgan bilim,



ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'zlashtirilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarning mustahkamlik darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Tashxisning boshqa shakl va metodlari bilan birga qo'llanilsagina ushbu tekshirish kutilgan samarani beradi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkichlari ko'proq ballar yoki foizlarda. Sifat ko'rsatkichlari esa a'lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ma'lum ball, ko'rsatkich (masalan, o'rin - 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlanadi. Baholashning zamonaviy usullari orasida formativen baholash, o'z-o'zini baholash, o'zaro baholash va portfoliolar asosida baholash usullari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Formativen baholash o'quvchilarning rivojlanishini doimiy ravishda kuzatib borish va ularning o'quv jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qiladi. O'z-o'zini baholash orqali esa o'quvchilar o'z bilim darajasini mustaqil ravishda tahlil qilish va xatolar ustida ishlash imkoniga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, loyihaviy ishlarga asoslangan baholash tizimi o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullari ta'lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. Shakllantiruvchi baholash, o'z-o'zini baholash, peer-baholash va ko'p o'lchovli baholash kabi yondashuvlar o'quvchilarning bilimini va ko'nikmalarini chuqurroq tahlil qilishga imkon yaratadi. Ushbu usullar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning ijodiy va kognitiv rivojlanishiga ko'maklashadi, shuningdek, o'rganish jarayonidagi individual xususiyatlarni hisobga olishga imkon beradi. Shu bilan birga, zamonaviy baholash tizimlari o'qituvchilarga o'quvchilarning rivojlanishini doimiy ravishda kuzatish va kerakli tuzatishlar kiritish imkoniyatini beradi. Biroq, bu yondashuvlarni samarali qo'llash uchun o'qituvchilar va ta'lim tizimining to'g'ri tayyorlanishi, vaqt va resurslarni to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga ega. Natijada, zamonaviy baholash metodlari ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlash va ta'lim tizimining yanada modernizatsiya qilinishini ta'minlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar: 1. Torrance, H., & Pryor, J. (2001). Developing formative assessment in the classroom: Using action research to expand teaching and learning. *British Educational Research Journal*, 27(5), 615-631.



2. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. Pearson Education.
3. Hargreaves, E. (2005). Assessment for learning and teaching. London: Continuum.
4. Mahmudjanovna, Yahyokhonova Muhiba. "Increasing the Effectiveness of the Learning Process for the Use of Information and Communication Technologies." *Academicia Globe* 2.04





**KOMPYUTER TARMOQLARI ORQALI MAHALLIY BOSHQARUV
ORGANLARI O'RTASIDAGI O'ZARO AXBOROT ALMASHUV TIZIMI**

Mansurova Ozodaxon Maxamatjon qizi

Farg'ona davlat texnika universiteti

Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi 4-bosqich 55-22 guruh talabasi,

Karimov Jasurbek Xasanboyevich

Farg'ona davlat texnika universiteti

zasurk07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy davlat boshqaruv organlari faoliyatida kompyuter tarmoqlarining ahamiyati va ular orqali amalga oshiriladigan axborot almashish tizimi yoritilgan. Maqolada davlat xizmatlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va boshqaruv samaradorligini oshirishda kompyuter tarmoqlarining o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, elektron hukumat tizimining rivojlanishida tarmoq texnologiyalarining roli ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kompyuter tarmoqlari, mahalliy boshqaruv, axborot almashinuvi, elektron hukumat, ma'lumotlar bazasi, axborot xavfsizligi.

Kirish. Bugungi davrda inson faoliyatining deyarli barcha yo'nalishlarida axborot texnologiyalari muhim o'rin egallagan. Davlat boshqaruvi tizimi ham zamonaviy talablarga mos ravishda raqamlashtirish va avtomatlashtirish yo'lga o'tmoqda. Ayniqsa, mahalliy davlat boshqaruv organlari uchun kompyuter tizimlari hamda tarmoqlarning ahamiyati beqiyosdir, chunki ularning asosiy vazifasi aholiga xizmat ko'rsatish, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va yuqori tashkilotlarga yetkazishdan iborat.

Mahalliy boshqaruv organlari har kuni ko'plab murojaatlar, arizalar, hisobotlar va hujjatlar bilan ishlaydi. Ushbu jarayonlarni faqat qog'oz shaklida amalga oshirish ko'p vaqt va kuch talab etadi hamda xatolik ehtimolini oshiradi. Shu sababli oxirgi yillarda bu sohada kompyuter tarmoqlari orqali axborot almashish tizimlari keng joriy etilmoqda.

Kompyuter tarmoqlari yordamida mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida tez, ishonchli va xavfsiz axborot almashinuvi ta'minlanadi. Masalan, tuman hokimiyati soliq, statistika, kadastr yoki ichki ishlar bo'limlari bilan yagona tarmoq orqali ma'lumot almashadi. Bu esa xizmat ko'rsatish jarayonini tezlashtiradi va ortiqcha vaqt sarfini kamaytiradi.

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish bugungi kunda mamlakatimizda ustuvor yo'nalishlardan biridir. Shu bois, mahalliy boshqaruv tizimlarida kompyuter tarmoqlarini takomillashtirish, ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish va ularning xavfsizligini ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.



Kompyuter tarmoqlari - bu bir nechta qurilmalar va kompyuterlarni o'zaro bog'lab, ular o'rtasida ma'lumot almashish imkonini beruvchi texnologik tizimdir. Bugungi kunda tarmoqlarsiz davlat boshqaruvi tizimini tasavvur etish deyarli mumkin emas. Chunki har bir mahalliy organ aholi ro'yxati, yer va mulk hujjatlari, soliq yoki ijtimoiy ma'lumotlar kabi ko'plab ma'lumotlar bilan ishlaydi va ularni tezkor uzatish zarur bo'ladi.

Tarmoq tizimlarining boshqaruvdagi o'rni

Kompyuter tarmoqlari mahalliy boshqaruv organlarining samarali faoliyat yuritishida bir necha muhim yo'nalishda yordam beradi:

- Axborot almashinuvi tezlashadi - kerakli ma'lumotlar bir zumda boshqa tashkilotga yetkaziladi.
- Hujjat aylanishi avtomatlashtiriladi - hujjatlarni elektron shaklda yuborish imkoniyati yaratiladi.
- Ish unumdorligi oshadi - vaqt tejaladi va bajariladigan ish sifati yaxshilanadi.
- Nazorat kuchayadi - tizim kim tomonidan va qachon hujjat yuborilganini qayd etib boradi.

Masalan, tuman hokimiyati, soliq inspeksiyasi va kadastr bo'limlari yagona tarmoq orqali bog'langan holatda ishlaydi. Faqat bitta tizimda kiritilgan ma'lumot avtomatik tarzda boshqa idoralarga uzatiladi, bu esa fuqarolar uchun ortiqcha hujjat topshirish jarayonini qisqartiradi.

“Elektron hukumat” tizimi bilan bog'liqligi

Kompyuter tarmoqlari “Elektron hukumat” tizimining asosiy tayanchidir. Bugungi kunda ko'plab davlat xizmatlari onlayn tarzda ko'rsatilmoqda - masalan, turar joydan ma'lumotnoma olish, soliqlarni to'lash yoki ariza topshirish kabi xizmatlar.

Bularning barchasi mahalliy boshqaruv organlari tarmoqlari orqali amalga oshadi. Agar bu tarmoqlar bo'lmaganida, xizmatlar o'zaro bog'lanmagan bo'lardi va fuqarolar hali ham barcha hujjatlarni shaxsan olib yurishga majbur bo'lardi.

Elektron hukumat tizimi tufayli:

- Davlat xizmatlari tezkor va shaffof bo'ldi;
- Fuqarolar bilan muloqot soddalashdi;
- Korrupsiya xavfi kamaydi;
- Resurslar va vaqt tejalmoqda.

Axborot xavfsizligi. Tarmoq tizimlari kengaygani sayin axborot xavfsizligi masalasi ham dolzarb bo'lib bormoqda. Mahalliy boshqaruv organlari orqali muhim ma'lumotlar uzatilgani sababli, ularni himoya qilish uchun quyidagi choralar ko'riladi:

- Ma'lumotlar shifrlanadi;



- Kirish huquqlari darajalari belgilanadi;
- Zaxira nusxalar saqlanadi;
- Xavfsiz serverlar va maxsus tarmoq kanallari ishlatiladi.

Bu chora-tadbirlar davlat sirlarini, shaxsiy ma'lumotlarni va tizimlarning barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalar. Hozirda mahalliy organlar tarmoqlar samaradorligini oshirish uchun quyidagi texnologiyalardan keng foydalanmoqda:

- Bulutli texnologiyalar (Cloud systems) - ma'lumotlarni masofadan saqlash va boshqarish imkonini beradi.
- Yagona ma'lumotlar bazalari - turli bo'limlar o'rtasida integratsiyani ta'minlaydi.
- VPN (Virtual Private Network) - xavfsiz ma'lumot almashish uchun maxsus kanal yaratadi.
- Server markazlari - katta hajmdagi ma'lumotlarni yagona joyda boshqaradi.

Ushbu texnologiyalar tizimning uzluksiz ishlashini, barqarorligini va qulayligini ta'minlaydi.

Kadrlar tayyorlash. Tarmoq tizimlarini samarali boshqarish uchun malakali mutaxassislar zarur. Shu sababli oliy o'quv yurtlarida kompyuter tizimlari va tarmoqlari faniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, mahalliy idoralarda ham xodimlar uchun IT bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilgan.

Xulosa. Mahalliy davlat boshqaruv organlari faoliyatida kompyuter tarmoqlari va axborot texnologiyalarining roli beqiyosdir. Ushbu tizimlar orqali organlar o'zaro tezkor va xavfsiz ma'lumot almashishi, hujjat aylanishini avtomatlashtirishi va ish jarayonlarini samarali tashkil etishi mumkin. Kompyuter tarmoqlari yordamida fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifati oshadi, byurokratik kechikishlar kamayadi va davlat boshqaruvi yanada shaffof bo'ladi.

Elektron hukumat tizimi va zamonaviy tarmoq texnologiyalari mahalliy boshqaruv organlarida samarali ishlashning poydevorini tashkil etadi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi va malakali kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur, chunki tizimning uzluksiz va xavfsiz ishlashi shular bilan bevosita bog'liqdir.

Natijada, kompyuter tarmoqlari mahalliy boshqaruv organlarining samaradorligini oshirish, fuqarolarga qulay xizmat ko'rsatish va davlat boshqaruvini raqamli shaklga o'tkazishda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu sababli, ushbu tizimlarni rivojlantirish va modernizatsiya qilish dolzarb vazifalardan biridir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Афанасьев, В.И. Компьютерные сети: принципы и технологии. - Москва: Горячая линия - Телеком, 2018.
2. Таненбаум, Э. Современные операционные системы. - Санкт-Петербург: Питер, 2017.
3. Бейкер, Дж. E-Government and Information Technology in Public Administration. - London: Routledge, 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi "Elektron hukumat to'g'risida" Qonuni, 2020.
5. Kurose, J. & Ross, K. Computer Networking: A Top-Down Approach. - 8th Edition, Pearson, 2021.
6. Mahmurov, S. Mahalliy davlat boshqaruv organlarida axborot tizimlarini joriy etish tajribasi. - Toshkent: Fan, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat xizmatlari markazi rasmiy veb-sayti: www.davxizmat.uz



ARGO UML MUHITI VA UNING IMKONIYATLARI

Mansurova Ozodaxon Maxamatjon qizi

Farg'ona davlat texnika universiteti

Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi 4-bosqich 55-22 guruh talabasi,

Karimov Jasurbek Xasanboyevich

Farg'ona davlat texnika universiteti

zasurk07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada dasturiy ta'minot tizimlarini modellashtirishda qo'llaniladigan ochiq manbali ArgoUML muhiti haqida so'z yuritiladi. Unda UML (Unified Modeling Language) tilining asosiy tamoyillari, ArgoUML dasturining interfeysi, funksional imkoniyatlari hamda uning dasturiy loyihalarda amaliy qo'llanilishi yoritilgan. Maqolada, shuningdek, ArgoUML vositasi orqali diagrammalarni yaratish, ularni tahlil qilish va dasturiy kod generatsiyasi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida ArgoUML dasturi o'quv jarayonida va dasturiy injiniring sohasida samarali vosita ekanligi isbotlangan.

Kalit so'zlar: UML, ArgoUML, modellashtirish, dasturiy ta'minot, tizim arxitekturasi, diagramma, kod generatsiyasi.

Kirish. Bugungi raqamli asrda dasturiy ta'minot ishlab chiqish jarayonida tizimlarni to'g'ri, aniqlik bilan va tushunarli shaklda loyihalash muhim bosqich hisoblanadi. Har qanday dasturiy loyiha muvaffaqiyati, eng avvalo, uning mantiqiy modeli qanchalik to'liq va to'g'ri tuzilganiga bog'liq. Shu maqsadda dasturchilar, tizim tahlilchilari va loyihalovchilar o'rtasida yagona tilda muloqot o'rnatish uchun turli modellashtirish tillari yaratilgan. Ulardan eng ommabopi va xalqaro miqyosda keng tan olingani - UML (Unified Modeling Language) hisoblanadi.

UML - bu tizim arxitekturasi, komponentlari, jarayonlari va ularning o'zaro bog'liqligini grafik tasvirlar yordamida ifodalash imkonini beruvchi standart model tili. U dasturiy ta'minot tizimini yaratishda barcha ishtirokchilarga - mijoz, tahlilchi, dasturchi va sinovchi mutaxassislariga - loyihaning asosiy g'oyasini bir xil ko'rinishda tushunish imkonini beradi. Natijada, ishlab chiqilayotgan tizimning tuzilishi, ishlash prinsipi va funksional imkoniyatlari yanada aniqroq ko'rinadi.

Hozirgi paytda dasturiy tizimlarni modellashtirish jarayonini yengillashtirish va avtomatlashtirish uchun ko'plab dasturiy vositalar ishlab chiqilgan. Bular orasida foydalanuvchiga qulay interfeysga, keng funksional imkoniyatlarga va ochiq manba kodiga ega bo'lgan ArgoUML muhiti alohida e'tiborga loyiqdir. Bu dastur foydalanuvchidan maxsus texnik bilim talab qilmaydi, shu bilan birga UML diagrammalarini to'liq yaratish, tahrirlash va eksport qilish imkonini beradi.



ArgoUML - Java dasturlash tili asosida yaratilgan, turli operatsion tizimlarda (Windows, Linux, macOS) ishlay oladigan, ochiq kodli va bepul modellashtirish dasturidir. Uning asosiy maqsadi - dasturchi yoki talabalarga dasturiy tizim arxitekturasini loyihalash jarayonini soddalashtirishdir. ArgoUML yordamida class diagram, use-case diagram, sequence diagram, activity diagram kabi turli model turlarini tezda chizish va tahlil qilish mumkin.

Mazkur maqolada ArgoUML muhiti haqida batafsil ma'lumot beriladi. Unda dastur interfeysi, asosiy komponentlari, foydalanuvchi uchun qulayliklari va amaliy qo'llanish imkoniyatlari keng yoritiladi. Shuningdek, ArgoUMLning boshqa modellashtirish vositalariga nisbatan afzalliklari hamda undan ta'lim jarayonida va dasturiy loyihalarda foydalanish yo'llari tahlil qilinadi.

ArgoUML haqida umumiy tushuncha. ArgoUML - bu dasturiy tizimlarni UML yordamida modellashtirish uchun yaratilgan ochiq manbali dasturiy muhitdir. U Java dasturlash tili asosida ishlab chiqilgan bo'lib, shu sababli turli operatsion tizimlarda (Windows, Linux, macOS) bema'lol ishlaydi. Dastur bepul tarqatiladi va foydalanuvchiga hech qanday litsenziya cheklovisiz foydalanish imkonini beradi.

ArgoUML dastlab 1998-yilda Tigris.org loyihasi doirasida yaratilgan va o'shandan buyon muntazam takomillashtirilib kelmoqda. U o'zining qulay interfeysi, keng funksional imkoniyatlari va ochiq manba tabiati bilan boshqa o'xshash dasturlardan ajralib turadi. Bu muhit orqali foydalanuvchi dastur arxitekturasining barcha asosiy qismlarini UML diagrammalari orqali ifodalab, loyihaning umumiy modelini shakllantira oladi.

ArgoUMLning eng muhim jihatlaridan biri - u foydalanuvchidan chuqur texnik bilim talab qilmaydi. Dastur interfeysi sodda va intuitiv tarzda yaratilgan bo'lib, yangi boshlovchilar ham diagramma yaratish jarayonini tez o'zlashtira oladilar. Shu sababli ArgoUML nafaqat professional dasturchilar, balki talabalarining ham o'quv jarayonida modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishda foydali vosita hisoblanadi.

ArgoUML interfeysi va asosiy komponentlari. ArgoUML dasturi bir necha asosiy qismlardan tashkil topgan. Har bir qism o'ziga xos vazifani bajaradi va birgalikda tizimning to'liq modellashtirish jarayonini ta'minlaydi.

- Diagramma maydoni (Diagram Canvas) - foydalanuvchi tomonidan yaratilayotgan diagrammalarni joylashtirish va tahrirlash uchun mo'ljallangan asosiy ish sohasi.
- Model Navigator - loyiha tarkibini boshqaruvchi qism bo'lib, unda paketlar, sinflar, bog'lanishlar va boshqa obyektlar daraxt ko'rinishida joylashadi.



- Properties paneli (xususiyatlar oynasi) - tanlangan elementning atributlari va parametrlarini ko'rsatadi hamda ularni o'zgartirish imkonini beradi.
- Elementlar paneli (Palette) - UML diagrammasining asosiy elementlari, masalan, sinf, interfeys, aktor, bog'lanish, holat va boshqalar joylashgan vosita paneli.

Shuningdek, ArgoUML foydalanuvchiga turli diagramma turlarini yaratish imkonini beradi. Masalan:

- Class diagram (sinf diagrammasi),
- Use-case diagram (foydalanish holatlari diagrammasi),
- Sequence diagram (ketma-ketlik diagrammasi),
- Activity diagram (faoliyat diagrammasi),
- Statechart diagram (holatlar diagrammasi),
- Component va Deployment diagramlari.

Bu diagrammalar yordamida foydalanuvchi dastur tuzilmasi, jarayonlar ketma-ketligi, foydalanuvchi rollari va tizimdagi o'zaro aloqalarni aniq tasvirlab bera oladi.

ArgoUMLning asosiy imkoniyatlari. ArgoUML dasturining funksional imkoniyatlari uni boshqa ko'plab modellashtirish vositalaridan ajratib turadi. Quyidagi jihatlar bunga yaqqol misol bo'la oladi:

1. UML 1.4 standarti bilan to'liq moslik - ArgoUML barcha asosiy UML diagrammalarini yaratishni qo'llab-quvvatlaydi.
2. Platformadan mustaqil ishlash - Java asosida yozilgani sababli istalgan operatsion tizimda ishlay oladi.
3. Kod generatsiyasi (Code generation) - foydalanuvchi yaratgan diagramma asosida Java kodlarini avtomatik hosil qilish imkoniyati mavjud. Bu dasturchilarga vaqtni tejaydi va xatoliklarni kamaytiradi.
4. Model almashinuvi - ArgoUML XMI (XML Metadata Interchange) formatini qo'llaydi, bu esa turli modellashtirish vositalari bilan ma'lumot almashishni osonlashtiradi.
5. Diagramma eksporti - yaratilgan diagrammalarni PNG, SVG yoki EPS formatlarida saqlash mumkin.
6. Design critics tizimi - ArgoUML foydalanuvchi tomonidan yaratilgan modelni tahlil qilib, dizayn jihatdan taklif va ogohlantirishlar beradi. Bu esa dasturiy loyihalashda muammolarni erta aniqlashga yordam beradi.

Shu sababli ArgoUML nafaqat o'qituvchilar va talabalar uchun, balki dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilar uchun ham amaliy foyda keltiruvchi vosita sifatida qadrlanadi.

ArgoUMLning amaliy qo'llanilishi.



ArgoUML dasturi ko'plab sohalarda qo'llaniladi. Eng avvalo, u ta'lim tizimida, xususan, dasturiy injiniring, kompyuter grafikasi, va tizim tahlili fanlarida talabalar uchun modellashtirish mashg'ulotlarini o'tkazishda keng foydalaniladi. Talabalar ArgoUML orqali turli tizimlarning konseptual modellari, sinf diagrammalari yoki foydalanuvchi rollari o'rtasidagi munosabatlarni vizual tarzda ifodalaydilar.

ArgoUML dasturidan foydalanib yaratilgan loyihalar hayotning turli jabhalarida keng qo'llanilishi mumkin. Masalan, ta'lim tizimida ArgoUML orqali elektron o'quv platformalarining tuzilmasi va ularning o'zaro aloqalari modellashtiriladi. Bu o'qituvchilar va talabalar uchun o'quv jarayonini raqamlashtirishda aniq yo'l xaritasini yaratadi.

Tibbiyot sohasida, ArgoUML yordamida bemorlarni ro'yxatga olish, klinik ma'lumotlar bazasini boshqarish yoki laboratoriya tahlillari jarayonini avtomatlashtiruvchi dasturlarni modellashtirish mumkin. Shu yo'l bilan sog'liqni saqlash tizimida axborot oqimini soddalashtirish va xatoliklarni kamaytirish erishiladi.

Bank va moliya tizimlarida ArgoUML yordamida mijozlar ma'lumotlarini qayta ishlash, to'lov tizimlari yoki kredit muomalalarini boshqaruvchi dasturiy yechimlar ishlab chiqishdan oldin ularning konseptual modeli tuziladi. Bu esa xavfsizlik, tezlik va aniqlikni oshirishga xizmat qiladi.

Transport-logistika sohasida ham ArgoUML orqali yuk harakati, marshrut rejalashtirish va transport vositalari monitoring tizimlari modellashtiriladi. Bu tizimlar real hayotdagi jarayonlarni avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, ArgoUML kichik va o'rta miqyosdagi loyihalar uchun ham foydali. Masalan, yangi dasturiy tizimning dastlabki arxitektura loyihasini chizish, jarayonlarni tahlil qilish yoki dastur modullarining o'zaro bog'liqligini sinovdan o'tkazish uchun undan samarali foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, ArgoUML dasturi ilmiy tadqiqotlar va tizim tahlilchilari uchun ham qulay vosita hisoblanadi. Chunki u modellarni tez tahlil qilish, diagrammalarni solishtirish va g'oyalarni vizual tarzda taqdim etish imkonini beradi.

Umuman olganda, ArgoUML - soddaligi, bepul tarqatilishi va oson o'rganilishi sababli dasturiy ta'minot modellashtirishning o'rta darajadagi loyihalari uchun juda samarali muhitdir. ArgoUML yordamida ishlab chiqilgan loyihalar har qanday sohada jarayonlarni aniq tasvirlash, tahlil qilish va avtomatlashtirish imkonini beradi. Shu sababli u bugungi kunda nafaqat o'quv jarayonida, balki ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv tizimlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.



Xulosa. Bugungi kunda dasturiy ta'minot ishlab chiqish jarayonida tizimni to'g'ri modellashtirish va uni aniq ifodalash eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ArgoUML kabi ochiq manbali modellashtirish vositalari dasturchilar, talabalik va tahlilchilar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Dastur foydalanuvchiga tizim arxitekturasini to'liq ko'rish, jarayonlar o'rtasidagi bog'lanishlarni tahlil qilish hamda kelajakdagi muammolarni erta aniqlash imkonini beradi.

ArgoUMLning afzalligi - uning soddaligi, platformadan mustaqil ishlashi va barcha asosiy UML diagramma turlarini qo'llab-quvvatlashidir. Bu esa uni o'quv jarayonida, ilmiy loyihalarda hamda dasturiy ta'minot loyihalarini ishlab chiqishda qulay vositaga aylantiradi. Ayniqsa, dastur orqali diagrammalarni avtomatik tarzda kod shakliga o'tkazish imkoniyati foydalanuvchining ish unumdorligini oshiradi va tizimni loyihalash vaqtini qisqartiradi.

Xulosa qilib aytganda, ArgoUML - nafaqat o'quvchilar va dasturchilar uchun, balki har qanday modellashtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs uchun ham foydali, bepul va samarali vositadir. U dasturiy ta'minot loyihalarini bosqichma-bosqich, aniq va tushunarli shaklda tashkil etish imkonini beruvchi qudratli muhit sifatida o'z o'rnini mustahkam egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Booch G., Rumbaugh J., Jacobson I. The Unified Modeling Language User Guide. - Addison-Wesley, 2005.
2. Fowler M. UML Distilled: A Brief Guide to the Standard Object Modeling Language. - Addison-Wesley, 2004.
3. ArgoUML rasmiy veb-sahifasi: <https://argouml.tigris.org>
4. Pressman R. S. Software Engineering: A Practitioner's Approach. - McGraw-Hill, 2010.
5. Sommerville I. Software Engineering. - Pearson Education, 2016.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. "Kompyuter tizimlarini modellashtirish" fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. - Toshkent, 2023.
7. Nuritdinov M., Mamatqulov A. Dasturiy ta'minotni loyihalash va modellashtirish. - Toshkent: TATU nashriyoti, 2021.
8. UML texnologiyasi haqida ma'lumot portali: <https://www.uml.org>
9. ArgoUML dasturini o'rganish bo'yicha foydalanuvchi qo'llanmasi: <https://argouml.en.softonic.com>
10. Karimov A. "Dasturiy ta'minot loyihalarida modellashtirishning o'rni va ahamiyati". - Axborot texnologiyalari jurnali, №4, 2022.



TA'LIM YO'NALISHIDA SHAXS KAMOLOTINI TA'MINLASHDA
SOTSIOLOGIK YONDASHUVLAR

Mamasiddiqova Mohinur Davlatbek qizi

Farg'ona davlat unversiteti

Tarix fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 24-83 guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada sotsiologik ta'lim yo'nalishida shaxs kamolotini ta'minlashga doir yondashuvlar, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ularning yoshlar rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, klassik va zamonaviy sotsiologik nazariyalar asosida shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviy barkamol bo'lib shakllanishi hamda ta'lim tizimining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimlarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, innovatsion pedagogika, raqamli ta'lim texnologiyalari va kredit-modul tizimining afzalliklari yoritilgan. Maqola natijalari shaxs kamoloti, ta'lim sotsiologiyasi va ta'lim tizimini modernizatsiya qilish borasidagi ilmiy ishlanmalar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada shaxs va uning xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shaxsning kamol topishi va rivojlanishida ijtimoiy omillar ham muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Shaxs kamoloti, ta'lim islohotlari, ijtimoiylashuv, innovatsion ta'lim, raqamlashtirish, modernizatsiya, ijtimoiy omillar, yondashuv, raqamli madaniyat, pedagogik texnologiyalar, ma'naviy tarbiya, ilmiy mobillik, kredit-modul tizimi, zamonaviy ta'lim modeli, globalizatsiya jarayonlari.

Yashil investitsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Xususan, quyosh va shamol energetikasi, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik transport tizimlari kabi sohalarga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat ekologik muammolarni kamaytiradi, balki bandlikni oshirish va iqtisodiy faollikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, yashil iqtisodiyot sharoitida yaratilgan ish o'rinlari barqaror bo'lib, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi. Ekologik barqarorlikni ta'minlashda yashil iqtisodiyotning o'рни. Ekologik barqarorlik yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, u atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish orqali ta'minlanadi. Yashil iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarida chiqindilar hajmini kamaytirish, tabiiy resurslarni qayta tiklash va ekologik standartlarga rioya etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ekologik nazorat tizimlari va ekologik sertifikatlash mexanizmlarining roli oshadi.

O'zbekiston sharoitida ekologik barqarorlikni ta'minlashda suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, havoni ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini kamaytirish hamda yashil hududlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Prezident farmonlarida ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, "yashil makon" tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, bu holat yashil iqtisodiyot tamoyillarining amaliyotga tatbiq etilayotganidan dalolat beradi.

Iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik uyg'unligini ta'minlashda davlat siyosatining roli

Iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik uyg'unligini ta'minlashda davlat siyosati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, soliq va moliyaviy rag'batlar joriy etish hamda ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash muhim mexanizmlar hisoblanadi. Prezident farmonlarida yashil texnologiyalarni joriy etayotgan subyektlarga imtiyozlar berish, energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni moliyalashtirish kabi chora-tadbirlar belgilangan.

Shuningdek, davlat tomonidan yashil iqtisodiyot sohasida institutsional mexanizmlarni rivojlantirish iqtisodiy va ekologik manfaatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda xalqaro hamkorlik, xorijiy



investitsiyalarni jalb etish va ilg'or tajribalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada iqtisodiy o'sish ekologik barqarorlik hisobiga emas, balki aynan uning negizida amalga oshiriladi.

XULOSA. Yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy iqtisodiy rivojlanish modellari uzoq muddatda ekologik muammolarni chuqurlashtirishi sababli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkoniyatlari cheklangan. Shu bois yashil iqtisodiyot iqtisodiy va ekologik manfaatlarni uyg'unlashtiruvchi muhim rivojlanish modeli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy o'sish innovatsion texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, energiya va resurslardan samarali foydalanish orqali ta'minlanishi asoslab berildi. Bunda yashil investitsiyalar iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini shakllantirish, bandlikni oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlik atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash orqali mustahkamlanadi.

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi Prezident farmon va qarorlarida belgilab berilgani tahlil qilindi. Ushbu hujjatlarda energiya samaradorligini oshirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va yashil investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik uyg'unligini ta'minlashga xizmat qilayotgani asoslandi.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish imkonini beruvchi samarali rivojlanish modeli bo'lib, uni izchil joriy etish O'zbekistonning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. ***"O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tkazish strategiyasi to'g'risida"***gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. ***"Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"***gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. ***"Energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"***gi Qarori.
4. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP). Green Economy Report. – New York, 2019.
5. World Bank. Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development. – Washington DC, 2018.
6. Pearce D., Markandya A., Barbier E. Blueprint for a Green Economy. – London: Earthscan, 2017.



Sergey Yeseninning "Singlimga xat" she'ringing poetik tahlili

Inomjonova Madinaxon Bahromjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola zamonaviy g'arb adabiyotining yorqin namoyandasi, iqtidorli rus lirik shoiri va yozuvchisi, chinakam iste'dod sohibi Sergey Yesenin o'ziga xos misli ko'rinmas qirralarini, xususan uning o'z jigarlariga bag'ishlangan she'rlaridagi badiiy mahorat va ijtimoiy-ruhiy masalalarini chuqur tahlil qilishga bag'ishlanadi. Maqolada "Singlimga xat" she'ri misolida aka va singilning o'rtasidagi insoniy munosabatlar, lirik qahramonning ichki kechinmalari va boshidan kechirgan turli xil voqealar tahlil ostiga olinadi. Shuningdek, shoirning ijodidagi samimiylik, xalqchilik, o'z yurtiga bo'lgan otashin mehr-muhabbat kabi fazilatlar har jihatdan ochib beriladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy rus poeziyasi, buyuklik, lirik psixologizm, akalik fenomeni, badiiy mahorat va pafos, badiiy tasvir vositalari, ijtimoiy lirika

XIX asrda g'arb adabiyoti, xususan, rus adabiyoti va she'riyati shunday yuksak darajaga yetishdiki, ayniqsa bugungi jahon adabiyotini shu davr rus so'z san'atisiz (poeziya) tasavvur qilish mushkuldir. XIX asr boshlarida ushbu adabiyot yangi iste'dod va salohiyat sohib-sohibalarini, shoir va yozuvchi, dramaturglarni insoniyat uchun taqdim qildi. Shulardan eng mashuri, hassos va otashnafas rus shoiri Sergey Yesenin hisoblanadi. U o'zining haroratli she'rlari, insoniyatning qalbini beixtiyor junbushga keltiradigan samimiy ohangdagi badiiy mahorati hamda o'ziga xos hech kimda uchramaydigan betakror tashbehlari bilan boshqa ijod namoyandalaridan ajralib turadi. O'zbek adabiyotida Sergey Yesenin ijodini o'rganish XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Ilk bor rus shoiri Sergey Yesenin nomi 1918-yil Turkiston matbuotida tilga olinadi. Sergey Yesenin ijodi uzoq yillardan beri chet ellik kitobxonlarning ham e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda, shoirning she'rlari esa dunyoning bir qator mamlakatlarda nashr etilib adabiyotsevarlar tomonidan sevib o'qilmoqda. Ko'pchilik olimlarning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Sergey Yesenin hatto Sharq poeziyasidan, undagi so'fiyona motivlardan o'zgacha bir ruhda ta'sirlanganligi haqida aytiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, shoirning aksariyat poetik misralarida olamning go'zalligi va uyg'unligidan hayratlanishning Sa'duyga xos usullarini davom ettirdi, umrning o'tkinchligi, sof muhabbat zavqi, oniy lahzalarning vaqtinchalgi kabi hayyomona motivlarni qo'lladi va har jihatdan takomillashtirishga intildi. Uning "Fors taronalari" tarkibiga kiruvchi "Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan", "Bugun dedim sarrofga aytay", "Shahinam", o



mening Shahinam” ,”Deding :Sa’diy doimo yorning”,”Za’far yurtga nur to’kar oqshom”,”Xurosonda bir darvoza bor”,”Firdavsiyning moviy diyori” kabi she’rlari sof ishqiy lirikaning yuksak namunasi bo’lish bilan bir qatorda,so’fiyona maslak va qarashlar ifodalangan shoh asarlar desak mubolag’a bo’lmaydi.

Jon-joningga singsa muhabbat
Qalb ko’ksingda oltin tosh bo’lur
Baxt etolmay kuyga harorat
Tehron oyi ko’kda fosh bo’lur.

“Fors taronalari” turkumidan olingan ushbu parchalaridan anglashiladiki,shoir Sharq poetik falsafasini shunchaki o’rganib qolmagan, balki uni o’z she’rlariga ,hattoki real hayotga ham singdira olgan .Ayniqsa,shoir lirikasida bag’ishlov (dedication) janr usulidagi she’rlarining yuksak namunalari ham diqqatga sazovor.Jumladan, ”Singlimga xat”,” Onamga xat”,”Bobomga xat” she’rlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.Ayniqsa,uning “Singlimga xat” she’ri alohida muhim o’rin tutadi.She’r quyidagi otashin misralar bilan boshlanadi:

Bizning Aleksandr
Delvig haqida
She’r yozgan ,madh etib kalla suyagin
Qanday Shirin ,
Qanday olis aqida
Xuddi gulbog’ yanglig’ ko’ngilga yaqin .

Salom senga,singlim ,
Salom assalom.
Qadrdon dalalar salomat bormi?
Ayt,qalay parvarish qilmoqda bobom
Ryazandagi bizni oluchazorni?

Ushbu she’r shunaqangi ta’sirchan ruhda bitilganki.uni o’qiganingiz sari tag zamirida olam-olam ma’no yaahiringaniga guvohi bo’lasiz.Shoir bu she’rning muqaddimasida Aleksandr Delvig nomini qalamga oladi.Xo’sh ,bu nom bilan shoir nima demoqchi bo’lgan? Ayrim manbalarda keltirilishicha,bu inson rus shoiri ,publitsist va adabiy tanqidchi bo’lib ,S.Yesenin hamda A.S.Pushkinning yaqin do’sti hisoblanadi.uning she’rlari ham o’z davrida qadrli bo’lgan .Shu sababli shoir she’rda bun omni tilga olgan.She’rning keying bandlarida shoirning sinlisiga bo’lgan samimiy ohanngdagi izhorlari keltiriladi.Lirik qahramon



singlisiga murojaat qilarkan, u o'zining mehribon bobosiga muhabbatini oshkor qilib o'z sa;lomini yo'llaydi, bu yerda shoirning ona diyoridan olisdaligi ,yaqinlaridan yiroqda ekanligi haqidagi ma'no anglashiladi. Shu o'rinda biz shoirning ona diyoriga bo'lgan ulkan sadoqatini ko'rishimiz mumkin, ya'ni shoir aytadiki: "Ayt, qalay parvarish qilmoda bobom, Ryazandagi bizni oluchazorni". Bu misrada lirik qahramonning nafaqat singlisi , bobosi bo'lgan mehr-muruvvat , balki vatani Ryazan o'lkasiga bo'lgan sevgisi she'r zamiriga singdirilgan. Barchamizga ma'lumki, S. Yesening Rossiyaning Ryazan shahri yaqinidagi Konstantinovo qishlog'ida tavallud topgan. Shu bois hassos shoirimiz Ryazan nomini keltirib o'tadi va oluchazor bog'ini bobosi qanday parvarish qilayotgani haqida singlisidan so'raydi. Bu yerda lirik qahramonning oluchazor bog'ga bo'lgan qayg'urish hissini ko'rishimiz mumkin, desak mubolag'a bo'lmaydi. Keyingi o'rinlarda esa shoirning dard-kechinmalari , oilasi boshidan o'tkazgan o'g'ir kunlari haqida aytib o'tiladi, ya'ni otasining o'z oilasi deb kunning tunga, tunni kunga ulab mehnat qilgani o'ta hazin so'zlar bilan ochib beradi. Otasi bir parcha yerdan hosil olish (kartoshka olish) uchun qancha zahmat chekkani haqidagi o'ylar o'qigan har bir kitobxonni befarq qoldirmaydi, ya'ni uni tasavvur qilgan kitobsevar qalbi-qalbiga kirib boradi, yuragi esa ozurda topadi. Keyingi misralarda ham qahramon oilasining ichki fenomeni ifodalanadi. Ya'ni oila bittagina turmushiga yarab turadigan, shu otrqali daromad topadigan "boyligi" dan judo bo'ladi, zolim insonlar tomonidan bog' kesiladi va oila boshiga og'ir kulfat tushadi. She'rda qo'llangan "ho'l bolish" tashbehi ham aynan shu holatni kengroq tasavvur qilish uchun qo'llangan. Bu o'xshatishdan shuni fahmlash mumkin: oila , xususan qahramon tundan tonggacha yig'lab chiqqan va ko'o yig'laganidan yostiq ham ho'l holat darajasiga yetib brogan.. She'rning keying misralarida akalik fenomeni har jihatdan ochib beriladi. Aka o'z singlisiga quyidagicha nasihat qiladi:

Singlim!

Naqadar kam hayotda chin do'st ,

Ko'plardek mening ham yuragimda dog'

Agar nozik qalbing

Toliqqan bo'lsa,

Buning soz da'vosi –

Tinmoq , unutmok

Aka bu foniy dunyoda haqiqiy do'st yo'qligiga , chin do'st ota-ona ekanligiga urg'u berib singlisini hayot sinovlaridan ogohlantiradi. Bu o'rinda so'fiyona motivni



ham uchratish mumkin, ya'ni chin do'st, aslida, ALLOH, bu dunoyoda esa haqiqiy do'st bizning jondan aziz OTA-ONAMIZ hisoblanadi. She'ning keying misrasida esa singlisinini kechirimli bo'lishiga ishora qiladi (nozik qalbing toliqqan bo'lsa, buning soz davosi -tinmoq, unutmog). Shuningdek, she'rdan Sasha (A.S. Pushkin) hamda Mixail Lermontov rus namoyandalari tilga olinadi. Tarixdan ma'limki, bushoir, yozuvchilar rus adabiyotiida muhim o'rin egallaydi. Ularning lirikasi o'z davrining shoh asari hisoblangan hamda adaiyotsevarlar tomonidan sevib o'qilgan va jahob=ning turli mamlakatlarida har xil tillarga tarjima qilingan.

She'r tuzilishiga e'tibor bersak, erkin vaznda (sarbast vazn) da bitilgan va har bir misra alohida biro hang bilan o'qiladi, shuningdek, she'rdan qo'llangan barcha so'zlar o'z yelkasiga alohida ma'no yuklagan. She'riy san'atlardan tashbeh, ayrim o'rinlarda istiora hamda talmehning eng go'zal ko'rinishklari o'z aksini topgan va hse'rha o'zgacha ru, ko'rk bag'ishlagan.

Xulosa sifatida shuni aytish mukinki, Sergey Yesenin rus adabiyotining eng lirikaga boy, inson qalbining nozik ichki kechinmalarini chuqur ochib bera olgan shoirlardan biridir. Uning ijodini har jihatdan o'qib o'rganish, she'rlarini haqiqiy adabiyotsevar olim sifatida tahlil qilish muhim hisoblanadi. Uning "Singlimga xat" she'ri esa shoir ijodida alohida o'rin tutib, unda oilaviy mehr, sog'inch, hayot yo'lidagi sinovlar va ichki psixologik iztiroblar samimiy tarzda ifodalanadi. Ushbu she'r shoirning shaxsiy hayoti, ruhiy holati va dunyoqarashini ochib beruvchi muhim asarlardan biridir. SShe'rdagi inson o'tmishi, bolalik xotiralari va pok insoniy tuyg'ularga bo'lgan murojaat hech qaysi kitobxonni befarq qoldirmaydi. Bundan har bir inson quyidagicha o'ziga o'git oladi:

Inson qanchalik og'ir va chalkash hayot kechirmasin, uni poklyadigan va to'g'ri yo'lga boshlaydigan kuch - bu yaqin insonlarining unga bo'lgan cheksiz mehridadir. Shuning uchun "Singlimga xat" nomli she'ri bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha ushbu she'r insoniyat uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sergey Yesenin "Fors taronalari" turkumi 1924-yil
2. Sergey Yesenin "Zamin darg'asi" 1925-yil
3. 8-sinf adabiyot darsligi Olimov S, Ahmedov S, Qo'chqorov R 2019
4. Sergey Yesenin lirikasi XX asr o'zbek she'riyati talqinida (Erkin Vohidov va Usmon Azim) Samarqand -2023
5. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
6. Aegey Aleksandrovich (1895-1925) yozgan asarlari



EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI

Fozil Xolmurotov

Ma'mun Universiteti "Buxgalteriya hisobi" kafedrası dotsenti,

Email: fozilholmurotov@gmail.com

Jahon iqtisodiyotida eksport mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u milliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish, ish o'rinlarini yaratish va valyuta tushumlarini ta'minlash vositasi hisoblanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi eksportni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirish yo'lida o'ziga xos strategiyalarni amalga oshirgan. Ushbu maqolada eksportni rivojlantirishning eng samarali xorijiy tajribalarini o'rganish va ulardan olingan saboqlarni tahlil qilish maqsad qilingan.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasi: eksportga yo'naltirilgan modernizatsiya modeli. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari, xususan Janubiy Koreya va Singapur, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishda dunyoda eng muvaffaqiyatli tajribaga ega bo'lgan mamlakatlar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotning dastlabki bosqichida cheklangan resurslarga ega bo'lgan bo'lsalar-da, davlat tomonidan strategik rejalashtirilgan eksport siyosati va tizimli islohotlar orqali qisqa vaqt ichida yuqori daromadli hamda texnologik jihatdan yetuk iqtisodiyotlarga aylanishga muvaffaq bo'ldilar. Ularning tajribasi boshqa davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham eksport salohiyatini oshirishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Janubiy Koreya: kompleks eksport siyosati va texnologik modernizatsiya tajribasi. Janubiy Koreya 1960-yillardan boshlab eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy modelni shakllantirishda davlatning faol ishtirokiga asoslandi. Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan rag'batlantiruvchi siyosatlar, kredit-moliyaviy imtiyozlar va soliq yengilliklari eksport jarayonining markaziy instrumentlariga aylandi. Eksport hajmiga qarab korxonalarining qo'shimcha moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi mamlakatda "chaebol" nomi bilan tanilgan yirik sanoat konglomeratlarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Mazkur konglomeratlar global bozor talablarini o'z vaqtida anglab, milliy sanoatning yetakchi kuchiga aylandi[1].

Mamlakatning modernizatsiya jarayonida texnologiyalarni faol transfer qilish alohida o'rin tutadi. Janubiy Koreya dastlab xorijiy texnologiyalarni import qilgan holda ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi, biroq vaqt o'tishi bilan texnologik jarayonlarni o'zlashtirish, ularni takomillashtirish hamda milliy ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini kengaytirish orqali o'z innovatsion ekotizimini yaratdi. Texnologiyalarni o'zlashtirish bilan parallel ravishda kadrlar tayyorlash tizimi ham izchil isloh qilindi. Texnik va muhandislik



yo'nalishlariga qaratilgan keng ko'lamli investitsiyalar zamonaviy sanoat uchun zarur bo'lgan yuqori malakali ishchi kuchining shakllanishini ta'minladi.

Janubiy Koreya iqtisodiy rivojlanish strategiyasida eksport va import o'rtasidagi bosqichma-bosqich muvozanat muhim ahamiyat kasb etdi. Dastlab import o'rnini bosuvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, ichki bozorni mustahkamlash va mahalliy korxonalarni raqobatbardosh qilish choralari ko'rildi. Keyingi bosqichlarda esa eksportga yo'naltirilgan strategiyaga to'liq o'tildi, bu esa mamlakatning global savdodagi mavqeini keskin oshirdi.

Singapur: yuqori qo'shilgan qiymat va global logistika markazini yaratish tajribasi. Singapur iqtisodiy rivojlanish modeli asosan tashqi investitsiyalarni jalb etish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan. Mamlakat davlat siyosati xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar uchun eng qulay huquqiy va institutsional muhitni yaratdi: soliq stavkalari past darajada belgilandi, biznes ochish jarayonlari soddalashtirildi, investorlarning huquqiy himoyasi qat'iy ta'minlandi. Natijada Singapur ko'plab transmilliy korporatsiyalar uchun mintaqaviy markazga aylandi.

Mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchi yuqori texnologiyali mahsulotlar — farmatsevtika, elektronika, biotexnologiya hamda moliyaviy xizmatlardir. Oddiy sanoat mahsulotlaridan texnologik murakkab mahsulotlarga bosqichma-bosqich o'tish Singapurni global qiymat zanjirlarining yuqori pog'onalariga olib chiqdi.

Bundan tashqari, Singapur port-logistika tizimini modernizatsiya qilishga katta hajmda investitsiyalar yo'naltirdi. Jahondagi eng samarali portlardan birining shakllanishi mamlakatni nafaqat Janubi-Sharqiy Osiyo, balki global savdo bozorining strategik tugun nuqtasiga aylantirdi. Logistika infratuzilmasining rivojlanishi eksport oqimini tezlashtirib, tashqi savdoning barqaror o'sishini ta'minladi.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, eksportga yo'naltirilgan rivojlanish modeli faqatgina ishlab chiqarish tizimini kengaytirish bilan cheklanmaydi, balki institutsional islohotlar, texnologik modernizatsiya, kadrlar tayyorlash, investitsiya jozibadorligini oshirish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish kabi kompleks choralarni talab qiladi. Janubiy Koreya va Singapurning yuksalish strategiyalari eksportni iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida shakllantirishda davlatning aniq belgilangan siyosati va uzoq muddatli strategik rejalashtirishning naqadar muhimligini yaqqol namoyon etadi. Bu tajriba Xorazm viloyati va umuman O'zbekistonning eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha strategik yo'nalishlarni belgilashda ilmiy-amaliy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.



Yevropa Ittifoqi mamlakatlarning eksport siyosati: institutsional yondashuv va innovatsion model

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari eksport salohiyatini oshirishda institutsional barqarorlik, texnologik innovatsiyalar, yuqori malakali mehnat resurslari va samarali logistika tizimiga tayanadigan kompleks modelni shakllantirgan. Germaniya va Niderlandiya (Gollandiya) ushbu jarayonning eng yorqin namunalari bo'lib, ularning tajribasi eksportni iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga aylantirishda samarali mexanizmlar mavjudligini tasdiqlaydi[2].

Germaniya: sifatga yo'naltirilgan eksport modeli va barqaror sanoat tizimi

Germaniya iqtisodiyotining asosiy o'ziga xos jihati shundaki, uning eksport strategiyasi yirik korporatsiyalar bilan bir qatorda kichik va o'rta biznes subyektlariga tayanadi. "Mittelstand" deb ataladigan ushbu segment mamlakat eksportining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, yuqori ixtisoslashuv, mahsulot sifatining ustuvorligi va barqaror korporativ boshqaruv tamoyillariga ega. Bu korxonalar ko'pincha tor yo'nalishlarda ishlab, global bozor uchun yuqori texnologiyali, ishonchli va moslashtirilgan mahsulotlar yaratishga qodir.

Germaniya eksport siyosatining ikkinchi muhim ustuni sifat va innovatsiyaga tizimli investitsiyalardir. "Made in Germany" brendining global miqyosdagi nufuzini mustahkamlashda ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ajratilgan yuqori hajmdagi investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. Mamlakat YalMning 3 foizidan ortig'ini ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga yo'naltirib, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish sohalarida yetakchilikni saqlab kelmoqda. Bu jarayon davlat, xususiy sektor va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasidagi uzviy hamkorlik orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Kadrlar tayyorlashda Germaniyaning dual ta'lim tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tizim oliy va kasb-hunar ta'limidagi nazariy tayyorgarlikni bevosita korxonlardagi amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtiradi. Natijada sanoat ehtiyojlariga moslashgan, ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik murakkabliklarini chuqur anglay oladigan malakali mutaxassislar yetishib chiqadi.

Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida Germaniya davlatining Hermes kredit kafolat agentligi va KfW rivojlanish banki tomonidan eksport sug'urtasi, kredit kafolatlari va arzon moliyalashtirish mexanizmlari taklif etiladi. Bu tizim eksportchilar uchun tavakkalchiliklarni kamaytiradi va yangi bozorlarni o'zlashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Niderlandiya: innovatsion agrosanoat klasteri va ilg'or logistika tizimi



Niderlandiya qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinni egallab, yuqori hosildorlikka asoslangan intensiv agrotexnologiyalarni keng qo'llash orqali yetuk modelni yaratgan. Mamlakatda innovatsion issiqxona texnologiyalari, vertikal fermerlik, suvni tejaydigan agrotexnika yechimlari va ilmiy asoslangan ekinlarni boshqarish tizimlari joriy etilgan bo'lib, bu resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi[3].

Agrar sohada klasterlar va kooperatsiya yondashuvining keng qo'llanishi Niderlandiya eksport modelining asosiy ustunlaridan biridir. Fermer xo'jaliklari, tadqiqot institutlari, texnologik kompaniyalar va davlat tashkilotlari o'rtasidagi integratsiya "Triple Helix" hamkorlik modelini shakllantiradi. Xususan, Wageningen universiteti va unga qarashli tadqiqot markazlari dunyoda agrotech sohasida yetakchi bo'lib, Yangi texnologiyalar ishlab chiqilishi, ularning amaliy joriy qilinishi va eksport mahsulotlarining sifatini oshirishda markaziy rol o'ynaydi.

Niderlandiyaning eksport strategiyasida logistika infratuzilmasining rivojlanganligi alohida o'rin tutadi. Yevropaning eng yirik portlaridan biri bo'lgan Rotterdam porti global savdo oqimlarini qayta taqsimlash, yuklarni qayta ishlash va ularni Yevropaning ichki bozorlariga tez yetkazib berishda muhim strategik tugun vazifasini bajaradi. Yuqori darajada raqamlashtirilgan logistika boshqaruvi, multimodal transport tizimi va samarali bojxona protseduralari eksport jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

Germaniya va Niderlandiya tajribasi Yevropa Ittifoqi davlatlarida eksport siyosati chuqur institutsionallashtirilgan, innovatsiyaga yo'naltirilgan va yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga asoslanganligini ko'rsatadi. Mazkur mamlakatlarda eksport faqat iqtisodiy faoliyatning alohida yo'nalishi emas, balki ta'lim, ilmiy tadqiqot, moliyaviy infratuzilma va logistika tizimlari bilan uzviy bog'langan yirik iqtisodiy ekotizim sifatida shakllangan. Ushbu tajriba eksport salohiyatini oshirishni maqsad qilgan mintaqalar, jumladan Xorazm viloyati uchun ham strategik ahamiyatga ega bo'lib, uzoq muddatli rivojlanish siyosatida kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasining zamonaviy eksport modeli: Yaponiya va Xitoy tajribasi

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi dunyo iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan hududlaridan biri bo'lib, ushbu mintaqadagi davlatlar eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat orqali yuqori sanoatlashtirish darajasiga, texnologik ustunlikka va global qiymat zanjirlarida strategik o'ringa ega bo'ldilar. Xususan, Yaponiya va Xitoyning iqtisodiy rivojlanish tajribasi eksportga yo'naltirilgan modernizatsiya modelining turli bosqichlari va strategik yondashuvlarini o'zida mujassamlashtiradi[4].



Yaponiya: sifat darajasiga asoslangan modernizatsiya va texnologik yetakchilik

Yaponiya Ikkinchi jahon urushidan keyin qisqa muddat ichida iqtisodiy tiklanishga erishib, eksportni iqtisodiy o'sishning markaziy mexanizmiga aylantira oldi. Bu jarayon bir nechta strategik ustuvorliklar asosida shakllandi.

Avvalo, mamlakatda sifatni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari joriy etildi. "Kaizen" (uzluksiz yaxshilash) tamoyillari va "Total Quality Management" (TQM) tizimlarining keng qo'llanilishi ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida sifatni oshirishga va nuqsonlarni minimallashtirishga xizmat qildi. Ushbu yondashuv Yaponiya mahsulotlarining global bozorlar talabiga mos kelishini ta'minlab, milliy sanoatni yuqori raqobatbardosh darajaga olib chiqdi.

Ikkinchi muhim jihat sifatida brendsozlikning strategik yuritilishi ko'rsatiladi. Toyota, Sony, Honda kabi korporatsiyalarning shakllanishi nafaqat eksport hajmining oshishiga, balki Yaponiya mahsulotlarining global miqyosda sifat va ishonchlilik ramziga aylanishiga sabab bo'ldi. Brend qiymati Yaponiya eksportining uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo'ldi.

Yaponiya iqtisodiyotining yana bir ustuni keiretsu tizimidir. Bu tizim vertikal va gorizontaal integratsiyalashgan korxonalar guruhini anglatib, kompaniyalar o'rtasida uzluksiz hamkorlik, texnologik almashinuv va barqaror moliyaviy ko'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Keiretsu modeli samarali ta'minot zanjirlarini shakllantirib, eksport jarayonida tannarxni pasaytirish, ishlab chiqarish siklini tezlashtirish hamda risklarni diversifikatsiya qilish imkonini berdi.

Xitoy: eksportga yo'naltirilgan industrializatsiyaning yangi modeli

Xitoy so'nggi 40 yil ichida eksportga yo'naltirilgan industrializatsiya strategiyalari asosida misli ko'rilmagan iqtisodiy o'sishga erishdi. Ushbu modelning poydevorini Deng Xiaoping tomonidan boshlangan bozor iqtisodiyotiga o'tish islohotlari tashkil etadi.

Xitoy eksport strategiyasining asosiy mexanizmlaridan biri maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) hisoblanadi. Shenzhen, Shanghai, Zhuhai va boshqa hududlarda tashkil etilgan MIZlar xorijiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan reglamentlar va infratuzilma bilan ta'minlangan bo'lib, Xitoyni global ishlab chiqarish markaziga aylantirishda muhim rol o'ynadi. Mazkur zonalar tajribasi keyinchalik butun mamlakat bo'ylab kengaytirildi.

Xitoyning dastlabki yillarda raqobatbardoshligi asosan arzon ishchi kuchi hisobiga ta'minlangan bo'lsa, ayni paytda mamlakat avtomatlashtirish, robototexnika va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga o'tmoqda. Ishlab



chiqarish samaradorligini oshirish, qiymat zanjirida yuqoriga ko'tarilish va mahalliy brendlarni rivojlantirish Xitoy iqtisodiyotining yangi bosqichini belgilab berdi. Huawei, Xiaomi, BYD, Haier kabi kompaniyalar Xitoyning innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga muvaffaqiyatli o'tganini ko'rsatadi.

Xitoyning eksport strategiyasida global tashqi savdo infratuzilmasini yaratish ham alohida ahamiyatga ega. "Bir kamar, bir yo'l" (Belt and Road Initiative — BRI) tashabbusi doirasida Osiyo, Afrika, Yevropa va Lotin Amerikasi yo'nalishlarida yangi transport yo'laklari, logistika markazlari va portlar qurilib, Xitoy tovarlari uchun yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengaytirildi. BRI tashabbusi Xitoyning eksport geografiyasini kengaytirish bilan birga, global ishlab chiqarish va savdo oqimlarining qayta shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Yaponiya va Xitoyning eksport siyosati Osiyo-Tinch okeani mintaqasida iqtisodiy o'sishning turli modellarini namoyon etadi. Yaponiya yuqori sifat, texnologik yetuklik, korporativ boshqaruv va innovatsion brendlar orqali global bozorda o'z mavqeini mustahkamlasa, Xitoy industrializatsiya, investitsiya jalb etish, narxlar bo'yicha raqobatbardoshlik va global infratuzilma tashabbuslari orqali eksportni jadal rivojlantirishga erishdi. Har ikki model eksportni faqat iqtisodiy faoliyat turi sifatida emas, balki davlat siyosati, korporativ faoliyat, texnologik taraqqiyot va xalqaro hamkorlikning murakkab integratsiyalashgan ekotizimi sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu tajribalar O'zbekistonning, xususan Xorazm viloyatining eksport strategiyasini takomillashtirishda metodologik va amaliy ahamiyatga ega.

Lotin Amerikasi mamlakatlarining eksport strategiyasi: Chili tajribasi

Lotin Amerikasi mamlakatlari eksportni rivojlantirishda tabiiy resurslarga tayanadigan iqtisodiyotlardan yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga asoslangan raqobatbardosh modelga o'tish borasida izlanishlar olib bormoqda. Ushbu mintaqada ayniqsa Chili davlatining tajribasi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va global bozorga muvaffaqiyatli integratsiyalashuv bo'yicha eng samarali amaliyotlardan biri sifatida alohida ajralib turadi. Chili iqtisodiyoti tabiiy resurslarga boy bo'lishiga qaramay, bu resurslardan samarali foydalanish va ularni yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga aylantirishga qaratilgan tizimli siyosatni shakllantirdi[5].

Ochiq bozor siyosati va keng qamrovli erkin savdo tarmoqlari

Chili eksportni kengaytirishning asosiy omillaridan biri sifatida ochiq bozor siyosatini izchil amalga oshirdi. Mamlakat 60 dan ortiq davlat bilan



erkin savdo shartnomalarini imzolagan bo'lib, bu uni dunyodagi eng keng qamrovli savdo tarmoqlariga ega iqtisodiyotlardan biriga aylantiradi. Ushbu shartnomalar Chili mahsulotlari uchun tarif va notarif to'siqlarni sezilarli darajada kamaytirib, jahon bozoriga barqaror va keng kirish imkonini yaratdi. Natijada Chili eksportining geografik diversifikatsiyasi oshib, eksport hajmlarining tashqi shoklarga nisbatan chidamliligi kuchaydi.

Qishloq xo'jaligi eksportini modernizatsiya qilish va logistika innovatsiyasi

Chili qishloq xo'jaligi eksportini diversifikatsiya qilishga katta e'tibor qaratib, vino, meva-sabzavot va dengiz mahsulotlarini jahon bozorida yetakchi mahsulotlarga aylantirdi. Ayniqsa yangi mevalarni Shimoliy yarimshar davlatlariga havo yo'li orqali yetkazib berish tizimi mamlakat eksportidagi logistika innovatsiyasining yorqin ko'rinishidir. Uzoq geografik masofaga qaramay, sovutkichli zanjir texnologiyalari, tezkor yuk tashish tizimlari va sifatni sertifikatlash mexanizmlari Chili qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yuqori talab bo'lgan bozorlarga yetkazib berishda raqobatdoshligini oshirdi.

Bundan tashqari, vinochilik sohasining modernizatsiya qilinishi Chili mahsulotlarini premium segmentga olib chiqib, eksport qiymatining sezilarli oshishiga sabab bo'ldi. Ilmiy-tadqiqot markazlari, ilmiy laboratoriyalar va agrosanoat klasterlarining rivojlanishi qishloq xo'jaligi eksportini texnologik asosda mustahkamladi.

Mis sanoatida qo'shimcha qiymat yaratish va davlat rolini kuchaytirish

Chili dunyoda mis qazib olish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri bo'lib, mamlakat ushbu tabiiy resursdan samarali foydalanish orqali eksport strukturasi takomillashtirishga katta hissa qo'shdi. Codelco davlat kompaniyasi rahbarligida mis qazib olish jarayonlari modernizatsiya qilindi, qayta ishlash quvvatlari kengaytirildi va samaradorlik oshirildi. Xom misni eksport qilishdan ko'ra, uni qayta ishlangan, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar shaklida tashqi bozorlarga chiqarish mamlakatga qo'shimcha tushumlar keltirdi.

Mis sanoatining rivojlanishida davlatning ishtiroki barqaror investitsiya oqimini ta'minlash, texnologiyalarni modernizatsiya qilish va ekologik standartlarni joriy etishda muhim omil bo'ldi. Soha eksportining barqarorligi davlat siyosati, xususiy sektor investitsiyalari va texnologik innovatsiyalar uyg'unligiga tayanadi.

Chili tajribasi Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun eksportning diversifikatsiyasi va tabiiy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha muvaffaqiyatli model bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat ochiq bozor siyosati,



logistika innovatsiyalari, qishloq xo'jaligi va vinochilik sektorlarida yaratilgan yuqori qo'shilgan qiymat hamda mis sanoatini modernizatsiya qilish orqali eksportni iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga aylantirdi. Ushbu tajriba resurslarga boy mintaqalar, jumladan O'zbekiston uchun ham eksport strategiyasini kompleks tarzda shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Asosiy xulasalar va tavsiyalar. Xorijiy tajribalarni tahlil qilish asosida quyidagi umumiy printsiplar ajratiladi:

Davlat va biznes hamkorligi. Barcha muvaffaqiyatli mamlakatlar eksportni qo'llab-quvvatlash uchun samarali davlat-xususiy sektor hamkorligini yaratdilar. Bu subsidiyalar, soliq imtiyozlari, eksport moliyalashtirishini o'z ichiga oladi.

Ta'lim va kadrlar tayyorlash. Yuqori malakali ishchi kuchi eksport raqobatbardoshligining asosi. Professional va texnik ta'limga investitsiyalar juda muhim.

Innovatsiya va texnologiyalar. Raqobatbardosh eksport mahsulotlari yaratish uchun ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga doimiy investitsiya kiritish zarur. Davlat, universitet va biznes o'rtasidagi uchrashuv muhim rol o'ynaydi.

Bozorlarni diversifikatsiya qilish. Bir yoki ikki bozorga bog'liqlikni kamaytirish uchun eksport geografiasini kengaytirish strategiyasi kerak.

Sifat va brendsozlik. Arzon narx bilan emas, balki yuqori sifat va kuchli brend yaratish orqali uzoq muddatli raqobatbardoshlikka erishish mumkin.

Logistika va infratuzilma. Zamonaviy transport infratuzilmasi, samarali port va bojxona xizmatlari eksport xarajatlarini kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Qiymat zanjirida yuqoriga ko'tarilish. Xom ashyo eksportidan qayta ishlangan va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga o'tish iqtisodiy rivojlanishning muhim omili.

Eksport moliyalashtirish tizimi. Eksportchilar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash, kredit kafolatlari va sug'urta xizmatlari muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro standartlar va sertifikatlash. Mahsulotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish va kerakli sertifikatlarni olish jahon bozorlariga kirishni osonlashtiradi.

Raqamli texnologiyalar. Elektron tijorat platformalari, raqamli marketing va onlayn savdo yangi eksport imkoniyatlarini ochmoqda.

Xulosa. Eksportni rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribalari shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyat uchun murakkab va uzoq muddatli strategiya zarur. Har bir mamlakat o'z sharoitlari va imkoniyatlariga mos holda strategiya ishlab chiqishi kerak, lekin yuqorida keltirilgan umumiy



printsiplarga amal qilish zarur. Davlat qo'llab-quvvatlashi, innovatsiyalar, sifatli kadrlar tayyorlash, infratuzilma rivojlantirish va xalqaro hamkorlik eksport salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlaridir.

O'zbekiston uchun bu tajribalar qimmatli darslar beradi. Mamlakatimiz o'z raqobat ustunliklarini - geografik joylashuv, tabiiy resurslar, tarixiy an'analar va yoshlarning ulushi yuqori aholi tarkibi - hisobga olgan holda, xorijiy eng yaxshi amaliyotlarni qo'llash orqali eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmurotov, F. (2025). Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 3(4).

2. Xolmurotov, Fozil (2025) *RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH VA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MINTAQAVIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH: NAZARIYA VA AMALIY YONDASHUVLAR*. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5 (1). pp. 106-118. ISSN 2181-1342

3. Xolmurotov, F. (2024). EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA UNING MINTAQAVIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 157-162.

4. Xolmurotov, F. (2023). Mintaqada aholi turmush farovonligini oshirishda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlar roli. *Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук*, 3(7), 83-91.

5. Xolmuratov, X., Ashurova, M., Bobojonov, A., Nurmuxamedov, S., & Xolmurotov, F. (2025, November). Econometric analysis of the relationship between CO2 emissions, energy consumption and economic growth in Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3331, No. 1, p. 030020). AIP Publishing LLC.



MUNDARIJA | TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF ONLINE LEARNING FOR UNIVERSITY STUDENTS To'xtasinova Yulduzxon Abdullajon qizi Aliyeva Sarvinov	3
2.	THE VERB CONJUGATION AND USAGE IN OLD ENGLISH Yulduzkhon Rayimova, Gulyora Ismoilova	11
3.	FALAJDAN (INSULT, HALOKAT) SO'NG QO'L VA OYOQ HARAKATLARINI TIKLOVHI ROBOT EKZOSKELETLAR. Ibragimov Abdulaziz, Muhiddinov Xurillo	14
4.	Xalq pedagogikasida milliy bayramlar va marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni Rajabboyeva Shaydo Umidbek Qizi Xalmatova Dilobod Alimjanova	18
5.	XALQ PEDAGOGIKASI MANBALARIDA TARBIYAVIY MAZMUN VA G'OYALAR Xalmatova Dilobod Alimjanovna Abdumurodova Mashhura Ikromjon qizi	21
6.	O'SMIRLARDA EMPATIYA QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Qodirova Zebuniso Malikovna	24
7.	MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA EMOTSIYANI BOSHQARISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH Shukurova Muqaddas Nuritdin qizi	27
8.	EUPHEMISMS IN HEALTHCARE Qobilova Madinabonu Ravshanbek qizi, Dushatova Shohsanam	29
9.	Gaz turbina qurilmalari turlari va eng ideal termodinamik tsikllari Nizamova Lola Odiljonovna Fayzullayev Sayfulloh Xayrullo o'g'li	33
10.	The phonetic analysis of rhoticity: a comparative study between american and british english Mukarramxon Abdumo'minova	42
11.	Fanning integratsiyasida ilmiy tadqiqotlarning o'rni Nurmatova Iroda Akramdjonovna Islomova(Abdusamatova) Odinaxon Abdusalom qizi	45
12.	Zamonaviy o'zbek tilida ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan yangi so'zlar (neologizmlar) tahlili Isroilova Shohsanam	51
13.	THE IMPACT OF TECHNOLOGY ON LANGUAGE LEARNING Nazarova Gulbahor Azimjon qizi, Ochilova Gavhar Normeng qizi	56
14.	O'zbekistonda faoliyat yurutuvchi diniy tashkilotlar Usmonova Shohsanam Shavkatovna Numono'va Dilnora Farhodbek qizi Mirzarahmonova Ozoda Abduhamid qizi	60



15.	Axborotlarni kompyuterda tasvirlanishi Tojimamatov Israil Nurmatovich Ergashboyeva Sarvinoz Qahramon qizi	66
16.	Issiqlik kofitsenti o'zgaruvchan bo'lgan materiallarda issiqlik tarqalishini modellashtirish Maxmudova Muqaddasxon Abdurashid qizi	70
17.	G'ovakli g'ishtlarning issiqlik o'tkazuvchanlik xossalarini sonli modellashtirish va qurilish me'yorlari nuqtai nazaridan baholash Maxmudova Muqaddasxon Abdurashid qizi	77
18.	Ikki o'lchovli keskin kengayuvchan kanallarda oqimlarni ajralishi jarayonini sonli tadqiq etish Maxmudova Muqaddasxon Abdurashid qizi	80
19.	Keskin kengayishli quvurda turbulent oqimning k-ω modeli asosida sonli modellashtirilishi Maxmudova Muqaddasxon Abdurashid qizi	83
20.	Raqamli transformatsiya jarayonlarining korxonalar samaradorligiga ta'siri Xudoyberdiyeva Olima Otabek qizi	84
21.	OCHIQ MANBALI ONLAYN RESURLAR VA MOC PLATFORMALARIDAN FOYDALANIB FIZIKANI O'QITISH O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi Nizamatdinova Barshinay Kuat qizi	91
22.	TABIIY FANLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA STEAM YONDASHUVI ASOSIDA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi Najmiddinova Charos Alisher qizi	94
23.	Raqamli transformatsiya sharoitida korxonada samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining o'rni. Diyorova Dilyora Diyor qizi	97
24.	Innovatsion texnologik topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish mazmuni G'iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi	102
25.	The Paris Agreement: A New Era in Global Climate Diplomacy Abdumo'minova Mukarramxon	105
26.	BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLAR TASHKIL QILISH Raxmanova Gulnora	107
27.	Active Directory Domain Services (AD DS) arxitekturasi va zamonaviy boshqaruv usullari Nazirkulov Jamoldin Davlatjon o'g'li Mansurova Ozodaxon Maxamatjon qizi	112
28.	Amerika prezidentlari nutqida kirish so'zlarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi Kenjayeva Gulbadanbegim Alibek qizi	117
29.	MEVA VA SABZAVOTLARNI SAQLASH USULLARI	120



	Musirmanova Xojar Shuhrat qizi Tursunova Mushtariy Xasan qizi Nosirova Lola Baxtiyor qizi Norqulova Zohida Tashbayevna	
30.	Pedagogik nazorat va baholash. Nurmatova Gulmirabonu Nurali qizi, Xolova Mohigul Shavkatovna	124
31.	Kompyuter tarmoqlari orqali mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro axborot almashuv tizimi Mansurova Ozodaxon Maxamatjon qizi Karimov Jasurbek Xasanboyevich	127
32.	ARGOUML MUHITI VA UNING IMKONIYATLARI Mansurova Ozodaxon Maxamatjon qizi Karimov Jasurbek Xasanboyevich	131
33.	Ta'lim yo'nalishida shaxs kamolotini ta'minlashda sotsiologik yondashuvlar Mamasiddiqova Mohinur Davlatbek qizi	136
34.	Ingliz va o'zbek tillarida "oila / family" konseptining lingvomadaniy tahlili Shakirova Nodiraxon Murodjon Qizi	141
35.	Teaching english in classes with fast and slow learners: problems, theoretical foundations, and effective pedagogical solutions Isroilov Anvarjon G'iyosidinovich	146
36.	Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari asosida o'quvchilarning iqtidorini aniqlash mexanizmlari Nazarov Sulaymon Mannonovich	150
37.	Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari asosida o'quvchilarning iqtidorini aniqlash modeli Nazarov Sulaymon Mannonovich	153
38.	Analysis of factors influencing the formation of the political elite Sirojiddinova Zulayho, Sotvaldiyeva Hilola	156
39.	Kompyuterda axborotlarni qayta ishlash Abdushukur Abduvaliyev Abdug'ani o'g'li	159
40.	Murakkab iqtisodiy jarayonlarni barqarorligini ta'minlashda sun'iy intellektni qo'llanishi Nurmatova Xumor Panji qizi	162
41.	DATA MINING BO'YICHA YAKUNIY LOYIHA Abduqodirov Javohir	165
42.	Ingliz tilida gapirishdagi fonologik jarayonlar Abdug'aniyeva Feruza, Dushatova Shoxsanam	168
43.	Signal va tasvirlarni qayta ishlashning asosiy tushunchalari va usullari Yusubjonov Yaxyobek O'tkirjon O'g'li Dalilbekov Lochinbek	170
44.	Paxta g'aramini buzish va havo transportiga uzatishdagi notekislikni o'rganish t.f.f.d.. Umarova.M.O., M.V. Olimjonova	173



45.	The Effectiveness of the Flipped Classroom Approach in Teaching English to High School Students Sabirova Nilufar Matnazar qizi, Turopova Feruza	176
46.	INTEGRATING DIGITAL TOOLS AND ONLINE PLATFORMS INTO ENGLISH LANGUAGE INSTRUCTION Sobirova Nilufar, Turapova Feruza	180
47.	Guy de Maupassant "Abbé Marignan" Asari va "Oy yog'usi" Tarjimasining Badiiy Tahlili Rustamova Ruxshona	185
48.	Quvur ichidagi laminar va turbulent oqimlarning Blazius, Nikuradze va Lshurt talqinlari: nazariy va eksperimental tahlil Olimova Ozodaxon Ulug'bek qizi	189
49.	Keskin kengayuvchi kanalda oqimni COMSOL Multiphysics dasturida modellashtirish. Olimova Ozodaxon Ulug'bek qizi	193
50.	YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY O'SISH VA EKOLOGIK BARQARORLIK UYG'UNLIGI Dilnavoz Bahromova Azamatovna Gafurova Lola Ruyiddinovna Ravshanova Nigora Ulug'bek qizi	197
51.	Sergey Yeseninning "Singlimga xat" she'rining poetik tahlili Inomjonova Madinaxon Bahromjon qizi	201
52.	Eksportni rivojlantirishning ilg'or xorij tajribalari Fozil Xolmurotov	205